

D.T. SODIQOVA

O'ZBEK ADABIYOTI TARIXI: BUXORO ADABIY MUHITI

O'quv qo'llanma



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

SODIQOVA DILOROM TURSUNOVNA

**O‘ZBEK ADABIYOTI TARIXI: BUXORO
ADABIY MUHITI**

O‘quv qo‘llanma

**Ta’lim yo‘nalishi: 70230104 -Adabiyotshunoslik
(o‘zbek adabiyoti)**

**“Durdona” nashriyoti
Buxoro – 2025**

UO'K 821.512.133.09(075.8)

83.3(50')ya73

S 73

Sodiqova, D.T.

O'zbek adabiyoti tarixi: Buxoro adabiy muhiti [Matn] : o'quv qo'llanma / D.T. Sodiqova .-Buxoro: Sadriddin Salim Buxoriy, 2025.-112 b.

KBK 83.3(50')ya73

Mazkur o'quv qo'llanma Respublika oliy o'quv yurtlari 70230104 - Adabiyotshunoslik (o'zbek adabiyoti) ta'lim yo'nalishi talabalariga o'tiladigan "Buxoro adabiy muhiti" fani dasturining "XIX asrning 2-yarmigacha bo'lgan Buxoro adabiy muhiti" moduli asosida tayyorlangan bo'lib, unda Buxoro adabiy muhitidagi tarixiy, ijtimoiy muhit, mumtoz asarlarni sharhlash, folklor va yozma adabiyot namunalariga tarixiy davr asosida yondashish, she'riy asarlarni tahlil qilish hamda g'oyaviy-badiiy xususiyatlar to'g'risidagi fikrlarni muayyan tizim asosida ifodalash jarayonida ijodkor uslubini aniqlash masalalari yoritilgan.

O'quv qo'llanma adabiyotshunoslik, mumtoz adabiyot tarixi, matnshunoslik, tasavvufshunoslik, navoiyshunoslik kabi soha tadqiqotchilari, oliy ta'lim muassasalarining filologiya fakulteti talabalari, magistrantlar, ona tili va adabiyoti fani o'qituvchilari va mumtoz adabiyot ixlosmandlariga mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir

Eshonqulov Husniddin Pirimovich, Buxoro davlat universiteti
professori, filologiya fanlari doktori(DSc)

Taqrizchilar:

Nuriddinov Shahobiddin Boboyorovich, Qarshi davlat
universiteti dotsenti, filologiya fanlari doktori (DSc)

Amonova Zilola Qodirovna, Buxoro davlat universiteti
professori, filologiya fanlari doktori(DSc)

**O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi Buxoro davlat universitetining 2025-
yil 12-fevraldagi 83-U sonli buyrug'iga asosan nashr etishga
ruxsat etilgan. Ro'yxatga olish raqami 83-05**

ISBN 978-9910-642-01-2

KIRISH

Adabiyot insonning dardlarini, malhamlarini davolovchi mukammal vositasidir. Azal-azaldan xalqlar, millatlar o'zlariga yupanch istab aksar hollarda adabiyotga oshno tutinganlar. Tarixga aylanayotgan har bir kunimiz hech bo'lmasa kichik bir jihati bilan xotiramizda muhlanaveradi. Adabiyot ham taraqqiyot yo'lidan tobora ilgarilab borayotgan bir paytda, ayni shu davrgacha yashab ijod etgan shoir-u adiblarning ommaga hali ma'lum bo'lmagan ma'naviy meroslarini o'rganish, tadqiq etish va yoritish bugunning dolzarb vazifalaridan sanaladi.

Ma'lumki, adabiyotshunoslikda o'z e'tiqodiy qarashlariga tayanib, ilohiy-irfoniylar, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-ta'limiy qarashlarini badiiy aks ettirgan ijodkorlar asarlariga oid salmoqli tadqiqotlar yaratilgan. Biroq ularning aksariyati o'z davridayoq badiiy barkamol asarlari bilan she'riyat ixlosmandlari qalbiga kirib borgan bo'lsa-da, adabiy merosi uzoq yillar davom o'rganilmadi. Ayni paytda bunday sohibdevon shoir-u shoirlar poetik mahoratini birlamchi manbalar asosida ilmiy o'rganish adabiyotshunoslar diqqatini o'ziga jalb etib kelmoqda.

Yangi O'zbekistonda uchinchi Renessans poydevori yaratilishi munosabati bilan Buxoro adabiy muhitida shakllanib, o'zbek va tojik tillarida ijod etgan iste'dodli ijodkorlar merosini o'rganishga keng yo'l ochildi. Zero, muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev e'tirof etganlaridek: "Adabiyot xalqning yuragi, elning ma'naviyatini ko'rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo'l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta'sirchan kuchidan foydalanish kerak. Ajdodlar merosini o'rganish, buyuk madaniyatimizga munosib buyuk adabiyot yaratish uchun hamma sharoitlarni yaratamiz"¹.

Yurtimizda yoshlar ongida milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini kuchaytirish orqali mumtoz adabiyotimizga mehr uyg'otamiz.

¹ Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 20-may kuni Adiblar xiyoboniga tashrifi chog'ida so'zlagan nutqi.

Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 10-fevraldagi PF-126-son "Qadimiy yozma manbalarni saqlash va tadqiq etish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonlari mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Adabiyotshunoslikda Buxoro adabiy muhiti vakillari ijodiy merosining o'rganilish masalasini yoritish, zullisonaynlik an'anasining davom etishi, shoirlar ijodi misolida davr adabiyotida lirik janrlar taraqqiyoti, ularning o'ziga xos ijodiy uslubi, asarlaridagi mavzular mundarijasini aniqlash hamda ularning badiiy mahoratini tadqiq etib, umumlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

BUXORO ADABIY MUHITINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Reja:

1. Buxoro adabiy muhitining shakllanishi
2. XIX asrda Buxoroda faoliyat yuritgan ijodkorlar

Tayanch tushunchalar:

Adabiy muhit, ijodiy jarayon, islom dini, tasavvuf, shayboniylar, ashtarxoniylar, muhaddislar, faqih-u mutasavvuflar, Imom al-Buxoriy, Abduxoliq G'ijduvoni, Bahouddin Naqshband, Abdurahmon Tamkin Buxoriy, Tolib Tolibiy, Muslihabegim Miskin, Shamsiddin Shohin, Sirojiddin Hakim Buxoriy.

Buxoro adabiy muhitining shakllanishi

Buxoro yurtimizning eng qadimiy go'shalaridan biri bo'libgina qolmay, balki ilm-fan, san'at, xususan, adabiyot keng taraqqiy topgan tamaddun beshigidir. Turli davrlarda mazkur hududda dunyoga kelgan, ijod qilgan adiblar, fozil-u fuzalolar tarix zarvaraqlarida tengsiz durdonalarni bitib qoldirganlar. Azaldan bu qadim shaharda ko'plab madrasalar, kutubxonalar va madaniy inshootlar mavjud bo'lib, ular orqali adabiyot va ilm-fan rivojlangan. Shu nuqtayi nazardan Buxoro adabiy muhiti o'zining boy ichki ijodiy merosi, milliy va ma'naviy qadriyatlari bilan ajralib turadi.

Islom dini g'oyalari Buxoro ijtimoiy hayotida yetakchi mavqe'da turgan. Shu bilan birga, san'at, hunarmandchilik, adabiyot ham o'z yo'lida taraqqiy etgan. Manbalarda Buxoro islomiy madaniyatning markazlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Asrlar davomida sharif Buxoroning ijtimoiy-siyosiy va adabiy-madaniy hayotida ilohiy-irfoniy g'oyalar yetakchi mavqeda turgan. Imom al-Buxoriy, Abduxoliq G'ijduvoni, Bahouddin Naqshband kabi buyuk muhaddislar, faqih-u mutasavvuflar shu zaminda tug'ilib, voyaga

yetganlar, islom dini va tasavvuf ravnaqiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shganlar.

Buxoro adabiy muhitida yaratilgan asarlarda asosan diniy tushunchalar ustuvorlik qiladi. Ijodkorlar asarlarida Navoiy, Fuzuliy, Bedil, Hofiz kabi shoirlar an'analari davom ettirilib, janrlar taraqqiyotida ma'lum o'zgarishlar kuzatiladi. Jumladan, g'azal, muxammas, ta'rix, qit'a, masnaviy kabi janrlarning yangi qirralari kashf etilgan.

Adabiyotshunos olimi Iqboloy Adizova XVI–XIX asr Buxoro adabiy muhitining o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatar ekan, u ham

qo'shni xonliklardan farqli o'laroq, bu yerda markazlashgan adabiy muhitning yo'qligini ta'kidlaydi. Haqiqatdan ham, qo'shni Xiva va Qo'qon xonliklarida adabiy muhit birmuncha markazlashgan bo'lib, xonlar o'z huzurida adabiyot va san'at ahlini to'plab, ularni ijodiy ishlarga rag'batlantirib turishgan. Xuddi shu davrda Buxoroda bir xil qolipga tushib qolgan va faqat she'riy san'atlar uchun ijod qilish o'rniga, rang-barang saroy muhitiga mute' bo'lmagan xalqchil asarlar yaratilgan.

Buxoro adabiy muhiti aholi etnik qatlamidan kelib chiqib, ayrim xos xususiyatlarga ega. Bu yerda zullisonaynlik (ikki tillilik) an'anasining uzoq tarixi bor. Ijod sohiblari, asosan ikki – o'zbek va fors-tojik tilida ijod qilishgan. Ikkala tilda ham ibratli asarlar yaratilgan. Xususan, Vola, Shavqiy, Shukuriy, Xiromiy, Joniy kabi ko'plab ijodkorlar yaratgan adabiy merosni e'tirof etish mumkin².

XIX asrning oxiri XX asr boshlarida Buxoro adabiy muhitida ko'plab tazkiralar yaratilgan. Tazkirachilik maktabining boshida, shubhasiz, Qori Rahmatulloh Voze (1818–1894) turadi. Uning 1871-yilda tuzilgan "Tuhfatul-ahbob fi tazkira-til-as'hob" ("Suhbatdoshlar zikrida do'stlar tuhfas") tazkirasida XVIII asrning oxiri XIX asr Turkiston shoirlari haqida ma'lumot beriladi.

Buxoro adabiy muhitida tazkira yozish bilan birga, hajv va she'riy sayohatnomalar yozishga ham katta e'tibor beriladi. Buxoro

² Adizova I. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi.-Toshkent: Fan, 2006.70-b.

amirlaridan Amir Haydarning daftardori, jondorlik Mirzo Sodiq Munshiyning “Dahmayi shohon” (“Shohlarning qabrlari”) masnaviysi keyinroq shu yoʻnalishdagi bir qator asarlarning paydo boʻlishiga olib keldi. Shu bilan birga, bu davrda sayohatnomalar yozish ham kuchaydi. Ijodkorlardan Jonmuhammad Joniy Sharq adabiyotida qadim anʼanalariga ega boʻlgan sayohatnoma janriga yangidan ruh berdi.

Tarixdan maʼlumki, XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoro xonlari saroyida oʻziga xos adabiy muhit yaratilgan boʻlib, ularning atrofida ham adabiy muhit vakillari faoliyat yuritishgan.

Shayboniylar hukmronligi yillarida Buxoroda adabiyot, tarix, tarjimonlik, lugʻatnavislik ravnaq topdi. Hasanxoʻja Nisoriy, Muhammad Solih, Abdulla ibn Muhammad, Hofiz Tanish Buxoriy, Zayniddin Vosifiy kabi ijodkorlarning yaratgan asarlari bugungi kunda zamonaviy ilm jamoatchiligi tomonidan tadqiqot obyektlari markaziga aylandi.

Ashtarxoniylar sulolasi davrida ham adabiyot va tarixnavislik sohalari taraqqiyoti toʻxtab qolmadi. Bu davrdagi muttasil urush harakatlari madaniy hayot taraqqiyotiga katta taʼsir koʻrsatdi. Ammo shunga qaramay adabiyot, sanʼat va boshqa sohalarda bir qancha isteʼdodli ijodkorlar yetishib chiqdi. Jumladan, Sayido Nasafiyning “Hayvonnoma”, Mahmud ibn Valining “Bahr ul-asror”, Muhammad Amin Buxoriyning “Ubaydullanoma”, Abdurrahmon Toleʼning “Tarixi Abulfayzxon”, Muhammadamin ibn Muhammadzamon Buxoriyning “Muhit ut-tavorix”, Turdi Farogʻiyning “Subhonqulixon toʻgʻrisida hajviya” kabi asarlarini kiritish mumkin. Ayni zamonda Mahmud ibn Vali, Muhammad Yusuf Munshiy, Mir Muhammad Amin Buxoriy, Muhammad Vafo Karmagiy, Abdurahmon Davlat kabi ijodkorlarning ijod namunalarining oʻrganilishi va tahlil etilishi natijasida bugungi kungacha koʻplab maqola, tezis, dissertatsiya va monografiyalar nashr yuzini koʻrdi.

Mangʻitlar hukmronligi davrida ham adabiy hayot maʼlum darajada rivojlandi. XVIII asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Muhammad Vafo Karminagiyning “Tuhfayi xoniy”, Muhammad

Sharifning “Toj ut-tavorix”, Muhammad Mirolim Buxoriyning “Fathnomayi sultoni”, Mirzo Abdulazim Somiyning “Mang’it xonlari tarixi”, Ahmad Donishning “Tarjimayi ahvoli amironi Buxoro” kabi tarixiy-badiiy asarlar yaratildi.

Mang’it amirlari, ayniqsa, Amir Haydar davrida diniy va dunyoviy ma’lumotda shayboniy va ashtarxoniylar hukmdorlardan ustun bo’lgan. Amir Haydar davrida Buxoro islom ilmlari markaziga aylandi. Uning hukmronligi davrida Buxoro arkida hashamatli mehmonxona qurilgan va xalq tashabbusi bilan maktab, masjid, xonaqoh, madrasalar barpo etilgan. Movarounnahr tarixchilari tomonidan amir Haydar davrida Buxoro gullab-yashnaganligi yozib qoldirilgan.

Buxoro amiri Muzaffarxonning o’g’li Abdulahadxon “Ojiz” taxallusi bilan she’rlar yozgani tarixdan ma’lum. Amir Abdulahadxon o’qimishli va ziyoli inson bo’lib, ikki tilda – fors-tojikcha hamda o’zbekcha she’rlar yozgan zullisonayn ijodkor sanalgan. Uning Buxoro, Karmana va Shahrisabz shaharlaridagi saroylarida mushoira kechalari tashkil qilingan. Amir Abdulahadxonning saroyi shoirlar, fozillar, yozuvchilar bilan to’la bo’lgan, ular bilan doimiy mushoira kechalari o’tkazilgan.

Buxorodagi hukmron sulolarning eng oxirgisi- mang’itlar davrida adabiy muhit ishtirokchilari – shoirlar, tarixnavislar haqida so’z ketganda, Mirzo Sodiq Munshiy, Muhammad Sharif Osif, Junaydullo Hoziq, Fitrat Vardonze, Mujrim Obid, Qori Rahmatulloh Vozeh, Shamsiddin Shohin, Abdurahmon Tamkin Buxoriy, Tolib Tolibiy, Muslihabegim Miskin, Ahmad Donish, Mirzo Somiy, Sahbo Vobkandiy, Sharifjon Maxdum nomlarini alohida e’tirof etish joiz.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Buxoro islomiy madaniyatning markazlaridan biri sifatida e’tirof etilishiga sabab nima?
2. Buxoro ijtimoiy hayotida qanday g’oyalar yetakchi o’rinni egallaydi?
3. Buxoro adabiy muhitida yaratilgan asarlarda asosan qanday mavzular ustuvorlik qiladi?

4. Buxorolik ijodkorlar asarlarida qaysi shoirlar an'analari davom ettirilgan?
5. Adabiyotshunos Iqboloy Adizova Buxoro adabiy muhiti to'g'risida qanday fikrlarni bildirgan?
6. Buxoro adabiy muhiti vakillarini sanang.
7. Shayboniylar hukmronligi davrida faoliyat yuritgan buxorolik shoirlar kimlar?
8. Ashtarxoniylar hukmronligi davrida Buxoroda qanday asarlar yaratildi?
9. "Tuhfayi xoniy" asari muallifi kim?
10. Mirzo Abdulazim Somiy asarlarini sanang.
11. Mang'itlar hukmronligi davrida yaratilgan adabiy-tarixiy asarlar nomini sanang.
12. Qaysi amir "Ojiz" taxallusi bilan she'rlar yozgan?
13. Buxoroning qaysi amiri davrida Buxoro, Karmana va Shahrisabz shaharlarida mushoira kechalari tashkil qilingan?
14. Mang'itlar davrida faoliyat yuritgan tarixnavislar haqida ma'lumot bering.
15. Buxoro adabiy muhitida faoliyat yuritgan tazkiranavislar haqida gapiring.

Mavzuga oid testlar:

1. Buxoroda tazkirachilik maktabining asoschisi qaysi qatorda to'g'ri sanalgan?
 - A. Muhammad Mirolim Buxoriy
 - B. Qori Rahmatulloh Vozeh
 - C. Vafo Karminagiy
 - D. Mirzo Somiy
2. 1871-yilda tuzilgan "Tuhfatul-ahbob fi tazkira-til-as'hob" ("Suhbatdoshlar zikrida do'stlar tuhfas") tazkirasi muallifi kim?
 - A. Mirzo Abdulazim Somiy
 - B. Muhammad Sharif
 - C. Qori Rahmatulloh Vozeh
 - D. Ahmad Donish
3. Qaysi qatorda Mirzo Sodiq Munshiy asari to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. "Tuhfatul-ahbob fi tazkira-til-as'hob"
 - B. "Tarjimai ahvoli amironi Buxoro"
 - C. "Dahmayi shohon"
 - D. "Fathnomayi sultoni"
4. "Dahmayi shohon" ("Shohlarning qabrlari") asari qaysi janrda yozilgan?
- A. Doston
 - B. Muxammas
 - C. Masnaviy
 - D. She'riy hikoyat
5. Shayboniylar hukmronligi yillarida Buxoroda qaysi sohalar rivojlandi?
- A. Adabiyot, tarix, tarjimonlik,
 - B. Lug'atnavislik, falsafa, mantiq
 - C. Tarjimonlik, fiqh, mantiq
 - D. Falsafa, ilohiyot, lug'atnavislik
6. "Ubaydullanoma" asari muallifi kim?
- A. Muhammad Amin Buxoriy
 - B. Qori Rahmatulloh Vozeh
 - C. Ahmad Donish
 - D. Vafo Karminagiy
7. Mang'it amirlaridan qaysi amir davrida diniy va dunyoviy ilmlar ustun bo'lgan?
- A. Amir Muzaffar
 - B. Amir Haydar
 - C. Amir Abdulahadxon
 - D. Amir Shohmurod
8. "Ojiz" taxallusi bilan she'rlar yozgan Buzoro amiri qaysi qatorda to'g'ri berilgan?
- A. Amir Haydar
 - B. Amir Abdulahadxon
 - C. Amir Nasrullo
 - D. Amir Muzaffar
9. "Tarixi Abulfayzzxon" asari muallifi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. Abdurrahmon Tole'
- B. Muhammad Amin Buxoriy
- C. Ahmad Donish
- D. Fitrat Vardonze

10. "Subhonqulixon to'g'risida hajviya" asari muallifini aniqlang.

- A. Ahmad Donish
- B. Mujrim Obid
- C. Turdi Farog'iy
- D. Muhammad Amin Buxoriy

Adabiyotlar

1. Abduraxmon Tole'. Istoriya Abulfeyzxana, -Toshkent.1959.
2. Hofiz Tanish Buxoriy, Abdullanoma. 1-2 jildlar, -Toshkent.1999-2000.
3. Mirziyoyev Sh. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ijodkorlar bilan uchrashuvidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi. 2017-yil, 4avgust.
4. Mirziyoyev Sh. Adabiyot, san'at va madaniyat yashasa, millat va xalq bezavol yashaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ijodkorlar bilan uchrashuvidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi. 2019-yil 9-fevral.
5. Mirza Abdal Azim Sami, Tarix salatini mangitiyai Buhara, –M., 1962.
6. R.Orzibekov. O'zbek adabiyoti tarixi. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti. –Toshkent. 2006.
7. Safarov O. Buxoro adabiy harakatchiligi tarixidan lavhalar. Durdona. –Buxoro 2015. –B.583.
8. Sayyid Mansur Olimiy. Turkiston beshigi. –Buxoro. 2004.-B.68.
9. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti, 1-qism. – Toshkent. 2000.
10. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.1-jild. –Toshkent.2001.



XIX asr Buxoroda faoliyat yuritgan ijodkorlar

Mumtoz adabiyotimiz tarixida shunday iste'dod vakillari borki, ular o'z ijodiy yo'liga ega ekanligi bois yashagan davridanoq she'riyat ixlosmandlari ko'ngliga kirib borgan bo'lsa-da, adabiy merosi hanuz tadqiqotchilarni kutmoqda. Buxorolik iste'dodli ijodkorlar sirasiga Abdurahmon Tamkin Buxoriy, Tolib Tolibiy, Muslihabegim Miskin, Shamsiddin Shohin, Sirojiddin Hakim Buxoriy kabi o'nlab ijodkorlarni kiritish mumkin. Ularning e'tiqodiy qarashlari nazmiy yaratmalaridan ayonlashib turadi. Shu bois yuqorida nomi zikr etilgan ijodkorlar salohiyatli sohibdevon ijodkorlar bo'lsa-da, nomi o'tgan asr adabiyotshunoslari tomonidan deyarli eslanmadi.

Bunday qalamkashlarning aksariyati asrlar davomida shakllangan e'tiqodiy qarashlarimizga asoslanib, shular asosida

o'zlarining falsafiy-irfoniy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-ta'limiy qarashlarini badiiy aks ettirishga intilishgan. Shu yo'nalishda ijod qilgan qalamkashlarimiz asarlarini ilmiy o'rganish birmuncha kech - milliy istiqlool shabadalari esa boshlagan davrlardan keng quloch yoya boshladi.

XIX asrda Buxoroda yashab faoliyat ko'rsatgan, o'zidan boy ma'naviy meros qoldirgan zullisonayn shoirlardan biri Tolib Tolibiydir. Shoirning hayoti, ijodi, merosining ko'lami va ahamiyati talab darajasida o'rganilmagan. Shuningdek, shoirning iqtidori, salaflarga munosabati, ijodining o'ziga xos jihatlari, asarlarining janriy tasnifi, mundarijasi, ularda mavzu va g'oya masalalari, badiiy mahorati hozircha adabiyotshunoslikning asosiy mezonlari nuqtayi nazaridan tadqiq etilmagan.

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro viloyat axborot kutubxona markazi Sharq qo'lyozmalari bo'limida 242-inventar raqami ostida Tolib Tolibiyning "Murattabnoma" deb atalgan o'zbekcha va tojikcha she'rlaridan tarkib topgan devoni saqlanadi. Ushbu devonda jamlangan 4833 misradan iborat she'rlarining o'ziyoq bu ijodkorning badiiy salohiyatidan darak beradi. "Murattabnoma"da she'rlarning 4759 misrasi o'zbek tilida va qolgan 74 misrasining tojik tilida yozilganligi Tolib Tolibiyning zullisonayn shoirligidan dalolat beradi.

XX asrning 60-yillarida Tolib Tolibiy ijodiga doir qiziqishlar boshlangan edi. Akademik Vohid Abdullaev Buxoro viloyat Abu Ali ibn Sino nomidagi kutubxonaning Sharq qo'lyozmalari bo'limida saqlanayotgan "Devoni Tolib"ni nazardan o'tkazib, asar haqidagi qarashlarini bir maqola tarzida "Buxoro haqiqati" gazetasida chop ettirgan³. Keyinchalik olim o'sha maqolani yana bir tahrirdan o'tkazib, "Fan va turmush" jurnalida e'lon qiladi⁴ hamda 1967-yilda nashr etilgan "O'zbek adabiyoti tarixi" kitobida Buxoro adabiy muhiti shoirlari qatorida Tolib Tolibiy nomini ham tilga oladi, uning hasb-u holga oid ayrim she'rlaridan namunalar keltiradi⁵.

³ Abdullaev V.A. Tolib Tolibiy. "Buxoro haqiqati" gazetasi. –Buxoro:1960, 18 dekabr.

⁴ Abdullaev V. A. Tolib Tolibiy. Fan va turmush. – T.: 1961. – № 4. – B. 22-24.

⁵ Abdullaev V. A. O'zbek adabiyoti tarixi. II kitob. - T.: O'qituvchi, 1980. - B. 142-143.

Adabiyotshunos Temir Norovning “Jonmuhammad Joniy va Tolib Tolibiylarning adabiy merosi” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida Tolib Tolibiyning yuqorida tilga olingan devoni asosida ayrim fikr-mulohazalar bildirilgan. Uning dissertatsiya mavzusini aks ettiruvchi maqolalari ham vaqtli matbuotda e’lon qilingan bo’lib, Temir Norov Tolibiyning “Murattabnoma” deb nomlangan devonidan ayrim namunalarni alohida kitobcha holida nashr ettirgan⁶. Bu kitobga devon umumiy hajmining to’rtidan bir qism she’rlari kiritilgan bo’lib, unda asosan shoirning hasb-u hol yo’nalishidagi ijodidan namunalar tanlab olingan.

Temur Norov nashri asosidagi “Murattabnoma” asaridagi ishoralarga ko’ra ham Tolib Tolibiy XIX asr boshlarida Qo’ldosh deb nomlangan qishloqda (hozirgi Vobkent tumanining Xalaj qishloq fuqarolar yig’ini hududidagi) tug’ilgan, Boymuhammad ismli insonning yagona farzandi bo’lgan. Yoshligida qishloq maktabida tahsil olgan. Maktab ta’limidan so’ng Tolibiy Buxoro madrasalaridan birida o’qishini davom ettirgan. Bu yerda u fiqh, ilohiyot, falsafa, arab tilining nahv-u sarfini va mustaqil mutolaa orqali Sharq adabiyotini o’rgangan. Shoir she’riyatga ishtiyoqi balandligi tufayli o’z davrida tashkil etilgan adabiy davralarda ham ishtirok etgan. Otasi Boymuhammad xattotlik bilan shug’ullangan, shu orqali ro’zg’orini tebratgan. Tolib Tolibiy moddiy qiyinchiliklar tufayli qalandarlar to’dasiga qo’shilib, qalandarlik qilib, Buxoroda mavjud qalandarxonada g’aribona kun kechirgan.

Tolib Tolibiy Buxoroda amir Haydar (1802-1826), amir Nasrullo (1826-1860), amir Muzaffar (1860-1885) lar hukmronlik qilgan davrda yashagan. Bu davrda Buxoroda ijtimoiy-siyosiy ahvol qoniqarli darajada bo’lmagan, oddiy mehnatkash xalqqa jabr-zulm ko’rsatilgan zamon bo’lgan. Shoirlar ham Buxoroda ijodiy ish bilan shug’ullana olmay, boshqa o’lkalarda sarson-sargardonlikda yurishgan. Shoir Tolib Tolibiy ham bu girdobdan chetda qolmadi. U umrining asosiy qismini yuqorida ta’kidlaganimizdek, qalandarlar davrasida o’tkazgan, ular bilan muqaddas qadamjolar va

⁶ Tolib Tolibiy. Murattabnoma. Nashrga tayyorlovchi T. Norov. – T.: 1983. – 88 b.

shaharlarni tavof etgan. Tolib Tolibiy devonidan o‘rin olgan ilohiy-irfoniy, axloqiy-ma’naviy mavzudagi she’rlarida uning hasb-u holiga doir qaydlar ham nazarga tashlanadi. O’sha ishoralarga ko‘ra Tolib Tolibiy Xuroson, Yaqin Sharq va Arabiston, Balx, Marv, Kobul, Mashhad, Basra, shahri Shom (Damashq), Bag’dod kabi shaharlarda bo‘lib, u yerdagi qadamjolarini tavof etganligiga doir satrlarga duch kelamiz. Albatta, yer yuzidagi barcha musulmonlar muqaddas haj ziyoratiga borishni orzu qilganlari va bunga intilganlari kabi Tolib ham hamisha Makkayi mukarrama va Madinayi munavvara ziyoratiga oshiqqan. Va uning bu orzusi ellik ikki yoshga kirganda amalga oshganini devondan joy olgan muxammasidagi mana bu bandda yozib qoldirgan:

Dahr ichra rizo rohiga man oncha yugurdum,
Charchab gahi dunyoyi dag‘alga yuz o‘gurdum,
Ellik ikki yoshimda fano davrimni surdum,
Bordim Haramayn ichra kirib oncha o‘turdum,
Jonona kashish etmasa jo‘yona bo‘lonmang.

Tolib Tolibiy ham taqdir taqazosi bilan juda ko‘p yurtlarda bo‘lgan, musofirlik azoblarini tatigan. Garchi u yerlardagi ziyoratgohlar Tolibni o‘ziga rom qilgan bo‘lsa-da, u hech qachon o‘z tug‘ilib o‘sgan yerini unitmagan, hamisha uni sog‘ingan va qo‘msagan, qarindosh urug‘lari, do‘stlari qadrini sezgan. Mana shoirning musofirotda yozilgan she’rlaridan namunalar:

G‘aribdurman, Vatan qayda, chu man zog‘-u zag‘an qayda,
Manga sayri chaman qayda, rafiqi xushsuxan qayda,
Maningdek bevatan qayda, talabga etmagan qayda,
Farog‘at ichra tan qayda, o‘lub bitsam kafan qayda,
G‘ariblik dardiga do‘stlar ajal dasti davo bo‘ldi⁷.

Tolib Tolibiy o‘z she’rlarini alohida to‘plam holida jamlashda Sharq xalqlari adabiyotidagi devon tuzish tamoyillarini ijodiy o‘rganib, ularga tahrir-u tuzatishlar kiritish yo‘lidan borgan. Shoiridagi bunday mayl “Debocha”navislikda ham ko‘zga tashlanadi. Unga zamondosh bo‘lgan shoirlardan Shukuriy, Nodira, Amiriy, Munis, Ogahiy kabi mumtoz adabiyotimiz darg‘alari o‘z devonlariga

⁷ Tolib Tolibiy. Murattabnoma. Nashrga tayyorlovchi T.Norov. – T.: 1983, 8-9-b.

nasriy “Debocha” yozganlar. She’riy “Debocha”li devonlar esa Nodir-Uzlat, Muhammad Sharif Kattaqo’rg’oniy singari ijodkorlar adabiy tajribasida kuzatiladi. Shoir “Murattabnoma”ni tartib berishda “Alif” (ا) dan “Yo” (ي) harfigacha, arabcha 28 harfning hammasiga g’azallar bitadi, misrani qaysi harf bilan boshlasa, qofiya so’ngini ham shu harf bilan tugatishga alohida e’tibor qaratadi:

Azbaroyi yaxshilar mandin nishon,
Bir “MURATTABNOMA” qildim durfishon.
Barchasi bahri alifdin bo’ldi hal,
Bir alif harfiga besh xat bir g’azal.
Bir kam o’ttiz band muxammas, ba’d az on,
Ikki fasl har bahriga, ey nuktadon.
Bir kam oltmish fasl erur bahr ul-hayot,
Ul sababdin bu “MURATTABNOMA” ot.
Jumla oltmish besh marotib bob-u bob,
Turk-u tojik barchasin qilsang hisob.
Oxiri bahri tavil fasl ila gul,
Xatm bo’ldi bul murattab, ey o’g’ul.
To qiyomat xalq aro, ey nomdor,
Qolgusi mandin bu so’zlar yodgor.
Ming ikki yuz to’qson oltida sana,
Ibn mullo Boymuhammad birgina,
Bul “MURATTABNOMA”ni qildim tamom,
Gulshani jon dilraboni xosi om.
Barcha bul so’zdin topar zavq-u surur,
Jo’sh urib joni dili aylar huzur.
O’qigan, yod aylagay xurd-u kalon,
Ham eshitganlar topar nuri iymon...
Ham amal qilgan bo’lur g’arqobi nur,
Rahmat etgay necha yorabi g’afur.
Bul murattab turfa fayz osordur,
Har kishiga saqlamoq darkordur⁸.

⁸ Toib Tolibiy. Murattabnoma. Nashrga tayyorlovchi T.Norov. – T.: 1983. 32-6.

“Murattabnoma”da masnaviy, gʻazal, mustazod, muxammas, musamman, bahri tavil, ruboiy kabi mumtoz lirik janrlar oʻz aksini topgan boʻlib, devon Mirzo Amin ibni Mullo Nurmuhammad degan xattot tomonidan koʻchirilgan boʻlib, yili koʻrsatilmagan.

“Murattabnoma” tarkibida kelgan sheʼrlarning mavzulari juda keng qamrovli boʻlib, unda ota-ona, adolat-u insof, xokisorlig-u halollik, Vatanga, oilaga muhabbat kabi mavzular markaziy oʻrinda turadi.

“Murattabnoma” devonida kelgan gʻazallar kichik hajmli boʻlib, u asosan toʻrt va besh baytli gʻazallardan tarkib topgan.

Shoir lirikasining aksariyatini pand-nasihat ruhida yozilgan gʻazallar tashkil etadi. Ayrim gʻazallarida esa hayot zarbalari unga ozor berayotganligi, unga faqat oh-u figʻon, gʻam hamdam boʻlayotganligi, charxi falakdan faqat zulm-u sitam koʻrayotganligini nadomat bilan taʼkidlaydi. Har kim qoʻlidan kelguncha boshqalarga vafo qilishi, saxovatli boʻlishi, bu dunyoning zeb-u ziynatlariga havas qilmaslik zarurligini uqtiradi. Shu bilan birga, inson qismatida nima yozilgan boʻlsa, boshiga qanday tashvish kelsa ham bu zarbalarga bardosh berishi, sabr qilishi lozimligi taʼkidlanadi. Tolib Tolibiy jondan kechib, muhabbat mayidan ichib, jonon uchun jonini ham fiqo qilishga tayyor ekanligini yozadi:

Kelsa qoʻldin har kimi ahdin vafo qilmoq kerak,
Sidq ila oinayi dilni safo qilmoq kerak.

Bandalik til birla boʻlmas, sidqidil darkor emish,
Toat-u xayr-u saxovat beriyo qilmoq kerak.
Zeb-u ziynat xoʻb emas-behudadur bodi havas,
Azmi roh-u toʻshayi dorulbaqo qilmoq kerak.

Har na roʻ bersa qazodin qismatingga rozi boʻl,
Fikri fosidni qoʻyib, shukri xudo qilmoq kerak.

Tolibo, jondin kechib, jomi muhabbat noʻsh etib,
Jon uzib, jonon uchun ming jon fido qilmoq kerak.

G'azal 5 baytdan iborat bo'lib, "vafo", "safo", "beriy", "dorulbaqo", "xudo", "fido" so'zlari qofiyadosh so'zlardir. Radif sifatida esa "qilmoq kerak" jumlasini tanlangan. Pand-nasihat usulida yozilgan ushbu g'azalda tanosib, nido san'atlaridan mohirona foydalanilgan.

Tolib Tolibiyning "Murattabnoma" devoni tarkibidagi muxammaslarni esa mundarijasiga ko'ra hamd, na't, vasf ruhida, musalsal-voqeali, hadis va oyatlarni tafsirlovchi-arba'in mazmunida, sayohatnoma shaklida, hasb-u hol yo'nalishida, munojotnoma tipida, pand-u nasihat usulida turlarga ajratib o'rganish mumkin. Ayniqsa, shoir ijodidagi musajja' muxammaslarning o'rni beqiyos. Ma'lumki, musajja' XVII asrning oxiri, ayniqsa XIX asrda taraqqiy topgan. Chunki bu davrga kelib she'riyatda yangi usullar, yangi badiiy tasvir vositalaridan foydalanishga ahamiyat berildi. Tolib Tolibiy ijodida ham bu an'anani kuzatish mumkin.

Xaridori jamolingman, talabgori visolingman,
Giriftori xayolingman, hamisha dilkasholingman.
Asiri qil-u qolingman, xumori la'li bolingman,
Adoyi xat-u xolingman, o'shal singan safolingman,
Xuruj aylab xumoringdan dil-u jonim fido bo'ldi.

Musajja' usulida yozilgan ushbu muxammas o'zining musiqiylik, ravonlik, o'ynoqilik bilan kitobxon e'tiborini tortadi. Shu bilan birga, shoirning badiiy mahorati yuksakligidan ham darak beradi.

Devon tarkibidagi muxammaslar bir-biri bilan mazmunan uzviy bog'liq bo'lib, bir mazmundagi muxammas boshqa mazmundagi muxammaslar bilan navbat almashadi yoki bir muxammasning o'zida bir necha mavzu uyg'unlashib ketadi:

Sarvi niholi umrim qayrildi bori g'amdin,
Urdu xazon shamoli, to'ldim base alamdin,
Ming pora bo'ldi ko'nglim ko'p xanjari sitamdin,
Doim navo qilurman, darmon tilab egamdin.
Bori garoni g'amdin qaddim mani dutodur.

Sabr-u qanoat etmay, qoldim yomon baloga,
Dunyo sari yugurdim, bormay rahi rizoga,
Hirs-u havoni xushlab, osiy bo'lib xudoga,
Taqdiri Haqqa ko'ndum rozi bo'lib qazoga,
Bori garoni g'amdin qaddim mani dutodur.

Zohir bo'libdi aknun eldin necha alomat,
Xalq ichra kam qolibdur dil sofii salomat,
Insof-u adl-u tavfiq, ixlos-u xayr-u toat,
Yo'q sidq-u sharm-u parhez, vohasrato nadomat,
Bori garoni g'amdin qaddim mani dutodur.

Fasli bahorim o'tdi, yetdi yaqin xazonim,
Vahmi o'limdin har dam titraydir jism-u jonim,
Ko'p tangu tiyra bo'ldi dunyoda zindagonim,
Yetti falakdin o'tdi, faryod ila fig'onim,
Bori garoni g'amdin qaddim mani dutodur.⁹

Tolib Tolibiyning “Murattabnoma” devonidan o'rin olgan asarlarni nazardan o'tkazar ekanmiz, ularning aksariyatida ilohiy-irfoniy g'oyalarning yetakchilik qilishiga guvoh bo'lamiz. Dunyoviy amallar, hayotga bo'lgan yuksak zavq va ishtiyoq, noyob insoniy fazilatlarga da'vat, hayotni nursiz qiluvchi illatlarga shafqatsizlik ana o'sha ilohiy-irfoniy pardalarga o'ralgan holda o'quvchilarga taqdim etiladi.

Shoir adabiy merosining hali o'rganilmagan jihatlarini tadqiq etish, uning asarlariga milliy mafkura va milliy g'oya tamoyillari asosida munosib hamda yaxlit baho berish tadqiqotchilarning galdagi vazifasi sanaladi.

LUG'AT

bahri tavil – uzun bahr ma'nosini anglatadigan saj'li nasrda qo'llanadigan o'lchov tizimi

⁹ Toib Tolibiy. Murattabnoma. Nashrga tayyorlovchi T.Norov. – T.: 1983. 41-6.

dahr – dunyo, olam, zamon

dorulbaqo – boqiylik, abadiylik uyi

duto – egilgan, bukuk, bukilgan

fano – yo'q bo'lish, baqosizlik, o'zlikni yo'qotib, butun borliqdan

kechib, ilohiyotga singish (tasavvufda)

fosid – buzug'

jo'yon – istovchi, qidiruvchi

jo'shon – qaynab turgan

oinayi dil – ko'ngil oynasi

murattab – tartib berilgan, tartiblangan tizilgan

roh – yo'l

sidq – chin, rost, to'g'rilik, haqiqat

tavfiq – muvofiqlanish, uyg'unlik

tiyra – qorong'u, qora

zog'-u zag'an – qarg'a-quzg'un

zindagoniy – tiriklik, hayot, hayotiy

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Tolibiy taxallusi bilan ijod etgan yana qaysi shoirlarni bilasiz?
2. Tolib Tolibiy qayerda tug'ilgan?
3. Shoirning otasi qaysi kasb bilan shug'ullangan?
4. Tolib Tolibiy qayerlarda tahsil olgan?
5. Tolib Tolibiy asarini sanang.
6. "Murattabnoma" devoni tarkibiga qanday janrlar kiritilgan?
7. Shoir g'azallarining yetakchi mavzusi nima?
8. Tolib Tolibiy muxammaslarini mavzusiga ko'ra qanday tavsiflash mumkin?
9. Shoir nega umrining asosiy qismini qalandarlikda o'tkazgan?
10. "Muratabnoma" necha asrda tartib berilgan?

Mavzuga oid testlar:

1. Tolib Tolibiy qayerda tug'ilgan?
A. Samarqandning Minglar qishlog'ida

- B. Toshkentning Iskandar qishlog'ida
 - C. Buxoroning Qo'ldosh qishlog'ida
 - D. Buxoroning Varaxsha qishlog'ida
2. Tolib Tolibiy ijodi haqida qaysi olim ilk marotaba ma'lumot bergan?
- A. T.Norov
 - B. V.Abdullayev
 - C. N.Mallayev
 - D. R.Vohidov
3. Tolib Tolibiy devoni qanday nomlanadi?
- A. "Muhabbatnoma"
 - B. "Murattabnoma"
 - C. "Pandnoma"
 - D. "Tuhfayi do'ston"
4. Tolib Tolibiy mumtoz adabiyotimizning qaysi vakillari ijodidan ta'sirlanib, devon tartib bergan?
- A. Fuzuliy, Jomiy, Navoiy, Bedil, Mashrab
 - B. Jomiy, Navoiy, Munis, Mashrab
 - C. Navoiy, Bobir, Ogahiy, Amiriy
 - D. Bedil, Jomiy, Atoyi, Litfiy
5. Tolib Tolibiy Buxorodagi qaysi hukmdorlar davrida faoliyat yuritgan?
- A. Amir Nasrullo, amir Muzaffar, amir Haydar
 - B. Amir Haydar, amir Nasrullo, amir Abulfayzxon
 - C. Amir Shohmurod, amir Haydar, amir Muzaffar
 - D. Amir Abdulahad, amir Muzaffar, amir Haydar
6. "Murattabnoma"da qaysi mumtoz lirik janrlar o'z aksini topgan?
- A. Masnaviy, g'azal, mustazod, muxammas, musamman, bahri tavil
 - B. G'azal, mustazod, qit'a, tuyuq, soqiynoma, ruboiy
 - C. Ruboiy, qit'a, tuyuq, soqiynoma, musaddas, musamman
 - D. Tarkibband, g'azal, mustazod, masnaviy, ruboiy, qit'a
7. Shoirning devoni qaysi xattot tomonidan ko'chirilgan?
- A. Mir Ali Hiraviy


- B. Mir Ubayd Buxoriy
- C. Mirzo Amin ibni Mullo Nurmuhammad
- D. Xattot nomi noma'lum
- 8. Tolib Tolibiy g'azallari asosan necha baytli?
 - A. 6- 7 baytli
 - B. 5-6 baytli
 - C. 4-5 baytli
 - D. 7-9 baytli
- 9. "Murattabnoma" devoni tarkibidagi muxammaslarni mundarijasiga ko'ra qanday turlarga ajratish mumkin?
 - A. Hamd, na't, vasf shaklida
 - B. Musalsal-voqeali, hadis va oyatlarni tafsirlovchi-arba'in shaklida
 - C. Hasb-u hol, munojotnoma, pand-u nasihat yo'nalishida
 - D. Barcha javoblar to'g'ri
- 10. "Murattabnoma" tarkibida kelgan nazm namunalarini mavzusiga ko'ra qanday tasniflash mumkin?
 - A. Adolat, halollik, Vatanga muhabbat
 - B. Vatanga muhabbat, ilohiy ishq, kamtarinlik
 - C. Ilohiy ishq, saxiylik, do'stlik
 - D. Javonmardlik, to'g'riso'zlik

Adabiyotlar:


1. Abdullaev V. A. O'zbek adabiyoti tarixi. II kitob. – Toshkent. O'qituvchi, 1980. – B.142-143.
2. Abdullaev V.A. Tolib Tolibiy. "Buxoro haqiqati" gazetasi. – Buxoro.1960, 18-dekabr.
3. Abdullaev V. A. Tolib Tolibiy. –Toshkent. Fan va turmush. 1961. № 4.– B.22-24.
4. Adizova I. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. XVI-XIX asr I yarmi. – Toshkent. Fan. 2009. – 248 b.
5. Ayny S. Tarchimai holi xudam. – Dushanbe. Donish. 1978. – 128 s.

6. Ayniy S. Qisqacha tarjimayi holim. – Toshkent. O‘zadabiynashr. 1960. – 136 b.
7. Ayniy S. Tanlangan ilmiy asarlar. Nashrga tayyorlovchi Yo.Is’hoqov. – Toshkent. Fan.1978. – 336 b.
8. Vohidov R.J., Eshonqulov H.P. Mumtoz adabiyot tarixi. – Toshkent. O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi.2006, B. 528.
9. Jo‘raboyev O. Qo‘qon adabiy muhitida devonchilik an‘anasi va devonlar tasnifiga doir // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent.2008.– № 4. – B. 8-1
10. Zehny T. San‘ati suxan. – Dushanbe. Irfon, 1979. – 463 b.
11. Tolib Tolibiy. Murattabnoma. Nashrga tayyorlovchi T.Norov. – Toshkent.1983. – 88 b.
12. Hojiahmedov A. Maktabda aruz vaznini o‘rganish. – Toshkent. O‘qituvchi. 1995. – B.192.
13. Hojiahmedov A. O‘zbek aruzi lug‘ati. – Toshkent.Sharq. NMK. 1996. – 224 b.
14. Süleyman Uludağ. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – İstanbul: Marifet yayinlari, 1995.– S. 509.
15. Qori Rahmatulloh Vozeh. Tuhfat ul-ahbob fi tazkirat il-as'hob. – Buxoro. 2011. – 58-b.

2-ilova



3-ilova



Muxammas



“Ikki qismli
kundalik”
usuli

Musamman

Ruboiy



MUSLIHABEGIM MISKIN ADABIY MEROSI VA SHE'RIYATINING JANRIY XUSUSIYATLARI

Reja:

1. Muslihabegim Miskinning hayot yo'li.
2. Miskin devonlarining tarkibi va janriy xususiyatlari.
3. Soira she'riy hikoyatlarining muhim poetik xususiyatlari

Tayanch tushunchalar: Muhammad (s.a.v.), Xoja Ahmad Yassaviy, mullo Nurillo, Xiyobon, Eshoni Imlo, Mir Sayyid Muzaffar Bahodir Sulton, Og'oyi Buzurg, Abdulvohid, shayx, avliyo, izom, eshon, toat-ibodat, devon, kotib, kalofon, janr, badiiy mahorat, g'azal, mustazod, ruboiy, soqiynoma, fard, masnaviy, muxammas, musaddas, mustasne', muashshar, tarje'band, she'riy hikoyat.

Muslihabegim Miskinning hayot yo'li

XIX asr Buxoro adabiy muhitida shakllanib, o'zidan salmoqli ijodiy meros qoldirgan iste'dodli zullisonayn shoiralardan biri Muslihabegim Miskindir. Shoiraning bir-biridan keskin farqlanmaydigan 3 devoni bizgacha yetib kelgan bo'lib, qiyosiy o'rganilganda, ushbu devonlarda uning o'n ming misradan ortiq she'riy merosi mavjudligi kuzatiladi. Ularning biridagi devon sarlavhasi ostida keltirilgan quyidagi fardda shoira o'zini tanishtirib, nomining oshkor bo'lmasligi tarafdori ekanligini ta'kidlaydi:

Nomi man Muslihabegim buvad guftam: "Yod dor",
Guft Miskin: "Nomi xudro to nagardad oshkor"¹⁰.

Mazmuni: *Mening nomim Muslihabegimdir, buni mudom yodingizda saqlang, deb aytaman. Miskin aytadi: Bu ismni aslo oshkor etma.*¹¹

¹⁰ O'zRFASHI qo'lyozmalar fondi. Inv.972/1, 1-a varaq. (Bundan keyin shoira devonlariga murojaat etilganda qavs ichida inventar raqami hamda varag'ini ko'rsatish bilan kifoyalanamiz – D.S.)

¹¹ Muslihabegim Miskin she'riyati tarjimalari o'zimiz tomondan amalga oshirilgan.

Taxallusini “Miskin” deya tanitgan Muslihabegim nomini oshkor bo‘lishini u qadar istamaydi. Ayni choqda bu uning she’riyati bilan xalq orasida tanilishi ma’nosini ham anglatadi. Biroq Buxoro xalqi orasida hanuzgacha to’y va bazmlarda an’anaga aylangan muxammasxonliklarda shoira ijodidan namunalar aytilishi uning taniqli shoira ekanligidan dalolat beradi¹². Shunday bo‘lsa-da, shoiraning o‘zi yashagan davrda yaratilgan manbalarda u haqda ma’lumot berilgani kuzatilmaydi. E’tirof etish joizki, Miskinning hayoti va ijodi haqida undan bizgacha yetib kelgan uchta devondagi ikki she’riy hikoyat va qator baytlar misolida muayyan taassurot hosil qilish mumkin. “*Man na shayxam, na avliyo, na izom*” (“*Men na shayxman, na avliyo, na ulug‘lardan*”) satri bilan boshlanuvchi masnaviyda bitilgan she’riy hikoyat aytilganlar nuqtayi nazaridan ahamiyatlidir. Unda shoira o‘zini quyidagicha tanishtiradi:

Kaminayi nom shud Muslihabegim,
Ba Miskin nomi xudro guft tayin.
Ki mavludi zi farzandi Buxoro,
Padarro nom shud mullo Nurillo.
Ki jaddam nomi Abdulloh xoja eshon,
Zi farzandi Buxoro buvad, ey jon
Ki, budand doimo jo‘yoni Alloh,
Ki holo raftaand Ka’batulloh¹³ [972/1, 121^b varaq].

Mazmuni: *Kaminaning ismi Muslihabegimdir. O‘zimni Miskin deb atadim, ya’ni taxallusimni Miskin deb tanitdim. Buxoro farzandiman, shu yerda tug‘ildim. Otamning nomi Mullo Nurillo bo‘ldi. Bobomning nomi esa Abdulloh xoja eshondir. U ham Buxoroning farzandi bo‘lgan. Doimo Allohning xayoli bilan band bo‘lgan, Ka’batullohga ketgan, hanuz qaytmagan.*

Mazkur masnaviydan anglashiladiki, shoiraning asli nomi Muslihabegimdir, u devonlarini Miskin taxallusi bilan tartib bergan.

¹² Safarov O., Safarova H. Muslihabegim Miskin hayoti va ijodi haqida. O‘zbek tili va adabiyoti, 2012, 3-son, –B 43-46. Safarov O. Buxoro adabiy harakatchiligi tarixidan lavhalar. –Buxoro. Durdona, 2015. –B.73.

¹³ O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi qo‘lyozmalar fondi. Inv.1972.

Shoiraning ota-bobolari buxorolik bo'lib, taqvodorlar bo'lishgan. Xususan, otasining ismi Nurullo mulla sifatida e'tirof etilganligiga e'tibor qaratilsa, uning dindor kishi bo'lganligiga ishonch hosil qilish mumkin. Abdulloh xoja eshon shoiraning bobosi bo'lib, uning nomiga «xoja», «eshon» singari nasab va nufuzni ifodalovchi so'zlarning qo'shib aytilishi ham shunday xulosaga kelishga asos bo'ladi. Ka'ba sari otlanganligidan anglash mumkinki, u ham Alloh yo'liga ixlos qilganlardan bo'lgan. Ayniqsa, masnaviydagi “*Ki, budand doimo jo'yon Alloh*” misrasi Abdulloh xoja eshonning Alloh ishqi bilan yonib yashaganligidan dalolat beradi.

Muslihabegim Miskin «Agar go'yand: “In shaxs az kujost?” (“Bu shaxs qayerdanligini aytsam”) satri bilan boshlanuvchi 12 baytli masnaviysida o'zining nasl-nasabi xususida fikr yuritadi. Masnaviyning ikkinchi satri “Base dar Xiyobon ham du bobost” [1962, 25a varaq] tarzida ifodalangan bo'lib, unda “Ikkala bobo ham Xiyobondandir” mazmuni o'z ifodasini topgan. Xiyobon qadimgi Buxoro shahrining 16 dahasidan biri bo'lib, u eski shahar hududida, Buxoro qal'asining “Qorako'l darvozasi” tarafida joylashgan. Ushbu ifoda shoiraning ona tarafdan ham, ota tarafdan ham buxorolik bo'lganini anglatadi. Masnaviydagi hasbi hol talqinlariga ko'ra, shoiraning katta bobosi hoji Habib nomi bilan atalgan. Uning “*Jarohathoyi dilhoro tabiband*” [1962, 25a varaq], ya'ni “*Jarohatli ko'ngillarning tabibi*” tarzida tavsiflanishi ham diniy ilmlarning bilimdoni bo'lganiga ishora qiladi. Masnaviy davomida badiiy talqinga ko'ra, hoji Habibning pok xokini kishilar ko'zga surma qilishi, qabrini ziyorat qilib turishlari ham shunday xulosaga kelishga asos bo'ladi. Muslihabegim Miskin ikkinchi bobosini Imlo eshon deya tanishtiradi. Odamlar bu kishining ham qabrlarini ziyorat qilib turishgan. Shoira ikkinchi bobom deganda, ona tarafidagi bobosini nazarda tutgan ko'rinadi. Buxoroda Xiyobon mavzesida Eshoni Imlo (1686-1748/1749) va Xoja Habibullo yoki Eshon xoja (vafoti 1699/1700) nomlari bilan atalgan kishilar yashagani haqida ma'lumotlar keltiriladi. Ushbu ishoralar shoiraning nasl-nasabi ham e'tiqodli eshonlarga borib taqalishidan dalolat beradi. Afsuski shoiraning tug'ilib, vafot etgan sanalariga oid

aniq ma'lumotlar uning devonlari tarkibida uchramaydi. Birgina Miskinning 972/1 raqamli devonining 143a varag'ida bitilgan "Tamom shud in noma 1295" (ya'ni ushbu noma 1295-yilda tugadi) qaydi o'ziga xos tarixiy fakt sifatida qimmatlidir. Mazkur hijriy sana milodiyga aylantirilganda devonning 1878-yilda tartib berilganligi ma'lum bo'ladi. Shuningdek, yuqoridagi masnaviydan so'ng devondan o'rin olgan quyidagi fard esa shoironing qaysi zamonda yashaganligini anglab olishga yordam beradi. Unda Buxoro amirlaridan birining nomi keltiradi:

Dar zamoni Mir Sayyid Muzaffar Bahodir Sulton,

In g'azalhora bexono ba jigar kardam bayon [972/1, 121^b varaq].

Mazmuni: *Mir Sayyid Muzaffar Bahodir zamonida bu g'azallarni o'qib, jigar (yaqin kishim)ga bayon qildim.*

Shu o'rinda shoironing yashagan yillarini taxmin qilishga ishora paydo bo'ladi. Tarixiy faktlarga ko'ra, Buxoro hukmdori Mir Sayyid Muzaffar Bahodir (1859-1885) chorak asr davomida hukmdorlik qilgan.

Buxoro amiri Nasrulloxon vafotidan so'ng, uning o'g'li Sayyid Muzaffariddin Karmanadan kelib, 1859-yil Buxoro taxtiga o'tiradi. U 25 yildan ortiqroq davr mobaynida 1885-yilga qadar turli viloyatlarda hukmdorning farmonlariga bo'ysunmay isyonlar sodir etilayotgan, ayni choqda ruslarning Turkiston tuprog'iga yurishlari boshlangan g'oyatda tahlikali zamonda Buxoro amirligini idora qildi.¹⁴ Shoira bu davrda Turkistonda sodir bo'layotgan voqealardan yaxshi xabardor, qator nazmiy asarlar muallifi va sohibdevon ijodkor sifatida kamolot yoshida bo'lgan, deyish mumkin.c

Shoironing 972/1-raqamli devonida "*Bismillohir rahmonir rahim*" ilohiy kalimasidan so'ng shayx Abdulvohid haqida masnaviyda bitilgan 42 baytli hikoyat keltirilgan bo'lib, ushbu hikoyat ham Muslihabegim Miskinni tanishtirish nuqtai nazaridan

¹⁴ Саййид Мансур Олимий. Бухоро – Туркистон бешиги. Форс тилидан таржима, таржимон номидан сўз боши ва айрим изоҳлар муаллифи Ҳ.Тўраев. –Бухоро, 2004. – Б. 50-63.

muhim ahamiyat kasb etadi. Shoira asar qahramonini quyidagicha tavsiflaydi:

Ki dar shahri Buxoro buvad yak darveshi donoye
Ki, shayxi nomdor buvad on mahbubi donoye.
Davomat dar payi jud-u saxo-yu adl ko'shida,
Libosi ashxiyoro dar badani on shayx po'shida.
Tamomi muflis-u miskin zi xonash bahravar budand,
Mudom on shayx az tarsi xudo bo chashmi tar budand.
Ki sultoni Buxoro doimo mekard in'ome,
Ki budand mardumi shahri Buxoro muxlisi joni [1962, 2^a

varaq].

Mazmuni: *Buxoro shahrida bir dono darvesh bo'lgandi. U dono mahbub nomdor shayx edi. Saxovat-u adolat, in'om-ehson yo'lida doimo harakat qilib, jismida ashxiyorlar libosini kiygandi. Barcha kambag'al bechoralar uning xonadonidan bahramand bo'lar, u shayx xudodan qo'rqqani bois doim ko'zi nam bo'lardi. Buxoro sultoni doimo unga in'om qilib turar, shahar aholisi jonining muxlisi edi.*

Masnaviyning keyingi baytlarida hikoyat qahramonining tavsiflari tadrijiy rivojlantirilgan bo'lib, u o'z davridagi nomdor shayxlardan biri ekanligiga e'tibor qaratiladi va nomi Abdulvohid ekanligi ta'kidlanadi:

Har on kasro ki pesh oyad agar yak qissai mushkil,
Ravad dar nazdi o'ro on zamon on muddao hosil.
Jahon fayzi futuhi u ki mashhuri Buxoro shud,
Banazdi podshoh on shayxro martabai a'lo shud.

Shuda nomi sharifi o' ba Abdulvohid mashhur,

Ki buvad doim ba zikri on xudovandi jahon mag'rur [1962, 2^a varaq].

Mazmuni: *Har qanday kishining taqdirida biror mushkul qissa bo'lsa, uning nazdidan qiyinchilik o'sha zamon barham topib, muddao hosil bo'lar edi. U jahonning fayz-u futuhi, Buxoroning mashhur kishilaridan biriga aylandi. Podshoh nazdida u yuksak martabali shayxlardan biri edi. Abdulvohid nomi bilan mashhur bo'lgan bu kishi doimo Xudoni zikr etish bilan mag'rur edi.*

Masnaviydagi ta'rif-u tavsiflardan ayonlashadiki, Abdulvohid nomi bilan tanilgan bu shayx taqvodor, in'om-u ehson, saxovat-u adolati bilan nom qozongan. Faqir-u bechoralarga uning xonadoni ochiq bo'lgan. Xudodan qo'rqish tuyg'usi uning namli ko'zlarida doimo o'z ifodasini ko'rsatib turgan. Bu fazilatlari uning Buxoro hukmdori nazariga tushishiga bois bo'lgan. Hukmdorning unga in'omlar berib turishi, shahar aholisining unga bo'lgan yuksak ehtiromi shayxning chinakamiga maqomi yuksakligidan dalolat beradi. Ayniqsa, undagi har qanday kishilarning mushkulini oson qilish fazilati martabasini yanada yuksalishiga sabab bo'lgan. Bu hol hukmdor nazdida uning martabasi a'lo bo'lganida yaqqol namoyon bo'ladi. Manbalarning ma'lumotiga ko'ra, XIX asr Buxoro amirligida amaldorlardan tashqari diniy ulamolar ham hukmron mavqega ega edi. Ular orasida Muhammad (s.a.v.)ning avlodlariga mansub bo'lgan sayyidlar hamda Choriyor xalifalar: Abu Bakr, Umar, Usmon va Ali avlodlaridan sanalgan xo'jalar (Jo'ybor shayxlari)ning ham nufuzi nihoyatda baland edi. Ular katta yer-suvga, savdo do'konlariga, hunarmandchilik ustaxonalariga ega edilar. Amirlikda Jo'ybor shayxlari alohida mavqega ega bo'lib, XIX asrda ular Buxoroda 16 mahalla bo'lib yashardi. Abdulvohid haqidagi she'riy hikoyatning dastlabki baytlaridanoq uning ana shunday maqomga munosib ko'rilganini taxmin qilish mumkin. Hikoyatdagi talqinlar Muslihabegim Miskinning Avdulvohiddek katta mavqega ega bo'lgan shayx bilan taqdirdosh bo'lganidan darak beradi. Biroq bu shayxning ko'ngliga doimo Ka'batullohni ziyorat qilish istagining mavjudligi va uning voqelanishiga qaror qilgani so'ng Muslihabegim Miskinning musibatli kunlari boshlanadi:

Bigufto: "Meravam dar in zamon dar Ka'batulloh man,
Ki joni xud fido sozam bar poyi anbiyoulloh man" . [1962, 2^a varaq]

Zan-u farzandi har chand bo o' iltijo ovard,
Nayomad korgar ro'y so'yi Ka'batulloh kard. [1962, 2^a varaq]
Mazmuni: *Shayx: "Men endi Ka'batullohga borib, anbiyoullohning poyiga jonimni fido qilaman" , -dedi. Xotini va*

farzandi har qancha iltijo qilishmasin, uning xohishiga mone'lik qilolmaydi, u baribir Ka'batulloh sari yo'l oladi.

Shayx olti yoshli qalbi qaynoq farzandini hech qachon o'zidan yiroqlashishini istamasdi. Shu bois uni ham o'ziga hamroh qiladi. Shunday qilib, ota-bola besh yil davomida dom-daraksiz ketishadi:

Ki raftand panj sol inho shudand dur ham g'oyib,

Mudom az intizorii modari bechora menolid [1962, 2^a varaq].

Mazmuni: *Ular besh yil g'oyib bo'lib uzoqlarga ketdilar. Bechora ona ularning yo'lida intizor bo'lib, shikoyat qilar edi.*

Onayizor to'qqiz yoshli qizi bilan qoladi. Shayx Abdulvohidning qizi juda ham aqlli, dono "xush xulq-u, shirin suxan-u, zebo-yu porso" bo'lib ulg'ayadi. Biroq uning kamolidan bahramand bo'lib yashash bechora onaga nasib etmaydi. Masnaviydagi quyidagi bayt bu mudhish voqeaning obrazli ifodasidir:

Banogah dar kamoli o' zavoli bemahal omad,

Xazon shud navbahori o' chunon bodi ajal omad [972/1, 2^b varaq].

Mazmuni: *Uning kamoliga to'satdan bemahal zavol keldi, ajal shamoli esib, uning navbahori xazon bo'ldi.*

Qiz bu foniyl dunyoni tark etgandan so'ng, g'oyibona pinhon kezib yuruvchilardan xabar keladi. Shayx va uning o'g'li sog'-salomat yurtiga qaytib, qarindoshlar bilan ko'rishishadi:

Salomat omad on darvesh bohamrohi farzand,

Bedidand jumlayi xesh-u tabori o' shudand xursand [972/1, 2^b varaq].

Ona nihoyatda kelishgan, oqil-u dono bo'lib voyaga yetgan o'n bir yoshli o'g'li bilan diydorlashishga muyassar bo'ladi. "Husni jamoli go'yo Yusufi soniy" bo'lgan o'g'il darvesh otasi pokdomon shayxga juda o'xshardi. Bu baxt voqe' bo'lganidan quvongan ona Parvardigorga shukronalar qiladi, o'g'lini bir lahza ham yonidan uzoqlashtirmaydi. Oradan bir yil o'tgach, "xazoni bemahal" bechora onaning qalbida so'nmas dog' qoldirib, bu farzandini ham navqiron

yoshida olib ketadi. Shayx Abdulvohid bu fojealarga ortiq toqat qilolmaydi:

Ki on shayxi jahon dar on zamon dar so'xti dunyo shud,
Nakarda istiqomat boz so'yi Ka'batulloh shud.

Biguft: "Bar man harom ast in Buxoro, nest joyi man,
Dar injo nest istodani digar sabr-u qarori man".

Ba xud hamrah burd o' yak-du sola farzandash,
Qazoro dar rasid tiri ajal bar on jigarbandash [972/1, 3^a
varaq].

Mazmuni: *Shayxi jahon o'sha onda yongan dunyoga aylandi. Bu yerda ortiq turolmay, yana Ka'batulloh sari yo'naldi. "Endi menga Buxoro haromdir, bu yer mening joyimmas. Bu yerda qolishga ortiq sabr-u qarorim qolmadi", - dedi. Ikki-uch yoshli farzandini o'ziga hamroh qilib olgan edi, taqdir taqozosi bilan ajal o'qi bu jigarbandiga ham yetib bordi.*

Shayx Abdulvohid Haqning amriga rozi bo'lib, farzandlarini tuproqqa topshirsa-da, ayriliq dog'iga chidolmay to'xtovsiz oh-u fig'on chekadi. Tasalli topish uchun yana bir ayolga uylanadi. Bir necha yil ko'zdan g'oyib bo'lsa, ba'zan Buxoroda ham ko'rinib qoladi. Bu hol takrorlanib turadi. Dilbandlarini yo'qotgan onayizor esa taqdir hukmiga sabr qilib, qolgan umrini toat-ibodatga bag'ishlaydi.

Mazkur she'riy hikoyat Muslihabegim Miskin hayoti bilan qiziqqan tadqiqotchilarning e'tiborini o'ziga jalb etgan. M.Qodirova ushbu manzumaning deyo deya baholab: "...shoiraning o'z hayotiga oid avtobiografik ma'lumotga ham o'xshab ketadi" ¹⁵, - deb yozadi. Professor O.Safarov va H.Safarovalar esa masnaviydagi "Ki shayxe nomdor bud on mahbubi donoye" satriga asoslanib: "Muslihabegim Miskin Buxoroda el orasida, hatto amirlik darborida ham e'tibor qozongan shayx Abdulvohidning zavjayi muhtaramasi bo'lgan" ¹⁶, - deya komil ishonch bilan qayd etadi. She'riy hikoyatda

¹⁵ Qodirova M. XIX asr o'zbek shoiralari ijodida inson va xalq taqdiri. - Toshkent: Fan, 1977. - B. 168.

¹⁶ Safarov O. Buxoro adabiy harakatchiligi tarixidan lavhalar. - Buxoro: Durdona, 2015. - B. 70.

tasvirlangan onayizorning ruhiy holati bilan devonlardagi shoiraning hasbi holi talqiniga bag'ishlangan nazm namunalaridagi o'zaro uyg'unlik ham ushbu masnaviyda ijodkorning achchiq qismati badiiy ifodasini topganligiga qanoat hosil qildiradi. Bunday o'xshashlik, avvalo, lirik qahramonning bekas-u g'aribligi badiiy talqiniga bag'ishlangan turli lirik janrlarda bitilgan she'rlarda namoyon bo'ladi. Sakkiz bandli "Tanho" radifli muxammasning yettinchi bandidagi quyidagi misralar aytilganlar nuqtayi nazaridan ahamiyatlidir:

Qani yak mehrubon-u hamdam yak dilraboyi man?!

Kujo shud hamnishinon ki shudand bovafoyi man?!

Qani xesh-u tabor-u yor-u do'st-u oshnoyi man?!

Na modar, na padar, na xesh mond aqraboyi man?!

Mabodo misli man hargiz ki hayron mondaam tanho?! [1962, 21^b varaq].

Mazmuni: *Bir mehribon-u hamdam, mening bir dilrabom qani? Menga vafoli, men bilan hamsuhbat bo'lganlar qayerga ketdi? Qarindosh-urug', yor-u do'sti, oshnolarim (tanishlarim) qani? Na ona, na ota, na yaqinlarim qoldi. Hayron bo'lib, tanho o'zim qoldim.*

Shoiraning farzandi dog'ida, ayriliq azobida o'rtanishi 9 baytli g'azallaridan birida o'z ifodasini topgan bo'lib, bu g'azal Husayn nomli o'g'lining firoqida yozilganligi undagi quyidagi baytlardan ayonlashadi:

Bigufto on Husayn nuri chashmi man gujo rafti,

Guli on ro'yi sho'ri maney boman bisyor purmonam.

Guli noshigufta az bog'i padar oxir xazon gashti,

Chunon monandayi bulbul tu rafti az gulistonam.

Turo domod mekardam bachandin orzuhoyi man,

Shudi bo xoki xun og'ushta ey barnoyi davronam [1277, 4^b varaq].

Mazmuni: *"U Husayn – ko'zimning nuri, qayon ketdi?" – deyman. Uning guli – peshonam sho'ridir, tag'in men (yig'idan) juda to'lib qoldim. Ochilmagan g'uncha ota bog'idan xazon sari ketdi. Go'yo bulbulga o'xshab gulistonimdan ketding. Seni kuyov qilish*

ko'pdan beri orzularim edi. Ey davrim barnosi, qonli tuproqqa giriftor bo'lib qolding.

Tahlil jarayoniga tortilgan ushbu baytlarni Shayx Abdulvohidga bag'ishlangan masnaviy bilan qiyoslaganda, "*Bigufto chashmi nargiz boz kun, ey nuri chashmonam*" ("*Ey ko'zlarim nuri, o'yinga tush, nargis ko'zli, , -deyman*") satri bilan boshlanuvchi ushbu g'azal Muslihabegim Miskinning to'ng'ich o'g'liga bag'ishlangani ayonlashadi. Husayn ismli bu o'g'lini otasi bilan 6 yoshida Ka'batulloh ziyoratiga yuborgan ona besh yildan so'ng u bilan diydor ko'rishadi. Tabiiyki, bo'yi ancha cho'zilib qolgan, shoira tomonidan "*Yusufi soniy*" deya e'zozlangan bu yigitni Muslihabegim uylantirish orzusi bilan yashagan. Biroq bevaqt kelgan o'lim uni onasidan ajratgan. Ushbu g'azalda ayni iztiroblar o'z ifodasini topgan. Shoiraning ikkinchi o'g'li 2-3 yasharligida otasi bilan Ka'batulloh ziyoratiga yo'l olgan bo'lib, masnaviyda hikoya qilinishicha, unga ham ajal tig'i yetgan. Garchi shoira bu o'g'lining qayerda vafot etganiga aniqlik kiritmagan bo'lsa-da, uning safardan qaytganiga ham ishora qilinmagan. Shu bois ikkinchi o'g'lining Husayn bo'lish ehtimoli haqiqatdan ancha yiroq ko'rinadi.

Muslihabegim Miskin she'riyatida Xojayi Ubon, Buxoroda "Piri dastgir" deya e'zozlangan G'avsul a'zam Abdulqodir Jiloniy, Hazrati Og'oyi Buzurg – Qizbibibi va naqshbandiy pirlaridan Boboyi Samosiy kabilarning ziyorati munosabati bilan yozilgan she'rlar uchraydi. Xojayi Ubon, Boboyi Samosiy ziyoratgohlari hozirgi Romitan, Hazrati Og'oyi Buzurg – Qizbibibi ziyoratgohi esa Jondor tumanida joylashgan bo'lib, ular bir-biridan u qadar olisda emas. Piridastgir ziyoratgohi esa Buxoro shahrida. Bundan anglashiladiki, Muslihabegim Miskin Xojayi Ubonni "Xudoning nuri", «"ustafo nuri", "Murtazo chirog'i, "Usmonning farzandi" [1962, 136a varaq] deya ulug'lab, Payg'ambar (s.a.v.)ga va uchinchi xalifa hazrati Usmon (r.a.)ga bog'laydi. Shoira Xojayi Ubon talqiniga bag'ishlangan bunday tushunchalari hozir ham xalq orasida mavjud.

Muslihabegim Miskin she'riyatida Hazrati Og'oyi Buzurg – Qizbibibiga ehtirom bilan qaralgani alohida ahamiyatga ega. Uning tez-tez bu ziyoratgohga bo'lgani, "Muxammasi shir-u shakar guftagi

Miskin” (“Miskinning shir-u shakar muxammas aytgani”) nomli o'zbek va tojik tillarida mulamma' muxammas hamda “Muxammasi Miskin” nomli o'zbek tilida muxammas bitgani fikrimizni dalillaydi. Toshpo'lat Rahmonovning “Qizbibi–Hazrati Og'oyi Buzurg” risolasi bizga tabarruk Buxoro ayol avliyolari tarixining noma'lum sahifalarini ma'lum qildi.

Qizbibi – Hazrati Og'oyi Buzurgning asl ismi Masturaxonim. Mir Arabning vaziri Sodiqxon uning sharafiga ajoyib majmua barpo etgan. Mahalliy aholi va ko'plab ziyoratchilar ushbu majmuaga oilaviy baxt topish, bepushtlikdan qutulish, ruhiy xastaliklardan xalos bo'lish maqsadida tashrif buyurganlar. E'tiborli tomoni shundaki, ziyoratchilar faqat ayollar bo'lib, erkaklar majmuaga kiritilmagan. Buxoro shahridan 30 km masofada joylashgan Qizbibibi me'moriy majmuasi Zarafshon daryosi etaklari bo'ylab joylashgan, XVI asrdan boshlab suv sathining doimiy ko'tarilishi va uning yetishmovchiligi natijasida ushbu hudud qumlar maydoniga aylangan.

Muhiba Said Hasan qizining “Valiy volidalar” kitobida yozilishicha, Nasriddin To'ra ibn Muzaffar al-Hanafiy al-Buxoriyning “Tuhfat az-zoirin” asarida “Og'oyi Buzurg zikrlari bobi” bor. Mana shu bobda Jondor tumanidagi tabarruk zot, ya'ni Qizbibi nomi bilan mashhur bo'lgan avliyo haqida, ushbu ziyoratgohda kimlar qachon dafn qilingani, ularning ismlari yozilgan. Og'oyi Buzurg qizlarga saboq bergani bois qizlarning bibisi laqabini olib, tarixda Qizbibi nomi bilan el og'zida mashhur bo'lgan. Og'oyi Buzurg va u kishining atrofida gilari pokiza yashab, halol mehnat qilib, o'z xulq-atvori, karomatlari bilan namuna bo'lgan, xalqni Haqqa da'vat etgan olimi bo'amal bo'lgan.

Ushbu tarixiy iqtiboslar va ma'lumotlardan ayonlashadiki, Hazrat Og'oyi Buzurg Markaziy Osiyoda tasavvuf ilmining rivojiga katta hissa qo'shgan olimalardan biri. So'fi ayollarning yirik vakili, buxorolik Hazrat Og'oyi Buzurg timsolida ayollarning jamiyatdagi o'rni va ularning salohiyatini namoyon etuvchi olimalarni ko'rishimiz mumkin.

Shoiraning aksariyat masnaviylarida aynan Hazrat Og'oyi Buzurg tarixiy obraziga murojaatlar oshiqona tavsiflar, iltimoslar, umidvorlik, mushkulotini osonlashtirish, ushbu tarixiy-afsonaviy shaxs bilan diydorlashish shaklida bitilgan bo'lib, Hazrat Og'oyi Buzurgga «Og'o», «Ag'o», «Og'oyi Buzurg», «Hazrat Og'oyi Buzurg», «Shoh», «Pir» kabi sharaflı nomlar bilan murojaat qilingan.

Muslihabegim Miskinning «Miskin dar martabayi Barxurd Hazrat Og'oyi Buzurg gufta...» sarlavhasi bilan boshlanuvchi yigirma olti baytdan iborat fors-tojikcha masnaviysida Hazrat Og'oyi Buzurg ziyoratgohiga qilgan safarini bayon etadi¹⁷. Masnaviyda Muslihabegim Miskin Hazrat Og'oyi Buzurg – pir nazariga tushmoq uchun uning xizmatiga tayyorligini ma'lum qiladi. Shu o'rinda, shoira pirning ixtiyorida bo'lmoqlik uchun o'zi va mol-dunyosini fido etishga ham shay ekanligini e'tirof etadi:

Fido sozam banomash jon-u xudro,
Vahm burd mol-u mulki dunyo.
Ki aknun omdam dar xizmati ,
Xudo loyiq kunad dar xizmati o' [1962, 128^a varaq].

Miskinning «Chiguna shahri mushtoqi jamolashro bayon sozam...» misralari bilan boshlanuvchi yana bir masnaviysida shoira o'zining hayron-u sargardonlikda Og'oyi Buzurgning jamoliga mushtoqligini, og'ir ahvolda qolganligini bildirib, uning mazkur holiga nazar tashlashiga umid bildiradi:

Chiguna sharhi muhtoqi jamolashro bayon sozam,
Ajab hayron-u sargardon muztar holam [1962, 132^b varaq].

Shoira Hazrat Og'oyi Buzurg vasfining ta'rifiga ojizligini, hatto bu borada uning ta'rifini daftarga bitsa-da, u daftarga sig'masligini e'tirof etadi:

Ba yak daftar namekunjad navisam vasfi ro'yashro,
Og'oyi Buzurgi olam nazar bekun bar holi mo [1962, 132^b varaq].

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi qo'lyozmalar fondi. Inv.1962. 127b varaq.

Masnaviyning keyingi misralarida keltirilgan ramzlar esa Miskinning aynan Qizbibi qadamjosi haqida, xususan, Hazrat Og'oyi Buzurgning Qizbibi ekanligiga yuksak ishonchni uyg'otadi:

Shavam man mast-u devona az xud bejuz gardam,
Ki binam dar on soat hamon tug'i balandashro [1962,132^b
varaq].

Shoiraning fikricha, u o'zini, o'zligini yo'qotib qo'ysa-da, tug'ni ko'rib sergaklanadi, hushyor tortadi. Darhaqiqat, "Qizbibi" majmuasida tug'(bayroq) mavjud bo'lib, u XVI asrdan buyon saqlanib turibdi. Tug'- bu islomiy qadamjolarda, xususan, tariqat vakillarining qabrlari, ziyoratgohlarda mavjud bo'lib, o'sha yerda mangu qo'nim topgan zotlarning tariqat va tasavvufda yuksak o'ringa ega ekanligi bilan izohlanadi. Tug' asosan qubba va minoraning tepasiga qo'yilgan¹⁸. Ko'rinib turibdiki, shoira ushbu qadamjoga bir emas, bir necha marotaba tashrif buyurgan, undagi har bir joy bilan tanish. Har safar u yerga borish nasib qilsa, xonaqo ichida afg'on urib, dardlariga malham istaydi:

Agar gardad muyassar ravzayi poki sharifi o',
Kunam man dar daruni xonaqoyash oh-u afg'on
[1962;132b].

Manbalarga ko'ra, Qizbibi majmuasida ziyoratchilar uchun maxsus chillaxonalar joriy etilgan, boshiga mushkulot tushganlar, ishi yurishmagan, oilaviy baxtini yo'qotganlar yoki farzandtalablar ushbu xonalarga kirib, dardlariga darmon so'rab yig'laganlar, ruhiy zo'riqishlaridan xalos bo'lishga harakat qilganlar. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, Miskin masnaviylarida Hazrat Og'oyi Buzurgga turlicha nasab bilan ehtirom ko'rsatgan. Uning "Bul g'arib bechoraga pirdin nazar bo'lg'aymikin..." misralari bilan boshlanuvchi o'zbekcha g'azalida Miskin Hazrati Og'oyi Buzurgga nisbatan "Pir" va "Ag'o" tavsiflarini ishlatadi. Shoira purning nazariga muhtojligini, agar nola qilsa uning holiga e'tibor qilinishiga umidvor bo'ladi:

Bul g'arib bechoraga pirdin nazar bo'lg'aymikin,
Nola qilsam man agar pirga asar qilg'aymikin

¹⁸ Turar Usmon. Tasavvuf tarixi. -Toshkent; Istiqlol,1999. -B.180.

[972/1,137^b varaq].

Muslihabegim Miskin ijodiga sinchiklab e'tibor qaratar ekanmiz, shoira aksar hollarda qalb va ruh dardiga darmon istab ko'plab qadamjolarga tashrif buyurgan. Shoira pir va avliyolarga ixlosi baland ekanligini bot-bot takrorlaydi. G'azal davomida buning guvohi bo'lish mumkin:

Sidq-u ixlosim bila keldim pirim ostoniga,

Ey birodarlar, manga pirdin nazar bo'lg'aymukin [972/1,137^b varaq].

Iqtibos keltirilgan g'azal xotimasida Muslihabegim Miskin Og'oyi Buzurgga umidvorligini saqlab qoladi, bechoraligi sabab o'z istig'forlari bilan pirlar, payg'ambarlar, asosiysi, Alloh nazariga tushishiga ishonadi, ushbu ishonchni umidga yo'yadi hamda undan sira voz kechmaydi:

Men umid ila kelibman, qilma navmid, ey Ag'o,

Miskini bechoraga shoyad nazar bo'lg'aymukin [972/1,137^b varaq].

Ayonlashdiki, shoira tang, nochor holatida pirdan umidvor bo'lib zorlanadi, ahvoliga nazar solishini iltimos qiladi. G'azalda Muslihabegim butun umrini g'aflatda o'tkazganligi, pirning ostonasiga umid qilib, sidq-u ixlos bilan borganligi va undan najot tilash holatlari uchraydi.

Miskin Hazrat Og'oyi Buzurg ziyoratgohiga tashrif buyurar ekan, har gal mushkulini oson bo'lishi uchun iltijo qiladi. Ham turmushidan tinchimagan ayol, ham farzandlarini tuproqqa topshirgan ona sifatida juda og'ir ahvolga tushib qolgan shoira qolgan umrini avliyolar, pirlar va muqaddas qadamjolar ziyoratiga baxshida etadi. Demak, ayonlashadiki, shoira butun umr mana shu hijron va firoq asirasiga aylanadi.

Miskin devonlarining tarkibi va janriy xususiyatlari

Muslihabegim Miskin – zullisonayn shoira. Uning adabiy merosi jamlangan uch devoni bizgacha yetib kelgan. Miskinning 972\1-raqamli devoni O'zbekiston Respublikasi Fanlar

akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar xazinasida saqlanadi. Shoiraning yana ikki devoni haqida Hamid Sulaymon nomidagi qo'lyozmalar instituti xodimlari tomonidan tuzilgan katalogda ma'lumot beriladi. Bu devonlar dastlab O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qo'lyozmalar instituti xazinasida 1962 hamda 1277 inventar raqamlari ostida saqlangan. Mazkur institut tugatilishi munosabati bilan Muslihabegim Miskinning ushbu devonlari ham O'zRFASHI xazinasiga o'tkazilgan. Shunday qilib, uning uch devoni Sharqshunoslik instituti fondida saqlanmoqda.

Miskinning 1962-raqamli devoni uch devon orasida 972\1-raqamli devon singari shoira ijodining salmoqli qismini o'zida jamlagan. Bu devonlar orasidagi tafovut ulardan o'rin olgan lirikaning turli janrlarida bitilgan she'rlarning miqdori, muayyan she'r namunalarining matnidagi ayrim farqliliklarida kuzatiladi. Ayni jihatlariga ko'ra 1962-raqamli devon o'zining birmuncha mukammalligi bilan ajralib turadi. Ushbu devonning atroflicha tavsifini keltirish asosida qolgan devonlarga xos jihatlarni qiyosan aniqlashtirish mumkin.

Muslihabegim Miskinning **1962-raqamli devoni** "*Bismillohir rahmonir rahim*" ilohiy kalimasidan keyin shayx Abdulvohid haqida masnaviyda bitilgan 42 baytli hikoyat bilan boshlanadi. Devon kalofon qismining mavjud emasligi uning kim tomonidan va qachon ko'chirilgani haqida ma'lumot olishga imkon bermaydi. Devonning umumiy hajmi 7882 misrani tashkil etadi. Devonda ikkinchi janr sifatida g'azalga o'rin berilgan. G'azallar devonning salmoqli qismini tashkil etadi. Biroq bu janrda bitilgan she'rlar devonning to'qqiz o'rnida muayyan namunalar sifatida keltirilgan. G'azallarning salmoqli namunalari oltinchi o'rin, ya'ni 25^b – varaqdan "*Chu bulbul zori menolam ki mesozamki afg'onho, Iloho, rahm kun bar holi zori chashmi giryonho*" matla'li g'azaldan boshlab devon tartib berish tamoyillariga asosan amal qilinib, arab alifbosi tartibida joylashtirilgan. Ayni o'rinda 286 g'azalga o'rin ajratilgan bo'lib, so'nggi o'rinda "*Omadam bar ostonat , yo iloh, Purgunoh-u osiy-u noma siyoh*" (101^b-varaq) matla'li g'azal keltirilgan.

G'azallarning bunday qat'iy tartibiga 46^b-varaqdan o'rin berilgan 11 baytli *"Dar har du jahon chun faryodras, Ey Xoliqi ashyo"* misrasi bilan boshlanuvchi mustazodning joylashtirilgani bir oz putur yetkazgan. Bu tartibga rioya etilmagan holda devonda joylashtirilgan g'azallarning dastlabkisi *"Yaktaraf dunyoyi dun, jurm-u isyon yaktaraf, Yaktaraf in umri ko'toh, dog'i hijron yaktaraf"* matla'si bilan boshlanuvchi 26 baytli g'azal bo'lib, u devonning 3^b-4^b, *"Na'ti nabiy sallallohu alayhi va sallam"* sarlavhali *"Ey zoti tu ma'in daftari payg'ambari, Dar du olam ummatoni gumrahonro rahbari"* satrlari bilan boshlanuvchi na't-g'azal 6^b-7^a, *"Vodarig'o, sad darig'o, shohi payg'ambar qani, Mevayi bog'i behisht on soqiyi Kavsar qani?"* matla'li va undan keyin keltirilgan ikki g'azal 12^a-12^b, *"Agar bar holi xud man girya sozam zor mearzad, Shavam man doimo bo diydayi xunbor mearzad"* matla'li va undan so'nggi alifbo tartibiga asoslanmay keltirilgan 10 g'azal 17^b-20^b hamda *"Az dasti nafi ammora adoyam, yo Alloh, Zi ofathoyi du olam nigah dori, xudovando"* matla'li va unga ergashtirilgan bir g'azal 23^a-24^a varaqlarda joylashgan. So'ngra yuqorida ta'kidlanganidek, arab alifbosi tartibidagi 286 g'azalga o'rin berilib, *"Ey sarvi sanuvbar gulandom, Ey mohi jahon tuyi dilorom"* matla'li va undan keyin keltirilgan g'azal 104^a-105^b, *"Avvalash go'yam sanoye on xudovandi jahon, Podshohi har du olam Xoliqi kav-n-u makon"* matla'li va undan so'ng keltirilgan g'azal 126^a-127^b, *"Ey tolibonro devona kardi, Az ishqi ro'yat mastona kardi"* matla'li va undan so'ng o'rin olgan, barchasi Og'oyi Buzurgga bag'ishlangan 7 g'azal 130^b-137^b varaqlarda joylashgan. Devondagi g'azallarning umumiy soni 320 tani tashkil etadi. G'azallar devonning turli o'rinlarida joylashganligi ular mavzulari bilan ham bog'liq ko'rinadi. Chunonchi, Og'oyi Buzurgga bag'ishlangan 8 g'azalning bir o'rinda joylashtirilganligi fikrimizga dalil bo'la oladi.

Muslihabegim Miskin she'riy hikoyatlar bitishda ham yaxshigina tajriba orttirgan shoira sanaladi. Ushbu devonda masnaviyda bitilgan shunday she'riy hikoyatlardan o'ntasi o'rin olgan bo'lib, ulardan biri, yuqorida ta'kidlanganidek, shoiraning turmush o'rtog'i shayx Abdulvohidga bag'ishlangan. Bu hikoyat

Muslihabegimning tanishtirish xarakterida bitilganidan bo'lsa kerak, devonning ilk she'ri sifatida tanlangan. Qolgan she'riy hikoyatlar devonning 4^a-6^b, 7^a-12^a, 13^a-17^b, 141^b-149^b varaqlarida, jami 5 o'rinda keltirilgan. Muslihabegim Miskin musammatlar bitishda ham alohida iqtidorini namoyon eta olgan shoira. Ushbu devonda shoira yirik hajmli lirik janr muxammasda bitilgan 6 she'rining 4 o'rinda (21^a-22^a, 105^a-111^a, 134^a-135^a, 137^b-138^a) keltirilgani kuzatiladi. Ulardan 4 tasi tojik, bittasi mulamma' o'zbek, tojik va bittasi o'zbek tilida bitilgan bo'lib, shoira chinakam zullisonayn ijodkorligidan dalolat beradi. Devonda "*Na'ti tu xonam beriyo*" misrasi bilan boshlanuvchi 19 bandli mustasne' (111^a-113^a) va "*Ey podshohi har du jahon Hayyu Tavano*" misrasi bilan boshlanuvchi 17 bandli muashsharga (114^b-118^a) o'rin berilgan. Muslihabegim Miskin she'riy hikoyatlardan tashqari, Muhammad (s.a.v.) va tariqat pirlariga bag'ishlab, shuningdek, munojot mavzusidagi lirik janr masnaviyda ham she'rlar bitgan. Bu janr namunalarining 13 tasi devonning 6 o'rnida (22^a-23^b, 24^a-25^b, 118^a-118^b, 125^b-125^b, 126^b-130^b, 135^a-135^a) keltirilgan. Shoira 2 mustazodi mazkur devonda ikki o'rinda (46^b-47^a, 113^a-114^b) mavjudligi kuzatiladi. Muslihabegim Miskin devonidan o'rin olgan soqiynoma, ruboiy va fard singari nazm namunalari kichik hajmli lirik janrlar sanaladi. Bu janr namunalari devonda boshqa janrlar singari tarqoq holda bo'lmay, balki bir o'rinda keltirilgani bilan alohidalik kasb etadi. Shoira "*Az partavi husni o' devona shavad oshiq*" misrasi bilan boshlanuvchi ruboiysi devondagi ushbu janrning dastlabki namunasi bo'lib, ularning 36 tasi 118^b-122^a, "*Biyo soqiy dunyo nadorad vafo*" satri bilan boshlanuvchi soqiynomadan boshlab barchasi ikki baytdan tarkib topgan 26 soqiynoma 122^a-125^a varaqlarda keltirilgan. Bu ikki janr namunalari ham arab alifbosi tartibida joylashtirilmagan. Shoira yagona fardi 39^b varaqdan o'rin olgan. Shunday qilib, devonda 9 lirik janr namunasi va masnaviyda bitilgan she'riy hikoyatlarning mavjudligi kuzatiladi.

Shoira 972\1-raqamli devoni Qo'qon qog'oziga nasta'liq xati bilan ko'chirilgan bo'lib, unda kotib nomi keltirilmagan.

Yuqorida qayd etilganidek, devon hijriy 1295, melodiyl 1878-yilda tartib berilgan. Unda kotib nomining ko'rsatilmaganligi uni shoiraning o'zi tomonidan tartib berilgan, deya taxmin qilishimizga omil bo'ladi. U ham tavsifi keltirilgan devon singari "*Bismillohir rahmonir rahim*" ilohiy kalimasidan keyin shayx Abdulvohid haqida masnaviyda bitilgan 42 baytli hikoyat bilan boshlanadi boshqa devonlarda uchramaydigan «Ey barodard, ba jahon ne'mati alvon pisar ast, Izzati sultonat zanat mardon pisar ast» (137^a-varaq) matla'li 6 baytli g'azal bilan nihoyalangani. Ushbu devonda 243 g'azal, 35 ruboiy, 25 soqiynoma, 1 fard, 8 masnaviy, 3 muxammas, 1 mustasne', 2 mustazod, 1 muashshar va 9 she'riy hikoyat keltirilgan. Unda ham tavsifi keltirilgan devon singari lirik turning 9 janrida bitilgan she'rlar jamlangan. 972/1-raqamli devonning umumiy hajmi 6228 misrani tashkil etadi. 1962-raqamli devonning mazkur devonga nisbatan birmuncha mukammalligi, uning hajman salmoqliligi hamda undagi g'azal, masnaviy, muxammas singari janrlar miqdorining ko'pligida ham kuzatiladi. Anglashiladiki, 1962-raqamli devon katta ehtimol bilan shoiraning so'nggi tartib berilgan devoni bo'lishi mumkin. Negaki, uchinchi devon 1277-raqamli devonning hajmi ancha ixcham. Devonning umumiy hajmi 3971 misrani tashkil etadi. Ushbu devon "Bismillohir rahmonir rahim" ilohiy kalimasidan keyin 15 baytdan tarkib topgan "*Avvalash go'yam sanoye on xudovandi jahon, Podshohi har du olam Xoliqi kavu-u makon*" [2^a-2^b-varaq] matla'li g'azal bilan boshlanadi, unda Muhammad (s.a.v.), chahoryorlar, Payg'ambar (s.a.v.)ning qizlari Fotima, nabiralari Hasan va Husaynning vasfi badiiy talqin etiladi. Devon "*Ba isyon sabz gasht in bahoram, Ba isyon biguzarad laulu nahoram*" (101^b-102^a-varaq) matla'li 14 baytli g'azal bilan yakunlanadi. Devonda 11 janr namunasiga o'rin berilgan bo'lsa-da, ularning miqdori u qadar ko'p emas. Chunonchi, devonda 156 g'azal, 35 ruboiy, 26 soqiynoma, 1 fard, 4 masnaviy, 3 muxammas, 1 musaddas, 1 mustasne', 2 mustazod, 1 muashshar va 2 tarje'band keltirilgan. Mazkur devonda boshqa devonlarda uchramaydigan "*Na'ti tu go'yam damodam, ey rasuli mujtibo*" satri bilan boshlanuvchi 54 misrali

(82^b-84^b varaq) musaddas, “*Ba holi zori mo benagir, ey ma’shuqi rabboniy*” (76^b-79^b), “*Nigar ki zori mustaram, ey shoh Muhyiddin vali*” (79^b-81^b) satrlari bilan boshlanuvchi tarje’bandlar ham mavjud. Quyidagi jadvalda devonlardagi o’zaro o’xshash va farqliliklar raqamlar misolida o’z ifodasini topgan bo’lib, ular aytilgan mulohazalarimizning dalili bo’la oladi:

devon	g’azal	mustazod	ruboiy	soqiynoma	fard	masnaviy	muxamma	musaddas	mustasne’	muashshar	tarje’band	She’riy hikoyat
1962	320	2	35	25	1	14	6	0	1	1	0	10
972/2	243	2	35	25	1	8	3	0	1	1	0	9
1277	156	2	35	26	1	4	3	1	1	1	2	0
Jami	333	2	35	26	1	14	6	1	1	1	2	10

Jadvalda keltirilgan raqamlardan Muslihabegim Miskinning 1962-raqamli devoni shoironing birmuncha mukammal devoni hisoblansa-da, qolgan ikki devoni ham uning adabiy merosining boshqalarida uchramaydigan namunalarini o’zida ifodalagani sezish mumkin. Shu bois shoironing har uchala devoni uning adabiy merosining qaysidir jihatlarini to’ldirishi bilan ahamiyatli sanaladi. Jadvalda ana shunday farqliliklar lirik turning turli janrlarda bitilgan nazm namunalarining umumiy miqdorini keltirishda ham inobatga olindi. Shunday qiyoslar natijasida shoironing bizgacha yetib kelgan adabiy merosi 8706 misradan tarkib topgani ma’lum bo’ldi. Ular lirik turning 11 janrida bitilgan nazm namunalari va masnaviyda yozilgan she’riy hikoyatlardan iborat.

Muslihabegim Miskin devonlarining shoira adabiy merosining qaysidir jihatlarini to’ldirishi bilan ahamiyatli sanalishi quyidagi qiyoslardan ham anglashiladi. Chunonchi, shoironing birmuncha mukammal devoni sanalgan 1962-devonida mavjud bo’lmagan 20 g’azal 972/1-raqamli devonida mavjudligi kuzatiladi. Ushbu devondagi “Hargiz maband dili tu ba dunyoyi siymdor...” [2^a-2^b varaq], “Darig’o meravi oxir az in jahoni siymdor oxir...” [58^a- 58^b varaq], “ Dardi moyonro davo kun, yo G’afur...” [58^b - 59^a varaq],

“Ajab hayron-u mas-tu bexudam az ishq-i on diydor...” [59^a-59^b varaq], “Man ojiz darmondaam, yo Mustafo, dastam begir...” [59^a-59^b varaq], “Joni fidoyi chashmi “mo zog‘u-l-basar...”

[59^b-60^b varaq], “Az jon-u dil oshiq-u barhez vaqti sahar...” [60^a-60^b varaq] “Begir dasti moro az lutfi xud, ey Qodiro, imro‘z...” [60^b-61^a varaq], “Umrho beguzasht dar in dunyo, tu g‘ofil hanuz...” [60^b-61^a varaq], “Agar mard rahi az ishq-i rabbon, har sahar barhez” [61^a-61^b varaq], “Agar hamd-u sanoyatro kunam man dam-badam og‘oz...” [61^b-varaq], “Guzasht umr nakardi tu toate hargiz...” [61^a-61^b varaq], “Ey xudovando, nadoram g‘ayri tu man hech kas...” [61^b-62^a varaq], “Boshat bar ko‘yi mekun tu moro havas...” [62^b-63^a varaq], “Dili xasta-yu zorat manam, yo rab, ba faryodam beras...” [61^a-61^b varaq], “Dil-u jonro kunam har dam fidoyat, yo rasululloh...” [94^a-94^b varaq], “Man agar az dardi ishqat suxan kunam du bora...” [94^a-94^b varaq], “Toati Haqro bekun oxir zi dunyo meravi...” [94^b-95^a varaq], “Tavakkul bo xudo ovar agar mardi musulmoni...” [95^a-95^b varaq], “Ey barodar, ba jahon ne‘mati alvon pizar ast” [137^a varaq] satrlari bilan boshlanuvchi g‘azallar bunga misol bo‘ladi. Ushbu g‘azallarning 6 tasi 1277 raqamli devonda ham uchramaydi. Ayni choqda 1277 raqamli devon hajman qisqa bo‘lsa-da, yuqorida ko‘rsatib o‘tilganidek, undagi tarje‘band va bir musaddasning boshqa devonlarda kuzatilmaganligi uning o‘ziga xosligini belgilaydi.

Muslihabegim Miskinning iste‘dodli shoira ekanligi, avvalo, uning uch yuzdan ortiq o‘zbek, tojik tillarida, shuningdek, mulamma‘da bitgan g‘azallari hamda nazmning turli janrlarda ijod qilgani, ayniqsa, mustazodda o‘zini sinab ko‘rgani, muxammas, musaddas, mustasne‘, muashshar, tarje‘band singari lirik turning hajman katta janrlarida she‘rlar bitganida kuzatiladi. Ayni choqda uning devonlarida ruboiy, o‘ziga xos to‘rt misradan tarkib topgan soqiynoma kabi kichik lirik janr namunalarining uchrashi ham shoiraning Sharq mumtoz poetikasini teran o‘rgangani va ularni badiiy ijodda mahorat bilan qo‘llay olganidan dalolat beradi. Umuman olganda, mumtoz lirikaning o‘ndan ortiq janrida ijod qilish ijodkordan yuksak shoirlik salohiyati bilan bir qatorda

mumtoz she'r ilmini sinchiklab o'rganishni talab etadi. Devonlarni qiyosiy o'rganishning o'ziyoq Muslihabegim Miskinda ana shunday iste'dod va bilimning mavjudligi sezilib qoladi.

Alisher Navoiy lirikasini sinchiklab o'rgangan A.Hayitmetov "Xazoyin ul-maoniy" dagi mustazod, muxammas, musaddas va musamman singari janrlarning mavzu va shakliy o'xshashligidan kelib chiqib, ularni g'azaldan o'sib chiqqan, kengaytirilgan janrlar sifatida talqin etadi¹⁹. Bizningcha, tarje'band, tarkibband singari janrlar ham aynan g'azaldan kelib chiqqan, uning kengaytirilishining hosilasi sanaladi. Masalaga shu nuqtayi nazardan yondashilsa, Muslihabegim Miskin lirikasini quyidagicha tasnif etish mumkin:

1. G'azal va unga bog'liq bo'lgan lirik janrlar: g'azal, mustazod, muxammas, musaddas, mustasne', muashshar, tarje'band.

2. Boshqa lirik janrlar: ruboiy, fard, soqiynoma, masnaviy.

Shoira lirik merosida ayrim janr namunalarining miqdori nihoyatda oz. Chunonchi, ijodkorning o'zini tanitishi jihatidan ahamiyatli bo'lgan, tadqiqotimizning ilk faslida keltirilgan "*Nomi man Muslihabegim buvad guftam: Yod dor, Guft Miskin: Nomi xudro to nagardad oshkor*" [972/1, 1^a varaq] satrlaridan tarkib topgan fardi shu janrda yozilgan yagona namuna sanaladi. Bu esa Muslihabegimning fardda ijod qilishda u qadar mayl ko'rsatmaganligidan dalolat beradi. Biroq shoira lirikasidagi musaddas, mustasne', muashshar singari janrlarda bitilgan she'rlarga nisbatan bunday fikrga kelish to'g'ri bo'lmaydi. Negaki, bular musammat namunalari bo'lib, ular orasida musaddasda bitilgan she'rlar o'zbek mumtoz adabiyotida ancha keng tarqalgan. Biroq mustasne' va muashshar musammatning nodir namunalari sanaladi. Nodiraning "Firoqnoma" deb nomlanuvchi asari muashsharda bitilgan ana shunday nazmiy asardir. Mustasne' esa boshqa shoirlar ijodida kuzatilmaydi. Shu bois musammatning o'zbek mumtoz adabiyotida murabba', muxammas, musaddas, musabba', musamman singari ko'rinishlarining keng tarqalgani e'tirof etiladi. Shundan kelib chiqib, Miskinning ayni janrlarda ijod

¹⁹ Hayitmetov A. Navoiy lirikasi. – Toshkent: "Fan", 1961. –B 67.

etganini uning nazmning xilma-xil janrlarida she'rlar bitish salohiyatiga egaligi sifatida baholash lozim.

Shoira lirikasida mustazod janrida bitilgan ikki nazm namunasi uchraydi. Adadining kamligiga ko'ra, bu janrda yozilgan she'rlar ham musaddas, mustasne' va muashshar singari Muslihabegim ijodining noyob namunasi. Tadqiqotning keyingi bobida shoira mustazod yaratishdagi badiiy mahorati xususida alohida to'xtalamiz.

G'azal va unga bog'liq bo'lgan janrlardan boshqa lirik janrlarda ham Muslihabegim Miskin badiiy ijod etgan. Ular orasida ruboiy va soqiynomada bitilgan nazm namunalari alohida ahamiyat kasb etadi. Shoira soqiynomalari masnaviyda yozilgan ikki baytdan tarkib topgan she'rlardir. Ruboiy singari bu janrda ham shoira nihoyatda muhim ilohiy-irfoniy, axloqiy-ta'limiy qarashlarini nihoyatda ixcham shaklda o'quvchiga taqdim qilganki, bu an'anani davom ettirish mas'uliyatini his etish bilan bir qatorda, shoirada o'ziga xos iste'dod sohibi bo'lishni ham talab etadi. Tahlillar asosida unda shunday iste'dod borligiga ishonch hosil qilish mumkin.

Muslihabegim Miskin devonlaridagi janrlarni tahlil qilar ekanmiz, har uchala devonda ham ruboiylar miqdori 35 tani tashkil etganiga guvoh bo'lamiz. Ruboiylar fors-tojik tilida yozilgan bo'lib, mavzular ko'lami turli-tuman. Shoira aksar ruboiylarida Xudo, payg'ambar timsollarini sifatlab, tavsiflab insoniy fazilatlarini ham ziynatlashga alohida e'tibor qaratadi. Ruboiylarida qalamga olingan mavzular esa insonning kamoloti uchun zarur bo'ladigan dolzarb masalalarga bag'ishlanadi.

Dar har jahon izzati shohon ilm ast,
Behtar az sultonat taxti Sulaymon ilm ast.
Har ki andar in jahon donad agar qadri ilm,
Izzati sultonat zi niyati mardon ilm ast

[1972, 114^b varaq].

Keltirilgan iqtibosda shoira ilm afzalliklari, undan bahramand bo'lgan inson hamisha izzatda bo'lishi, ilm Sulaymon taxtidan ham afzal ekanligini uqtiradi. Ilm va unga tashnalik barcha zamonlarda yuksak qadrlangan, uni o'rganish yoki egallash insonga xos

xususiyatdir. Shoiraning bu boradagi fikrlari, uning islomiy qarashlari natijasida shakllanganligini taxmin qilish qiyin emas. Islom olamining muqaddas kitobi bo'lgan «Qur'on» da ham ilmning afzalligi bir necha marotaba bayon etilgan. Agar inson ilm nuri bilan o'z yo'lini yoritmasa, zulmat va nodonlik ko'chasida qoladi. Kishi qalbining nuri ilm va ma'rifat bilan baquvvat bo'ladi. Insoniyatning qadri ilm bilan hosil bo'ladi. Imdan hali hech kim zarar ko'rgan emas. Ilmni egallab olish esa bir san'atdir. Dunyoda qanday yovuzlik sodir bo'lgan bo'lsa, ularning hammasi nodonlik orqali kelib chiqqan. Eng zo'r halokat nodonlik, insoniylikni bitiruvchi ham nodonlikdir.

Muslihabegim Miskin ruboiylarida dunyoning o'tkinligi ham tilga olinadi: Bu o'tkinchi dunyoda odamlarning bir-biriga munosabati ham o'tkinchiligi, vafo qilgan inson vafo topmasligi, mazkur foniylar dunyoda muttasil mehnat qilganlar, alalxusus, rohat topmoqliklari dushvor ekanligi juda oddiy, ammo ishonarli jumlar bilan bayon etiladi. Uning "Ey bevafo ast dunyo hargiz vafo naboshad..." misralari bilan boshlanuvchi ruboiysi mazkur fikrlarni o'zida mujassam etadi:

Ey bevafo ast dunyo hargiz vafo naboshad,
Umri azizi moro hargiz baqo naboshad.
Pur jurm-u pur gunoham darmonda-yu asiram,
Holi hama xarob ast lutfi xudo naboshad [1972, 117^b varaq].

Mazmuni: *Bu dunyo bevafo, hargiz vafosi yo'qdir. Bizning aziz umrimiz boqiy emasdir. Gunohim behad ko'p, darmondayu asirman. Xudoning lutfi bo'lmasa hammaning holi xarobdir.*

Shoira qarashlariga ko'ra, dunyo ahli gunohkor va chorasiz bo'lib, agar bizlarga parvardigorimiz lutf-u karam ko'rsatmasa, ya'ni nazar solmasa holimiz xarob ekanligi uqtiriladi:

Ey onki dar in jahon vafo hargiz nest,
Dar umri azizi mo baqo hargiz nest.
Forig' nashavad odami az mehnatu g'am,
Juz kulfat-u g'am rohati mo hargiz nest [1972, 117^a varaq].

Muslihabegim Miskin ruboiylari shunday janrga xos bo'lgan qonuniyatlar asosida yaratilgan bo'lib, ular alohida tahlilni talab

qiladi. Ruboiylarning qofiyalanishi, tartib berilishi Muslihabegimning adabiy janrlardan yetarlicha xabardor ekanligidan dalolat beradi.

Miskin lirik turning soqiynoma janrida ham ijod etgan iste'dodli shoira sanaladi. Garchi Muslihabegim soqiynomalari devonning salmoqli qismini tashkil etamasa-da, ulardagi mavzular shoiraning boshqa janrdagi asarlari mazmuni bilan hamohang. Miskin soqiynomalari bilan tanishar ekanmiz, uning soqiynoma yozish qonun-qoidolari va usullarini mahorat bilan o'zlashtirgan shoira ekanligiga yana bir karra guvoh bo'lamiz.

Soqiynoma o'zbek mumtoz adabiyotidagi she'riy shakllardan biri bo'lib, u odatda soqiyga murojaat bilan boshlanadi. Soqiynoma janridagi she'rlar XV asrdan keyin ham she'riyatimizning hayotga juda yaqin va jonli namunalarini tamsil etgan.

Muslihabegim Miskinning 972\1 va 1962-raqamli devonlarida 25 tadan, 1277-raqamli devonida esa 26 ta soqiynoma mavjud. Uchala devonda keltirilgan soqiynomalar bir xil. Faqatgina shoiraning 1277-raqamli devonida boshqa devonlar tarkibida uchramaydigan bitta soqiynoma berilgan. Shoira soqiynomalari fors-tojik tilida, masnaviy usulida yozilgan bo'lib, jami 104 misradan iborat.

Miskin soqiynomalari ham aruzning mutaqoribi musammani mahzuf vaznida yozilgan bo'lib, ularni asosan mavzusiga ko'ra quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Toat-ibodat haqidagi soqiynomalar
2. Allohdan, pirlardan marhamat tilash, uning lutfidan umidvorlik haqidagi soqiynomalar
3. Umrning o'tkinchiligi xususidagi soqiynomalar
4. Ilohiy ishq vasfiga bag'ishlangan soqiynomalar

Muslihabegim Miskin devonida Allohdan, pirlardan marhamat tilash, uning lutfiga umidvorlik mazmunidagi soqiynomalar hajman ko'proq bo'lib, asosan ularda umrning o'tkinchiligi, har daqiqa, har lahzaning g'animatligi, Alloh va payg'ambarimiz Muhammad rasulullohning shafolatlaridan umidvor bo'lish lozimligi ta'kidlab o'tiladi:

Biyo soqiy, beguzar zi hoy-u havas.
Buvad in jahon oshiqonro qafas,
Dili xud makun moil in jahon,
Ki raftand az in jo hama oshiqon [1972, 120^a varaq].

Shoira nazdida, bu dunyo barcha oshiqlar uchun qafas. Shu bois unga ko'ngil bog'lash, u bilan bog'liq orzu-havaslarga berilishdan voz kechish kerak. Muslihabegim o'quvchini bu jahonga ko'ngil bermaslikka undarkan, fikrini dalillash uchun bu yerdan barcha oshiqlarning o'tib ketganini misol qilib keltiradi. Miskin soqiynomalaridan yana biri Allohdan marhamat tilash, uning lutfiga umidvorlik mavzusida bitilgan:

Biyo soqiy, hojati xudro bexoh
Ki bar holi mo on xudovand guvoh.
Xudovand kunad rahmat in osiyon,
Davomat bar dargohi o' kun fig'on [1972, 120^a varaq].

Muslihabegim Miskinning ta'biricha, Alloh unga va u kabi gunohkor insonlarga, albatta, rahm qiladi, ammo bu marhamatga erishish uchun odamlar mudom "fig'on" chekishlari kerak. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, shoiraning aksar ijodiy namunalarida keltirilgan «fig'on», «oh», «nola» kabi xitoblar aynan shunchaki gunohkor bandaning iltijo qilishi lozimligini ifodalash uchun emas, balki gunohlarni yuvish uchun toat-ibodat qilish shartligi yuzasidan ham tavsif etilganligini anglash mumkin bo'ladi.

Shoira bu janrdagi asarlarida soqiyga murojaat qilinishi zamirida qalbi Alloh ishq bilan limmo-lim to'lish orzusidagi lirik qahramon holatini ifodalaydi. Bu ishq unga Allohning ma'rifati bilan oshno bo'lishini ko'ngliga olib kiradi.

Kuzatishlardan ma'lum bo'ladiki, Muslihabegim Miskinning 1962-raqamli devoni shoiraning birmuncha mukammal devoni hisoblansa-da, qolgan ikki devoni ham uning adabiy merosining boshqalarida uchramaydigan namunalarini o'zida ifodalagan. Shu bois shoiraning har uchala devoni uning adabiy merosining qaysidir jihatlari to'ldirishi bilan ahamiyatli sanaladi. Uning mumtoz lirikaning 11 janrida bitilgan nazm namunalari va masnaviyda yozilgan she'riy hikoyatlari, jami 430 ta she'rdan iborat

adabiy merosining bizgacha yetib kelgani, ayniqsa, shoironing uch yuzdan ortiq o'zbek, tojik tillarida, shuningdek, mulamma'da g'azallar, muxammaslar bitgani, mustazodda o'zini sinab ko'rgani, muxammas, musaddas, mustasne', muashshar, tarje'band singari lirik turning hajman katta janrlarida, shuningdek, ruboiy, o'ziga xos to'rt misradan tarkib topgan soqiynoma kabi kichik lirik janrlarda ijod etgani shoironing Sharq mumtoz poetikasini teran o'rgangani va ularni badiiy ijodda mahorat bilan qo'llay olganidan dalolat beradi.

Muslihabegim Miskin ixcham hajmli lirik janrlar: ruboiy va soqiynomada badiiy iste'dodini namoyish eta olganidek, g'azal va unga bog'liq bo'lgan lirik janrlar: g'azal, mustazod, muxammas, musaddas, mustasne', muashshar, tarje'band kabilarda ham shunday qobiliyatini she'rxonga yetkaza oldi. Ularning ayrimlari misolida mulohazalarimizga oydinlik kiritishga harakat qilamiz. G'azal boshqa ijodkorlarda kuzatilgani singari shoira ijodining salmoqli qismini tashkil etadi. Uning dastlabki namunalari VIII-IX asrlarda arab adabiyotida paydo bo'lgan, fors-tojik adabiyotida ilk g'azal yozgan shoir sifatida Ro'dakiy tilga olinadi. O'zbek adabiyotida esa dastlabki g'azal Rabg'uziyning «Qisasi Rabg'uziy» asarida (XIV asr) uchraydi. G'azalning dostonlar tarkibida uchrashi ilk bor Xorazmiyning "Muhabbatnoma" sidan boshlanadi²⁰. Ma'lumki, o'zbek adabiyotida g'azalning hajmi 3 baytdan 19 baytgacha bo'lishi ta'kidlanadi. Professor Abdurauf Fitrat "Adabiyot qoidalari" asarida g'azalga quyidagicha ta'rif beradi: "Yurak lirizmi she'rlari ko'brak g'azal shaklida yoziladi...".²¹

Muslihabegim Miskin g'azallaridagi mavzular olami rang-barang bo'lib, ularda asosan Islom va shariat qoidalari ta'rifu tavsif qilinadi. Shoira g'azallarini mavzusiga ko'ra quyidagicha tasniflash mumkin:

²⁰ Yusupova D. Adabiyot: -Toshkent: "Akademnashr". 2015, -B.93.

²¹ Boltaev H. Sharq mumtoz poetikasi --Toshkent. O'zbekiston milliy entsiklopediyasi,2008. -B.140.

1. Allohdan shafolat tilash, ummatlarga qiyomat kuni maxfirat ko'rsatish mavzusidagi munojot g'azallar.

2. Muhammad alayhis-salom vasf etilgan na't g'azallar.

3. Payg'ambar alayhis-salomning ahli bayti, sahobalar, avliyo va pirlar madh etilgan g'azallar.

4. Hasbi hol g'azallar.

5. Sidqan ibodat targ'ibi, dunyoning o'tkinchiligi va bevafoligi mavzusidagi g'azallar.

6. Ilohiy va majoziy ishq mavzusiga bag'ishlangan g'azallar.

Shoira g'azallari 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 11, 12, 14, 16, 21 baytli nazm namunalaridan iborat. G'azallarning aksariyati 9, 11 baytlidir. Ushbu ma'lumotlar ham shoira ijodida ixcham 4-6 baytli, o'rtacha hajmdagi 7-9 baytli, hajman yirik 12, 14, 16, 21 baytli g'azallar mavjudligini dalillaydi. Tabiiyki, g'azal hajmining kengayib borishi uning mukammallashuvining nishonasi sanalmaydi. Shoiraning aksariyat g'azallarining 7-9 baytdan tarkib topganligi uning g'azalnavislikdagi an'analarga rioya qilganidan darak beradi.

Miskin devonidagi g'azallarning salmoqli qismini munojot g'azallar tashkil etadi. Shunday mazmundagi g'azallarda Muslihabegim Miskin bot-bot bekas-u g'aribligini eslatadi. Ayni holat ijodkorning o'z-o'zini malomat qilish ruhida bitilgan g'azallarida ham kuzatiladi. Bunday nazm namunalarida Muslihabegim Miskin toat-ibodatda bardavom bo'lolmagani, gunohlari ko'payib ketganini talqin etib, Allohning rahmatidan umidvorligini ham o'ziga xos mungli ohangda, ko'pincha hazaji musammani solim (ma'foiylun ma'foiylun ma'foiylun ma'foiylun) vaznida bitilgan g'azallarida badiiylashtiradi. Shoiraning o'zbek tilida ijod etilgan quyidagi g'azali fikrimizning yorqin dalilidir:

Xudovando, sani dargohinga man qilmadim toat,

Nazar qilg'il bu holimga madad aylaki bu soat.

Gunohim ko'pturur behad, nazar qilg'il bu holimga.

Umidim bor sani dargohinga qilg'il manga rahmat.

Ilohi, osiylarg'a san o'zing rahmat ato qilg'il,

Ilohi, jumla mo'min joyini san aylag'il jannat.

Agar chandeki osiyman, umidim bor rahmatingdan,

*Umid birla borurman, ey Xudoyo, aylag'il rahmat
Iloho, Miskini bechorag'a lutfi karomat qil,
Bu foniy dunyoda, parvardigoro, ko'rmadim rohat*

[1962,54^a varaq].

Xudoga yo'nalib, o'zini aybli sanab, gunohlari mo'lligidan nolib she'rlar bitish musulmon mintaq xalqlari adabiyotida ko'plab shoirlar ijodida kuzatiladigan adabiy uslub sanaladi. O'zbek mumtoz adabiyotida ilk bor Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlarida sezilarli darajada namoyon bo'luvchi bu uslubiy jilo XIX asrda ham o'quvchiga hissiy ta'sir ko'rsatishning eng ma'qul yo'llaridan biri sifatida qo'llanilib kelindi. Muslihabegim Miskin ham ushbu g'azalida Xudoga yuzlanib, bani bashar uchun o'ziga xos sinov muddati sanalgan bu o'tkinchi umrini toat-ibodatdan ayri o'tkazgani, gunohlari behad ko'payib ketgan bo'lsa-da, Allohning lutfu marhamatidan umidsiz emasligini badiiy ifodalaydi.

Shoiraning yuksak insoniy fazilatlar sohibi ekanligi, avvalo, o'zini gunohkor deb bilishida kuzatilsa, Yaratuvchidan barcha osiy bandalarga rahmat ato etishini iltijo qilib, keyinchalik o'zini ham nafaqat ular qatorida, balki "chandeki osiyma",- deya e'tirof etishiyu, lutfu marhamatdan umidvorligini badiiy ifodalaganida yaqqol namoyon bo'ladi. G'azalning maqta'sida Miskini bechoraning parvardigorga zorlanib, bu foniy dunyoda rohat ko'rmaganligi evaziga Uning lutfidan benasib bo'lmasligini iltijo qilishi zahirida esa shayx Abdulvohidga bag'ishlangan she'riy hikoyatdagi onaizor obrazi ko'z oldimizga namoyon bo'ladi. Kamolini ko'rish niyatida ne-ne mashaqqatlar bilan voyaga yetkazgan dilbandlarining birin-ketin zavolini ko'rish mushtipar ona uchun «bu foniy dunyoda rohat ko'rmadim», - deyishga to'la asos bo'ladi, albatta.

Miskin g'azallarining aksariyatida yuksak insoniy fazilatlar ulug'langan.

Muslihabegim Miskin she'riy hikoyatlarining muhim poetik xususiyatlari

Muslihabegim Miskin devonlarida o'zbek va tojik tillarida masnaviyda bitilgan she'riy hikoyatlar ham salmoqli o'rin tutadi. "Yak hikoyat yod doram az rasuli ins-u jon", "Darin daftar kunam man yak hikoyat" [1962,4^a varaq], satrlari bilan boshlanuvchi, "Dar bayoni vafoti rasul sallallohu alayhi vas-sallam" [1962,7^a varaq], "Darin olam se bibi pok budand" [1962,12^b varaq], "Bayon sozam zi ba'd az xatmi eshon" [1962,15^b varaq], "Nabiyi Hay tilab mard maoni" [1962,138^a varaq], "Dar bayoni hikoyati Qaysar ibn Omir" [1962,140^b varaq], "In hikoyat savdogar ki dastgiri kardani saxovatash" [1962,144^a varaq], "G'ornomayi rasul" [1962,147^a varaq] sarlavhali, shoiraning hasbi holi badiiy ifodasi deya talqin etilgan shayx Abdulvohidga bag'ishlangan "Ki dar shahri Buxoro buvad yak darvishi donoye" [1962,2^a varaq] hikoyatlari shular jumlasidandir. Ijodkor o'zining aksariyat hikoyatlarida payg'ambarimizga bag'ishlangan ibratli rivoyatlarni asos qilib oladi. Jumladan, uning "Dar bayoni vafoti rasul sallallohu alayhi vas-sallam" nomli tojik tilida yozilgan hikoyatidagi voqealar tizimi bilan Nosiruddin Rabg'uziyning «Qisasi Rabg'uziy» asarida keltirilgan "Rasul alayhis-salom vafoti so'zlari"²² nomli nasriy hikoyatidagi adabiy lavhalar o'rtasida o'zaro mushtarakliklarning mavjudligi mushohadalarimizga asos bo'ladi. Ayonlashadiki, Muslihabegim Miskin payg'ambarimizning go'zal xulqlar bilan ziynatlangan ulug' zot sifatida musulmonlarni doimo ezgu amallar sari undaganliklari, dunyo hoyu havaslariga zarracha parvo qilmay faqirlikni faxr bilib yashaganliklari va sahobayi kiromlar ham har jihatdan u kishidan o'rnak olishga intilganliklarining maftuni bo'lgan. Shu bois shoira ana shunday mazmundagi rivoyatlarga nazmiy jilo berib, ularni keng targ'ib qilishga intilgan.

Muslihabegim Miskinning hikoyatlarida nomi zikr etilgan sahobalardan biri Ukkosha ibn Mihson bo'lib, ushbu qahramon

²² Nosiruddin Burhonuddin Rabg'uziy. Qisasi Rabg'uziy. 2-jild. – Toshkent: Yozuvchi, 1991. –B 192-197.

Nosiriddin Burhoniddin Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" sida ham eslab o'tiladi. Manbalarda mazkur sahobaning to'liq ismi Ukkosha ibn Mihson ibn Xurson ibn Qays Murra Asadiy bo'lib, uni Abu Mihson ham deb ataganlar. Rasululloh zamonlarida Banu Umayya qabilasining yetakchisi bo'lgan, o'zining oqilligi, serg'ayratliligi hamda tadbirkorligi bilan ajralib turgan. Bu sahoba Uhud, Handaq kabi barcha safarlarda ishtirok etgan, hatto Badr kunida qilichi sinib qolganida, Muhammad payg'ambar unga bitta tayoq berganliklari, ushbu tayoq qilichga aylanib qolganligi haqida ham ma'lumotlar uchraydi. Hatto Rasululloh Ukkosha ibn Mihsonning barcha ezgu amallariga guvoh bo'lib, uni jannatga kirishini bashorat qiladilar.

Kasir ibn Solt (roziyallohu anhu) rivoyat qiladi: «Ukkosha ibn Mihson (r.a.) Rasululloh (s.a.v.) vafotlariga qadar Madinani tark etmadi. Payg'ambarimiz (a.s.) olamdan o'tganlarida, Ukkosha (r.a.) qirq to'rt yoshda bo'lgan. So'ng Abu Bakr Siddiq (r.a.) uni Yamanga yubordi». Ukkosha ibn Mihson (r.a.) dan sahobalar Abu Hurayra hamda Ibn Abbos (r.a.) hadis rivoyat qilishgan.

Miskinning «Dar bayoni vafoti rasul sallallohu alayhi va sallam...» hikoyatida Ukkosha ibn Mihson bilan bog'liq quyidagi holat qalamga olinadi. Dastavval ijodkor payg'ambarning o'lim to'shagida yotganligi bayonini keltirarkan, atrofida oila a'zolari-yu, sahobalarining aziyatga tushib qolganlarini yaqqol tasvirlaydi:

Vaqt i on omad ki on shohi jahon,

To ki shamshiri ajal sozad nishon [1962,7^b varaq].

Shu bilan birga, payg'ambarning ahli ayoli Oysha(r.a.) u zotning hatto masjidgacha borishgacha majoli yo'q ekanligini ma'lum qiladi.

Oysha gufto ki: «Hazrat notavon,

To ki natavonand dar masjid ravon [1962,7^b varaq].

Voqealar silsilasida aynan Ukkosha ibn Mihson ham ishtirok etgan suhbat nazmiy dialogda aks ettirilgan. Payg'ambar bomdod namozidan so'ng minbarda o'zining boqiy dunyoga rixlat qilishi tobora yaqin qolayotganligini his qilgan holda izdoshlariga yuzlanib, namoz va ro'zani kanda qilmaslikni, yetim-esirlar hamda

beva-bechoralarga bosh bo'lishni uqtiradi. Mazkur holat Miskin tomonidan badiiy jihatdan ta'sirli tarzda yuksak iqtidor bilan tasvirlanadi.

... Ham namoz-u ro'zaro barpo kuned,

Har chi farmud xudo barjo kuned [1962,8^b varaq].

Mazmuni: Ham ro'za, ham namozni barpo qilib, Xudo nimani buyurgan bo'lsa shuni bajaring.

Aynan mazkur jarayon Nosiriddin Rabg'uziyning hikoyatida ham uchraydi, ammo unda muallif Muslihabegimdan farqli tarzda Rasululloh oldiga arab qiyofasida Azroil kelganligini hamda quyidagilarni o'z sahobalariga yetkazishi joizligini ta'kidlaydi: «Azroil bir badaviy arabtek bo'lub kirib keldi. Tizin cho'kub o'lturdi. Ozin-ozin Rasulqa yaqinroq keldi, quloqiga so'zladi. Yana ena chiqti. Rasul alayhis-salom holi aynadi Telim oh qildi, yig'ladi. Sahobalar qamug' yig'lashtilar. Aydilar: "Yo Rasululloh, bu arab kim erdi, sizga ne tedi? Holingiz aznadi". Aydi: "Ey yoronlarim, aziz do'stlarim, ul kelgan Malak ul-mavt qarindoshim Azroil erdi. O'sh qarindoshim Jabroilma hozir turur, manga so'zlayur: Ummatingga salom tegurgil, bo'g'uz uchun imonni ilikdin chiqarmasunlar teb. Shaytonni, nafsu havoni iearmasunlar, shak va sharikka insunlar. Ko'ni imong'a berk yapushsunlar, o'lumni unutmasunlar. Hiqd va hasaddin iroq tursunlar, shari'at ahkomini berk tutsunlar. Dunyoga ko'ngul bog'lamasunlar, Tengri azza va jalla yorliqin og'irlasunlar. O'g'il-qizqa osh, etmak otasi bo'lmasunlar— dini islom otasi bo'lsunlar. Yovuz esh, qo'ldoshdin yig'ilsunlar. Besh namozni azoqin tutsunlar. Qul kungni ezgu tutsunlar, darvishlarga rahm qilsunlar. O'gsuzlarga shafqat qilsunlar, qazg'ulug' munlug'larqa bo'lushsunlar. O'lumga anuq tursunlar, qiyomat ishin bitursunlar teyu turur" ²³.

Badiiylik nuqtayi nazaridan Miskinning hikoyati mukammal ko'rinsa-da, ma'lumotlar silsilasi hamda tafsiloti nuqtayi nazaridan Rabg'uziyda har bir jihat bayon tarzida bo'lsa-da, imkon qadar kengroq aks ettiriladi.

²³ Nosiruddin Burhonuddin Rabg'uziy. Qisasi Rabg'uziy. 2-jild. – Toshkent: Yozuvchi 1991,– B. 192-197

Rasululloh o'limi oldidan barchadan rozi-rizolik so'rarkan, birovning ko'ngliga ozor bergan bo'lsa, albatta, uzr so'rashini ma'lum qiladi va shu bilan birga, atrofdagilariga uch marta shu mazmunda so'roq beradi.

*Har kasero qarz boshad yo qasos,
To kunand moro dar in olam xalos
To ki se navbat bego'sh in nido,
Andar on soat ki mekard iltiyo [1962,8^b varaq].*

Ushbu misralar mazmunidan shuni anglash mumkinki, payg'ambar kimdan qarzi bo'lsa yoki kim undan qasos istasa, u tayyor ekanligini e'tirof etib, uch marotaba ahli jamoaga xitob qiladi. Nosiriddin Rabg'uziyda esa mazkur holat quyidagicha ifoda topgan: "Ey mo'minlar, kim ersaning manim uza hech da'vosi va husumati bormu? Kim ersa javob aymadi. Ikinch so'rdi, kim ersa javob aymadi". Uchunchida Ukkosha otlig' sahoba qo'pti, aydi: "Yo Rasululloh, manim bir da'vom bor. Aytg'il", tedi.

Aynan ushbu nuqtada navbatdagi farqni kuzatish mumkin bo'ladi, zero, Rabg'uziyda payg'ambarning uchinchi xitobidan keyin Ukkosha so'z qotadi, boshqalar esa jim turadilar. Ammo Muslihabegim Miskin hikoyatida esa uchinchi xitobdan so'ng, avvalo sahobalar Rasulullohga qarata undan mudom rozi ekanliklarini, unga jonlari fido ekanliklarini bildiradilar. Ushbu fikrlar bayonini Miskin badiiy mahorat bilan ifodalaydi:

*On zamon barxost az yoron fig'on,
Guftand: «Ey payg'ambari oxir zamon.
Sad hazoron joni man bar tu fido
Bod, ey shohi rasuli anbiyo.
Haq turo boshad ba moyon mursalin,
To ki moro bar tu Haq boshad yaqin» .*

Aynan mana shu munosabatdan so'ng Ukkosha o'rta qatnash chiqadi hamda qasos ilinjida ekanligini e'tirof etib, barchani hayratga soladi:

*Ba'd az on barxost Ukkosha zi jo,
Guft bo hazrat: «Ayo sadri safo.
Rafti on ro'ze ki dar jangi Uhud,
Bo jami'i jumlagi yoroni xud.*

Muslihabegim hikoyatida Ukkosha ushbu voqeaning sodir bo'lgan paytiga va joyiga aniq ishora bor (Uhud jangi). Ammo Rabg'uziyda bu jihat ko'zga tashlanmaydi: Aydi: "Bir kun siz safardin kelurda siz tevaga minub, teva urur bo'lub, ul qish qamchi birla uchamqa urdingiz, yavloq og'ridi. yo Rasululloh, uch qurla aymasangiz manma aymas erdim",- tedi.

Rabg'uziyning hikoyatida Rasululloh hamda Ukkosha safardan kelayotganligini, u tuyada ekanligini (Ukkosha esa piyoda), shunda Muhammad tuyaga qamchi urganida, u Ukkoshaga tekkanligini, u qattiq og'rganligini, ammo bugun Rasululloh barchaga yuzlanib uch marta so'ramaganida, u buni oshkor qilmasligini aziyat bilan bildiradi. Hikoyatlarning farqli jihatlardan yana biri Rasulullohning Ukkoshaga qasos olishi uchun imkon berishida ko'zga tashlanadi. Miskin payg'ambar kaltak olib kelish uchun Bilolni hujraga yuborganligini ta'kidlasa, Rabg'uziyda «kishi» yuboriladi, aynan Bilol ekanligi aytilmaydi. Shoir hikoyatida tasvirlanishicha, sahobalar fig'on chekadilar, xususan Abu Bakr hamda Umar Ukkoshaga so'z qotib, bu ishdan qaytishni, aksincha, Rasulullohning o'rniga yaxshisi ular (Abu Bakr va Umar)ni qamchilashini aytadilar. Muslihabegimning adabiy mahorati shundaki, u payg'ambar atrofidagi eng yaqin sahobalarni bevosita jarayonda ishtirokini ta'minlashga harakat qilgan, shu qatorda Usmon va Ali Murtazoning ham Ukkoshani bu qilmishdan qaytarishga uringan sahobalar qatoriga qo'shadi. Qiziq tomoni shundaki, to'rttala sahobaning takliflarini Ukkosha qaysarlik bilan rad etadi hamda adolatli qasos olishi kerakligini bot-bot takrorlaydi. Rabg'uziy hikoyatida esa sahobalar aynan nomma-nom keltiriladi, ammo farqli tarzda Usmonning nomi zikr yetilmaydi. Minbarga chiqib ham payg'ambarni urishni istamagan Ukkosha Muhammad (a.s.)dan to'nini yechishini, zero, safar chog'ida u to'nsiz bo'lganligini aytadi. Payg'ambar uning mazkur talabini ham ado etadi, natijada barcha uning tanidagi payg'ambarlik belgisini ko'radilar. Shu asnoda Ukkosha maqsadi aynan payg'ambarlik belgisini ko'rmoq bo'lganligini e'tirof etib, payg'ambardan qasos olish fikridan qaytadi hamda barchaning duosiga sazovor bo'ladi.

Miskin hikoyatida ham Ukoshaning maqsadi payg'ambarlik belgisini ko'rish ekanligi ta'kidlanadi.

Muslihabegim Miskin g'azaliyotida payg'ambarimizning barcha ummatlarga birdek shafolatli ekanliklari eng ezgu fazilatlaridan biri sifatida targ'ib qilinganidek, shoiraning she'riy hikoyatlarida ham ayni mavzu ancha mufassal o'zining badiiy ifodasini topganiga guvoh bo'lishimiz mumkin. «G'ornomayi rasul»da qalamga olingan adabiy lavhalar mulohazalarimizga qanoat hosil qildiradi. Ushbu masnaviyda badiiy in'ikosini topgan mavzu shoiraning 68 baytdan tarkib topgan "Yak hikoyat yod doram az rasuli insu jonn..." satri bilan boshlanuvchi tojik tilida bitilgan hikoyatida ham yoritilgan. Bu bilan shoira o'zbek va tojik tilida so'zlashuvchi aholini ushbu mavzudan birdek xabardor qilishni istagan bo'lishi ehtimoldan yiroq emas.

"G'ornomayi rasul" 101 baytdan tarkib topgan bo'lib, yuqorida nomi keltirilgan hikoyatdan hajman ancha kattaligi, shunga ko'ra unda voqealar mufassalroq bayon etilgani bilan ajralib turadi. Masnaviyning dastlabki uch bayti an'anaviy hamd va na't uslubida yozilgan. Hikoyatdagi asosiy voqealar to'rtinchi baytdan Muhammad alayhis-salomning tunlarni bedor o'tkazib, "Ummatimni afv et!" – deya Alloh taolaga iltijo etishlari tasviri bilan boshlanadi. Ana shunday kechalarning birida payg'ambarimizning ko'zlarini uyqu ilitadi. Shu payt bir nido kelgani quloqqa chalina boshlaydi:

*Dedi: "Yo Mustafo, nedur bu rohat,
Tilama ummatingga endi rahmat.
-Sani ummatingni, - dedi G'affor,-
Ki do'zax o'tiga qildim sazovor.
Yaratibman sani bu ummat uchun,
Ki san uxlabsan chun rohat uchun..."*

[972/1, 133^a varaq]

Muslihabegim Miskin bir lahza ummat tashvishlaridan beixtiyor xoli bo'lib qolgani uchun Alloh rasuliga shunday nido kelganiga e'tiborni qaratish bilan she'rxonni yana bir karra payg'ambarimiz hayotlari davomida juda katta mas'uliyatni

qalbdan his etib yashaganlariga amin bo'lishga chorlaydi. Hikoyatdan o'rin olgan keyingi lavhalardagi payg'ambarimizda paydo bo'lgan iztiroblar tasviri o'quvchi qalbidagi ishonchni shubhadan tamomila xoli qilib qo'yadi. Muhammad alayhis-salom g'oyibdan kelgan nido ta'siridan hayron-u lol bo'lib, ko'zlariga yosh olib, nola chekib, parishon bir holatda biyobon sari yo'l oladilar. Oradan ikki uch kun o'tib, Alloh rasulining g'oyib bo'lib qolgani xabaridan sahobalar voqif bo'lishadi. Bu holdan taajjublanib, afsus-nadomat chekib, ko'zlariga yosh olishadi va ummul mo'minin, ya'ni mo'minlarning onasi deya e'zozlangan payg'ambarimizning ayollari hazrati Oishaga murojaat qiladilar. Hazrati Oisha ummat uchun azob sodir bo'lishi xususida oyat nozil bo'lgani bois payg'ambar «Ummatim voh, ummatim voyki, osiy ummatim holiga yuz voy», - deya fig'on qilib chiqib ketganlarini ma'lum qiladi. Shundan so'ng voqealar rivoji quyidagicha davom ettiriladi:

Yig'ildi bir yera ashob-u yoron,
Madinani(ng) ichida bo'ldi afg'on.
Kerakmas, - dedilar, - bizga tan-u jon,
Fido bo'lsun Muhammad yo'lida jon".

[972/1, 134a varaq].

Yuqorida keltirilgan iqtibosda sahoba va birodarlarning payg'ambarimizga bo'lgan yuksak ehtiromi, samimiy sevgisi o'z ifodasini topgan. Ana shu qallda jo'sh urib turgan mehr ularni ham sahro tomon yetaklaydi. Sahoba-yu yoronlar biyobonda bir cho'ponga duch kelishadi va "*g'arib-u benavolarning panohi, osiy ummatning dodxohi*"ni yo'qotib qo'yganliklarini unga ma'lum qilishadi.

Dedi cho'pon: Man oni ko'rganim yo'q,
Aning otin hanuz eshitganim yo'q.
Vale uch kun bo'lubtur, ey yoronlar,
Kelur bo tog'idin turfa fig'onlar.
Birov: Yo ummatim , - deb aylar afg'on,
Ki bilmam man kim erkandur qayu jon.
Qo'yuptur o'tlamoqni jonivorlar,
O'shal tog' sorig'a boqib turarlar...

[972/1, 134a-134b]

Shoira Muhammad alayhis-salom osiy ummatning mag'firat etilishini tilab Alloh taologa munojot qilganliklarini mubolag'ali tasvirlaydi. Ayniqsa, bu o'tli nidolarni eshitgan jonivorlarning o'tlamoqdan qolib, o'sha tog' sari qarab qolishlari tasviri o'quvchida iliq taassurot qoldiradi. Sahobalar tog' tomon yo'l olishadi, undagi bir g'orda payg'ambarimiz hasrat bilan boshlarini sajdaga qo'yib, ko'zlaridan "selobo yosh" oqizib, fig'on qilayotganliklariga shohid bo'lishadi:

Deyur: Voy ummatim, voy, ummatim voy,

Ki osiy ummatim holiga yuz voy.

Rahimo, ummatimni ayla rahmat,

Vagarna bosh ko'tarmam to qiyomat .

Tilida doim erdi ushbu guftor,

Der erdi: Ummatim afu ayla, G'affor [972/1, 134b].

Hikoyatning fikrlar qarama-qarshiligiga boy bo'lgan ehtirosli badiiy lavhalari masnaviyning keyingi baytlarida o'z ifodasini topa boshlaydi. Sahobai kiromlarning birin-ketin so'z olib, payg'ambarimizni g'orni tark etishga chaqirishlari va ularga javoban bildirilgan dardli mulohazalar o'quvchini hayratga soladi. Dastlab Abu Bakr Siddiq payg'ambarimizga yuzlanib, g'orni tark etish taklifini bildiradi:

Dedi Siddiq: Emdi g'am yemagil,

Muborak boshingni yerdan ko'targil.

Xudo uchun na kim qildim ibodat,

Ani qildim fidoyi osiy ummat

Payg'ambar dedi: Haq qilmay inoyat,

Na sud etgay mani dardimga toat [972/1, 134b].

Hazrati Abu Bakr Siddiqdagi tantilik, tabiiyki, sinchkov o'quvchini befarq qoldirmaydi. Muhammad alayhis-salomni mana shu vaziyatdan chiqarish uchun bu ulug' zot Xudo uchun qilgan toat-ibodatlarining barchasini osiy ummatni mag'firat etilishi yo'lida nisor qilishga hozirligini bayon qiladi. Biroq Alloh rasuli: "Haq inoyat qilganligi haqidagi xabarni eshitmasam, dardimga sening toat-ibodating qayday foyda keltirishi mumkin?" – deya

taklifni rad etadilar. Shundan so'ng Hazrati Umar so'z olib, payg'ambarimiz o'z hadislarida adolat ishlarning afzali ekanini aytib o'tganlari bois odillik fazilatidan sodir bo'lgan o'zining barcha xayrli ishlarini osiy ummatga fido qilishini aytadi. Biroq payg'ambarimiz: "*Muning birla ochilmas kori mushkul*", - deya javob beradilar. Sahobayi kiromlarning birin-ketin ehtirosiga boy takliflari va ularning rad etilishi o'quvchini hayratga qoldira boshlaydi. Tabiiyki, bu muammoni qanday yechim topishi uni qiziqtirib qo'yadi. Navbat Hazrati Usmonga yetadi:

Ki andin so'ngra javobin dedi Usmon:

Ko'targin boshingni, ey nuri Yazdon.

Ki man jam' ayladim Haqni(ng) kalomi,

Savobi xayr-u ehsonim tamomi.

Ki berdim ummatga, ey payg'ambar,

Ko'targil boshingni, jumlagi rahbar .

Javobin berdi hazrat yig'layin zor:

Muni birla ochilmas ushbu dushvor [972/1, 135^a].

Haqning kalomini Qur'oni karimdek mo'tabar kitob holiga keltirishning savobi bu mushkulni hal qilolmas ekan, ushbu chigallik hal bo'lmasa kerak, degan o'y o'quvchiga tinchlik bermaydi. Shundan so'ng sahobayi kiromlarning so'nggi vakili Hazrati Ali so'z oladi. U kofirlar qavmidan qanchasini qatl etgan bo'lsa, undan hosil bo'lgan xayru ehsonlarning barini osiy ummatga nisor etishini bildiradi.

Dedi hazrat anga: Ey Haydari Haq,

Manga Haqni(ng) itobi bo'ldi mutlaq.

Agar qilmasa tangrim inoyat,

Na sud etgay mani dardimga toat .

Hama a'mollarni nafl-u ham farz,

Kelib hazrat qoshida qildilar arz.

Alarning arzini tinglamadilar,

Zamone yig'lamoqdin tinmadilar [972/1, 136^b].

Sahoba-yu yoronlarning so'zlari maqbul bo'lmagach, ular ushbu xabarni payg'ambarimizning qizlari, islom olamida «xayr un-niso» («ayollarning xayrlisi») deya ulug'langan hazrati Fotimaga

yetkazadilar. Fotima yeldek yugurib kelib, g'orda Alloh rasuli bilan uchrashadi. Otasi: *Manga munda battar ish bo'lmas, ey jon, Yoqarman ummatingni*, - dedi Subhon, - deya bo'lib o'tgan voqeadan qizini xabardor qiladi. Fotima ham Alloh yo'lida qilgan ibodatlarini osiy ummat uchun fido qilishini aytadi, biroq u ham g'orni malul, ya'ni g'amgin holda tark etishga majbur bo'ladi. Shundan so'ng Fotima Alloh taolaga yuzlanib, iltijo qila boshlaydi:

Dedi: Parvardigori insi jonsan,
Ki dastgiri hama darmondagonsan.
Man miskin kanizni aylagil shod,
Otamni(ng) ummatin o'tdin qil ozod.
Otamni(ng) ko'z yoshini hurmatidin,
Qutqargil ummatin do'zax o'tidin.
Man miskin kanizni qilmagin xor,
Hama ojizlarga sansan madadkor. [972/1, 136^b].

Fotima Allohga yolvorib, o'tli iltijolar qilishda davom etadi. Sirni begonalarga bildirmay, zor yig'lab, Allohga sajda qilib, nola chekadi. Oxiri Xudo uning duolarini mustajob qiladi. Jabroil alayhis-salom samodan inib: "*Ey Mustafo boshing ko'targil, Tangrim sanga inoyat qildi*", - deya xabar yetkazadi. Shunday qilib, hamma osiy ummat do'zax o'tida yonish azobidan ozod bo'ladi. Shoir qaydagi bayt bilan hikoyatga yakun yasaydi:

Ki bittim "G'ornomayi rasul" ni,
Bayon etim aningdek juzv-u kullni [972/1, 136^b].

Muslihabegim Miskin hikoyat so'ngida bunday yechimni o'quvchi hukmiga havola etib, mavzu ustida uni uzoq o'ylashga majbur etadi. Bir tomonda islom olamining eng yirik vakillari-buyuk sahobalar, ikkinchi tomonda esa payg'ambarimiz ahli bayti vakilasi ko'z o'ngimizga kela boshlaydi. Aslida, bunday qarshilantirish uslubi mumtoz adabiyotimiz uchun begona emas. Ulug' mutafakkir Alisher Navoiyning «Hayrat ul-abror» dostonidagi Ibrohim Adham haqidagi she'riy hikoyat fikrimizga dalil bo'la oladi. Ibrohim Adham o'n to'rt yil sahro kezib Makkayi mukarramaga yetib keladi. Ammo Ka'batulloh o'z o'rnida yo'q ekan. O'sha muqaddas makonda hozir bo'lganlar muborak sajdagohning

Robiai Adaviya istiqboliga chiqqanligini ma'lum qilishadi. Tabiiyki, bunday kutilmagan hodisa Ibrohim Adham fig'onini falakka ko'taradi. Shunday qilib, Ibrohim va Robianing uchrashuvi hamda muloqotlari voqe' bo'ladi. Ibrohim Adhamning fig'onli savollarini tinglagan bokirayu zakovatli ayol Robia quyidagicha javob qaytaradi:

Robia dedi anga: Ogoh bo'l,
Kim necha yil bodiyada borcha yo'l.
Bo'ldi ishing arzi namoz aylamak,
Sheva manga arzi niyoz aylamak.
Sanga samar berdi namoz-u riyo,
Bizga bu bar berdi niyoz-u fano.²⁴

Arzi niyoz – Allohga sidqidildan zorlanib yolvorish, duolar etishni odat qilgan Robiayi Adaviya Ka'batullohning ana shunday ehtiromiga loyiq ko'rilishida hikmat bor.

Muslihabegim Miskin hikoyatida ham dastlab Fotima o'sha sahobayi kiromlar singari g'ordan malul holda chiqadi. Biroq u shu bilan kifoyalanib qolmaydi. Allohga iltijolar qilishda davom etadi. She'riy hikoyatning eng muhim fazilati insonni har qanday vaziyatda noumid bo'lmaslikka da'vat etganida namoyon bo'ladi. Shuningdek, undagi ehtirosli baytlar, yechimi o'quvchini nihoyatda qiziqtirib qo'yuvchi adabiy lavhalar, Fotimaning ruhiy holatini baland pardalarda ifodalagan *"Yig'lar erdi nola aylab zor-zor, Go'yiyo bo'ldi qiyomat oshkor"* singari ko'plab mubolag'aviy satrlar shoiraning bunday she'riy hikoyatlar yozishda katta tajribaga ega bo'lganidan dalolat beradi.


Shoiraning o'ndan ortiq masnaviyda bitilgan she'riy hikoyatlarining aksariyatida Muhammad (s.a.v.) haqida hikoya qilinishi uni payg'am-barimizning go'zal xulqlar bilan ziynatlangan ulug' zot sifatida musulmonlarni doimo ezgu amallar sari undaganliklari, dunyo hoy-u havaslariga zarracha parvo qilmay faqirlikni faxr bilib yashaganliklari va sahobai ki-romlar ham har jihatdan u kishidan o'rnak olishga

²⁴ Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. Mukammal asarlar to'plami. XX tomlik, 7-tom. – Toshkent: Fan, 1991, –B.120.

intilganliklari qiziqti-rib qo'yganidan dalolat beradi. Shu bois shoira ana shunday mazmunda-gi rivoyatlarga nazmiy jilo berib, ularni keng targ'ib qilishga intilgan.

"G'ornomayi rasul" da ifodalangan badiiy voqeylikning "Yak hiko-yat yod doram az rasuli insu jon" satri bilan boshlanuvchi tojik tilida bi-tilgan hikoyatida ham badiiy talqin etilgani uning ana shunday adabiy niyatidan darak beradi.

Muslihabegim Miskinning she'riy hikoyatlar bitishdagi mahorati uning syujet badiiy talqinida kontrast holatning vujudga keltirishida, xu-susan, bunday ziddiyatning avj nuqtasini mahorat bilan hosil qila olishi-da namoyon bo'ladi. Shuningdek, kutilmagan yechimni keltirib chiqa-rish, buning uchun qahramonlar muloqotidagi ziddiyatli holatlarning o'sibborishiga erishish, tasvirlardagi mubolag'aviylik kabilar shoiraning bu borada salohiyatli ijodkor bo'lib yetishgani dalillaydi.



Muslihabegim Мискин рубоийлари nasriy bayoni

Dar har jahon izzati shohon ilm ast,
Behtar az saltanati taxti Sulaymon ilm ast.
Har ki andar in jahon donad agar qadri ilm,
Izzati saltanat zi niyyati mardon ilm ast.

Mazmuni: Har ikki jahonda shohlar izzati bu ilmdir. Ilm, hatto Sulaymon saltanatidagi taxtdan ham afzaldir. Kimki bu dunyoda ilmning qadrini bilsa, saltanatning izzati, mardlarning niyati ilm ekanligini anglaydi.

Ey bevafo ast dunyo hargiz vafo naboshad,
Umri azizi moro hargiz baqo naboshad.
Pur jurm-u pur gunoham darmonda-yu asiram,
Holi hama xarob ast lutfi xudo naboshad.

Mazmuni: Bu dunyo bevafo dir, hargiz vafosi yo'qdir. Bizning aziz umrimiz boqiy emasdir. Gunohim behad ko'p, darmonda-yu asirman. Xudoning lutfi bo'lmasa hammaning xoli xarobdir.

Ey on ki payi nafs havo megardi,
Az yodi xudo charo judo megardi.
Toat tu namekuni baroyi Xoliq,
Az xizmati maxluqi fano megardi.

Mazmuni: Ey senki, nafs istagida yurasan, Xudo yodidan judo bo'lib yurasan, xoliq uchun sen toat qilmaysan, fano maxluqining xizmatida yurasan.

Yo rab, ba hama zi lutf iymon baxshi,
Ba dardi hama zi lutf darmon baxshi.
Az hurmati on Muhammad payg'ambar,
Rahmi tu ba holi in g'aribon baxshi

Mazmuni: Yo rab, barchaga lutfing ila iymon va darmon baxsh et, Muhammad payg'ambarning hurmati haqqi, g'ariblar holiga rahm ayla.

Yo rab, tu bandagonro sozi g'ariqi rahmat,
Az lutf bar saram rez boroni abri rahmat,
Zavqi muhabbatro bar dil bideh damodam,
Vahti sahar hamaro bedor kuni zi g'aflat [4; 83].

Mazmuni: Yo rab, bandalaringni rahmatingga cho'miltir, lutfing ila boshimdan rahmat suvi(yomg'iri)ni yog'dir. Ko'nglimga dam-badam muhabbat zavqini bergin, hammani sahar vahti g'aflat uyqusidan uyg'otgin.

Yo rab, tu makun rasvo dar ro'zi jazo moro,
Az hurmati payg'ambar baxshoy gunohi moro,
Az lutf nazar mekun bar so'yi g'aribonat,
Sharmanda makun, yo rab, in bandayi xud fardo.

Mazmuni: Yo Olloh, jazo kuni bizni sharmanda qilmagin, payg'ambar hurmati bizning gunohlarimizni kechir. Lutfing bilan g'ariblaringga nazar qil. Yo Olloh, indinga bandangni sharmanda qilma.

Muslihabegim Miskin g'azallari nasriy bayoni

Chashmam nigoron bar rahi zeboyi shumo xesh²⁵,
Mahzun dili man bar rahi zeboyi shumo xesh

Mazmuni: Azizim, sizning yo'lingizda ko'zlarim intizordir, ko'nglim esa yor hajrida mahzundir.

Ey, rohati jonam-u dilam az ishq kabobast,
Devona shavam vola-yu shaydoyi shumo, xesh.

Mazmuni: Ey, jon-u dilimning rohati ishqdan kabobdek kuydi, azizim, sizga shaydo-yu maftunlikdan devona bo'lay.

Devonaam az ishq tu, ey shohi dilorom,
Majnun shudaam man ba tamannoi, ey shumo xesh.

Mazmuni: Ey sho'xi dilorom, sening ishqingda devona bo'ldim.

²⁵ Xesh- aziz, azizim, qarindosh (Buxoro shevasida)

Ey siz azizim, vaslingiz orzusida Majnun bo'ldim.

Layli jigar xun ravam dar ko'h-u sahro,

Devona shavam bar sari savdoyi shumo xesh.

Mazmuni: Tog'-u sahroda jigari qon bo'lgan Laylidek kezay,
Ey azizim, sizning savdoyingizda devona bo'lay.

Man bulbuli sho'rida ravam go'sha-yu bog'i,

Mastona ravam man tamoshoyi shumo xesh.

Mazmuni: Oshiq bulbul misoli bog'larni sarson kezib, azizim,
sizning jamolingizni ko'rishga mastona boray.

Binam agar on sarvi gul andomi shumoro,

Buda dilam az zulf sumansoyi tu xesh.

Mazmuni: Sizning sarv gul yuzli jismingizni ko'rib, azizim,
dilim sening zulfi sumansoyingga aylandi.

Miskin zi firoqat shuda hayron-u parishon,

Payvasta ravam man ba tavalloyi shumo xesh.

Mazmuni: Miskin yorning firoqida hayron-u parishon bo'ldi,
azizim, men sizga doimo yolvorishda bardavom yuray.

Musulmono, maro g'amhoyi dunyo yor shud oxir,

Tamomi kulfati dunyo ba man hamvor shud oxir.

Mazmuni: Musulmonlar, dunyo g'amlari menga yor bo'ldi,
dunyo kulfatining hammasi yo'limni to'sdi oxir.

Ajab hayron-u sarsonam, musulmonon, darbadar savdo,

Az in mehnat hamisha in dilam purbor shud oxir.

Mazmuni: Musulmonlar, bu qanday savdoki, hayron-u
sarsonman. Bu mehnatdan hamisha ko'nglim to'la g'am bo'ldi oxir.

Misoli Yusufi Misriy ajab darbadar nadoram,

Dili g'amdiydaam az g'ami Zulayxovor shud oxir.

Mazmuni: Yusuf Misriydek darbadar bo'lmoqchi emasman,
g'amli yuragim g'amdan Zulayhodek bo'ldi oxir.

Zi kulfathoi dunyo sargardon gashtaam, yoron,

Zi bori g'ami jonon in siynam afgor shud oxir.

Mazmuni: Do'stlar, dunyo kulfatlaridan sargardon bo'ldim
oxir, jonon g'amida yuragim yaralandi oxir.

Az in g'amhoi bepoyon namedonam sar koram,
Davomat harfi man dar ko'cha boron shud oxir.

Mazmuni: Bu bepoyon g'amlardan ishni nimadan boshlashni bilmayman, mening har bir yozgan harfim siyohlari ko'chada yomg'ir bo'ldi oxir.

Man, Miskin, nayosudam dar in dunyoyi dun hargiz,
Mus'in in g'ami man bar dar-u devor shud oxir.

Mazmuni: Men, Miskin, bu pastkash dunyoga sig'madim hargiz, mening g'amim eshik-u devorga yordamchi bo'ldi oxir.(1962,18a varaq)

Hayf umri odami dar in jahon bejo guzasht,
Dar payi nafi havo-yu sho'rish-u g'avg'o guzasht.

Mazmuni: Afsus, bu dunyoda odamning umri besaranjom o'tdi, nafs-u havo yo'lida g'avg'o-yu to'polon bilan o'tdi.

Odami chun be baqoest dar jahoni siymdor,
Zi in jahoni bevafo on Odam-u Havo guzasht.

Mazmuni: Kumushga to'la jahonda odam boqiy emas, bu bevafo dunyoda Odam-u Havo o'tdi.

Chun nakarda in jahon bar odami hargiz vafo,
Oh az in dunyoyi foniy olimi dono guzasht.

Mazmuni: Bu jahon odamga hargiz vafo qilgani yo'q. Oh, bu foniy dunyodan olim-u dono o'tdi.

Meravem oxir az in dunyo ki bo dasti tihiy,
Oqibat az in jahon on volayi shaydo guzasht.

Mazmuni : Bu dunyodan hech narsasiz ochiq qo'llar bilan ketamiz. Oqibatda, bu dunyoda giriftor bo'lgan shaydolar ham o'tdi.

Andar in dunyo dili xudro maband, ey odami,
On Muhammad Mustafo oxir az in dunyo guzasht.

Mazmuni: Ey odam ,bu dunyoga ko'nglingni bog'lama. Muhammad Mustafo ham oxir bu dunyodan o'tdi.

In jahon ham bevafo-yu be baqo ast, odami,
Oqibat az in jahon on Hojar-u Soro guzasht.

Mazmuni: Ey odam, bu dunyo ham oqibatsiz, ham bevafo dir, oqibatda bu dunyodan Hojar-u Soro ham o'tdi.

Andar in dunyo makun, ey Miskino, dil bastagi,
Zi in jahoni bevafo Fotimayi Zahro guzasht. (1962,74).

Mazmuni: Ey Miskin, bu dunyoga ko'ngil bog'lama, bevafo jahondan Fotima-yu Zahro o'tdi.

Ilohi, rahm kun bar holi zori chashmi giryonam,
Ki man az furqati isyon hamisha gashta nolonam.

Mazmuni: Ilohi, yoshli ko'zlarimga rahm qil, men hamisha ayriliq hajrida nolon yuraman.

Nadoram juz tu g'amxori hastam ojiz-u muztar,
Xudovando tarahhum kun ki man bo oh-u afg'onam.

Mazmuni: Sendan boshqa g'amxo'rim yo'q, ojiz-u nochorman, Xudovando, mening oh-u nola mnga shafqat qilgin.

Man az sharmi gunoham ravam monandayi Layli,
Ba ko'h-u dasht-u sahroho chu Majnun parishonam.

Mazmuni: Men gunohlarim uyatidan Layliga o'xshab borsam, tog'-u dasht-u sahrolarda Majnuni parishonman.

Ilohi Miskini bechoraro jurm-u gunohashro,
Bubaxsho, ey xudovando, ki man dar bandi isyonam.

Mazmuni: Ey xudovando, itoatsizlikka bog'langan Miskini bechoraning gunohlarini kechirginki, men shunga majburman.

Man oshiqi devonaam doim ba justujo'yi u,
Dar ko'chaho afsonaam dar orzui ro'yi u.

Mazmuni: Men doimo uni izlash bilan oshiq-u devonaman, uning jamoli orzusida ko'chalarda afsonaman.

Devonaam, devonaam az ishq u afsonaam,
Parvonaam, parvonaam bar girdi sham'i ro'yi u.

Mazmuni: Devonaman, devonaman, uning ishqida afsonaman, yuzi(chehrasi nuri) shami atrofida parvonaman, parvonaman.

Layliyi sargardon manam, az ishq u nolon manam,

Majnuni bo afg'on manam, dar ko'yi u dar ko'yi u.

Mazmuni: Layliyi sargardonman, uning ishqida nolonman,
nola chekuvchi Majnunman uning kuyida, uning kuyida.

Man on Zulayxoi hazin az ishq u gashta g'amin,

Az so'zi dil go'yam hamin hastam gadoyi ko'yi u.

Mazmuni: Uning ishqida iztirob chekuvchi Zulayhoyi
g'amginman, yuragimdagini aytsam, sening hajring gadoyiman.

Nazora kardam bo'ston didam hama bulbulon,

Hastand andar guliston az bo'yi u az bo'yi u.

Mazmuni: Bo'stonga nazar solib, hamma bulbullarni ko'rdim,
bu gulistonda uning ifori borligi uchun ular bordir.

Miskin hama xun shud jigari gar namesozad nazar,

Devona gardand be xabar nabinand qaddi dil jo'yi u. (1962-
devon, 100b)

Mazmuni: Agar nazar solmasa Miskinning jigari qondir,
uning qaddini ko'rmay xabarsiz, devona bo'lib yursinlar.

Miskin g'azalidan tarjima:

Men bu dardi firoqingdan hamisha ham noladorman,
Nazar qilgin bu dardingdanki, man furqatingda zorman.

Ki Layli Majnun g'amidin biyobonlarga man ketgum,
Ki doim firoqingdan bu joyda zor-u bemorman.

Gar muyassar etsam-u, bo'lsam davomat ko'chasida,
Ne qilay man bu dunyoning fanosiga giriftorman.

Aning bir visoliga mol-u mulkim barbod etgum,
Nima qilay musulmonlar, ishqidan dili afgorman.

Guliruxsor yodidan netayin devona bo'ldim,
Aning dardi firoqidan bu joyda doimo zorman.

Agar etsa xoki poyiga muyassar, man hayronman,
Ko'zinga to'tiyo qilgum ishqida zor-u bemorman.

Xudovando, mahsharda lutfing ila meni kechirgin,
Ayo Miskin, xatoyim ko'pki, osiy-yu gunohkorman.

Lug'at

avoxir — oxirlar, oxirroq

avroq — varaqlar

ashyo – narsalar

barq — chaqmoq

bataxis — xususan

baqo — boqiylik, abadiylik

banogah— kutilmaganda, to'satdan

baxshoyish — kechirish, bag'ishlash

bag'ayr — boshqa, bo'lak

barguzida – tanlangan, saylangan

behtar –behuda, behudaga, behudalik, behudud

davomat – ishtirok, huzur

darvesh – tarki dunyo qilgan, sufiy.

dushvor – qiyin, mushkul, og'ir

farmud – buyruq, topshiriq

go'yanda — hikoyachi, qissa aytuvchi

guli noshigufta— ochilmagan gul

gardanda — aylanuvchi, kezuvchi

gandagi — yomonlik

giriftori — yo'liqqan, asir bo'lgan

jo'yoni – istovchi, qidiruvchi

mardon – botir, dovyurak, mard.

miskin – faqir, bechora

musliha – dinga xayrixoh, dinni yaxshilash va e'zozlashga xizmat

nazoyir — naziralar

nayobat — noiblik

navisanda — yozuvchi

nahor — kunduz

nesh — nayza

osiy— gunohkor

soil — so‘rovchi, istovchi

tarahhum — rahm qilish, marhamat

xesh-u tabor- qarindosh-urug‘

xiradmand — aqlli, dono

xonaqoh – masjidning namoz o‘qiladigan, odatda keng va katta xonasi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Miskin so‘zining ma‘nosini izohlang.
2. Muslihabegim Miskin qanday oilada tug‘ilgan?
3. Shoir devonlari haqida ma‘lumot bering.
4. Miskin qaysi janrlarda ijod qilgan?
5. Miskin g‘azallarining asosiy mavzusi?
6. G‘azal va unga bog‘liq bo‘lgan lirik janrlar haqida ma‘lumot bering.
7. Miskin soqiynomalarining o‘ziga xos xususiyatlarini sanang.
8. Shoir she‘riyatida badiiy san‘atlardan qaysi ko‘proq kuzatiladi?
9. Miskin she‘riy hikoyatlarining o‘ziga xos jihatlarini sanang.
10. “Yurak lirizmi she‘rlari» ko‘brak g‘azal shaklida yoziladi...”. Ushbu fikrlar qaysi ijodkorga tegishli?
11. Miskin hikoyatlari nomini sanang.
12. Shoir hikoyatlarining yetakchi mavzusi haqida gapiring.
13. Miskin ijodida qaysi afsonaviy va tarixiy qahramonlar uchraydi?
14. Muslihabegim ijodidagi ruboiylarning asosiy g‘oyasini tushuntiring.
15. Tarkibband va tarji‘band janrlari haqida nazariy ma‘lumot bering.

Mavzuga oid testlar:

1. Muslihabegim Miskin nechanchi asrda faoliyat yuritgan shoira sanaladi?
 - A. XV asr
 - B. XVII asr
 - C. XIX asr
 - D. XVIII asr
2. Shoira lirik turning qaysi janrlarida ijod etgan?
 - A. G'azal, mustazod, ruboiy, soqiynoma, muxammas, tarji'band
 - B. Qit'a, fard, ruboiy, tuyuq, doston, masnaviy
 - C. Tuyuq, qit'a, ruboiy, soqiynoma, musaddas, tarkibband
 - D. Doston, masnaviy, muxammas, tarkibband, lug'z
3. Muslihabegim Miskin hikoyatlarida nomi zikr etilgan sahoba Ukkosha ibn Mihson yana qaysi ijodkor asarida uchraydi?
 - A. N.Rabg'uziyning "Qissasi Rabg'uziy" asarida
 - B. A.Jomiyning "Yusuf va Zulayho" asarida
 - C. A.Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonida
 - D. A.Navoiyning "Tarixi muluki Ajam" asarida
4. Alisher Navoiy lirikasini sinchiklab o'rgangan A.Hayitmetov "Xazoyin ul-maoniy"dagi qaysi janrlarni mavzu va shakliy o'xshashligidan kelib chiqib, g'azaldan o'sib chiqqan, kengaytirilgan janrlar sifatida talqin etadi?
 - A. Mustazod, muxammas, musaddas
 - B. Musamman, masnaviy, muashshar
 - C. Muxammas, musaddas, soqiyoma
 - D. Musaddas, she'riy hikoyat, tarkibband
5. Miskin soqiynomalari aruzning qaysi vaznida yozilgan?
 - A. Hazaj bahrida
 - B. Rajaz bahrida
 - C. Mutaqorib bahrida
 - D. Ramal bahrida
6. Muslihabegim Miskin soqiynomalarini mavzusiga ko'ra necha guruhga bo'lib o'rganish mumkin?
 - A. 5


- B. 7
 - C. 4
 - D. 3
7. O'zbek adabiyotida ilk g'azal kimning ijodida kuzatiladi?
- A. Lutfiy
 - B. Alisher Navoiy
 - C. Mahmud Qoshg'ariy
 - D. Nosiriddin Rabg'uziy
8. Miskin devonidagi g'azallarning salmoqli qismini mavzusiga ko'ra qanday g'azallar tashkil etadi?
- A. Hasb-u hol g'azallar
 - B. Ilohiy va majoziy ishq mavzusiga bag'ishlangan g'azallar
 - C. Allohdan shafolat tilash, ummatlarga qiyomat kuni maxfirat ko'rsatish mavzusidagi munajat g'azallar.
 - D. Payg'ambar alayhis-salomning ahli bayti, sahobalar, avliyo va pirlar madh etilgan g'azallar
9. Miskinning 1962-devonida mavjud bo'lmagan 20 g'azal qaysi devonda kuzatilmaydi?
10. Shoir g'azallarning aksariyati necha baytli?
- A. 9, 11 baytli
 - B. 5, 7 baytli
 - C. 6, 8 baytli
 - D. 7, 10 bayrli
11. Muslihabegim she'riy hikoyatlari nomi qaysi qatorda to'g'ri berilgan?
- A. "Darin daftar kunam man yak hikoyat", "Hazrati Ayub"
 - B. "Darin olam se bibi pok budand", Qissayi Yusuf alayhissalom"
 - C. "Bayon sozam zi ba'd az xatmi eshon", "Nabiyi Hay tilab mardi maoni"
 - D. "Dar bayoni vafoti rasul sallallohu alayhi vas-sallam", "Shavqi Guliston"
12. G'azal va unga bog'liq bo'lgan lirik janrlar berilgan qatorni aniqlang.
- A. G'azal, mustazod, muxammas, musaddas, mustasne'
 - B. Mustasne', muashshar, tarje'band, ruboiy, mustazod

- C. Ruboiy, fard, soqiynoma, masnaviy, muxammas
D. Muashshar, tarje'band, qit'a, mustazod, ruboiy
13. Muslihabegim soqiynomalari necha misradan iborat?
A. 204
B. 104
C. 110
D. 206
14. Shoiraning hajman katta bo'lgan hikoyasi nomi qaysi qatorda to'g'ri berilgan?
A. "Darin olam se bibi pok budand"
B. "Bayon sozam zi ba'd az xatmi eshon"
C. "Nabiyi Hay tilab mard maoni"
D. "G'ornomayi rasul"
15. Miskin ijodida jami nechta muxammas uchraydi?
A. 6 ta
B. 5 ta
C. 4 ta
D. 3 ta

Adabiyotlar

1. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. To'rt tomlik. 1-tom. – Toshkent: "Fan", 1983. - 656 b.
2. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. To'rt tomlik. 2-tom. – Toshkent: "Fan", 1983. - 644 b.
3. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. To'rt tomlik. 3-tom. – Toshkent: "Fan", 1984. - 624 b.
4. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. To'rt tomlik. 4-tom. – Toshkent: "Fan", 1985. - 636 b.
5. Alisher Navoiy adabiy mahorati masalalari. Maqolalar to'plami. – Toshkent: "Fan", 1993. - 208 b.
6. Atoulloh Husayniy. Badoyi'u-s-sanoyi'. Toshkent, G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981.-400 b.
7. Asadov M. O'zbek mumtoz adabiyotida soqiynoma (genezisi, taraqqiyot bosqichlari, poetik xususiyatlari). Filologiya fanlari d-ri... diss.-Toshkent, 2020.

8. Boltaev H. Sharq mumtoz poetikasi –Toshkent. O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi,2008. –B.140.
- 9.Eshonqulov H.P. Alisher Navoiy g‘azaliyotida ishq poetikasining qiyosiy-tipologik tahlili («Xazoyin ul-maoniy» misolida). Filol. fanlari dokt. diss. – Samarqand, 2020;
10. Hayitmetov A. Navoiy lirikasi. – Toshkent: Fan, 1961. –B 67.
11. Nosiruddin Burhonuddin Rabg‘uziy. Qisasi Rabg‘uziy. 2-jild. – Toshkent: Yozuvchi, 1991. –B 192-197.
12. Qodirova M. XIXasr o‘zbek shoiralari ijodida inson va xalq taqdiri. – Toshkent: Fan,1977. –B. 168.
13. Safarov O., Safarova H. Muslihabegim Miskin hayoti va ijodi haqida. O‘zbek tili va adabiyoti, 2012, 3-son, –B 43-46. Safarov O. Buxoro adabiy harakatchiligi tarixidan lavhalar. –Buxoro. Durdona, 2015. – B.73.
14. Safarov O.Buxoro adabiy harakatchiligi tarixidan lavhalar. – Buxoro: Durdona,2015. –B.70.
- 15.San’athoi badehi dar she’ri to‘xiki. B.62.
- 16.Sarimsoqov B. O‘zbek adabiyotida saj’.– Toshkent:Fan, 1978.- 151 b.
17. Sayyid Mansur Olimiy. Buxoro – Turkiston beshigi. Fors tilidan tarjima, tarjimon nomidan so‘z boshi va ayrim izohlar muallifi H.To‘rayev. Buxoro, 2004.-B. 50-63.
18. Turar Usmon. Tasavvuf tarixi. –Toshkent. Istiqlol.1999. –B.180.
19. Vohidov R., Eshonqulov H.P. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. –Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti. 2006. -527 b.
20. Yusupova D. Adabiyot: –Toshkent. Akademnashr. 2015, –B.93.



VENN DIAGRAMMASI

muxammas

musaddas

Mustasne'

SHAMSIDDIN SHOHIN VA SIROJIDDIN HAKIM BUXORIY HAYOTI VA IJODIY MEROSI

Reja:

1. Shamsiddin Shohin hayoti va ijodiy merosi
2. Sirojiddin Hakim Buxoriy ijodiy merosi

Tayanch tushunchalar:

Mulla Amon, amir Abdulahadxon, Abduqodir Parvonachi, Muhammad Tohirxo'ja Zariri Jo'yboriy, "Layli va Majnun" dostoni, "Bo'ston", "Tuhfayi do'ston", pandnoma asar, "Badoye' us-sanoye'", "Yuz bir g'azal", g'azal, qasida, muxammas, musaddas, ruboiy, hajviy qasida, tarje'band, fard, axloq, tarix, adabiyot, riyoziyot, savdogar, sarrof, jadid, jurnalist, tabib, jarroh, hakim, sayohat, Abdurauf Mirzoxurd, Sadriddin Ayniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Sadr Ziyo, Ahmad Donish, "Buxoroyi sharif", "Samarqand" gazetalari, "Oyna" jurnali, "Tuhfayi ahli Buxoro", Mirzo Munir, Zubayda, doktor Mirxon, Yevropa, Rossiya, Turkiya, Eron, Hindiston, Afg'oniston, Hirot, Kobul va Mozori Sharif.

Shamsiddin Shohin hayoti va ijodiy merosi

Shamsiddin Shohin 1859-yilda Buxoroda tug'ilgan. Uning asl ismi Shamsiddin bo'lib, Shohin taxallusi bilan ijod etgan. Buxorodagi Shodibiy madrasasida tahsil olgan. Madrasa hozirgi kunda saqlanib qolmagan.

Muhammad Sharif Maxdum Sadr Ziyo, Mullo Narzulloh Lutfiy, Muztarib, Sadriddin Ayniy tomonidan Shohinning shoirlik mahorati va iste'dodi e'tirof etilgan. Shamsiddining otasi Mulla Amon asli ko'loblik bo'lib, o'qish maqsadida Samarqandga kelgan va bu yerda ikki yilcha madrasada tahsil olgan. So'ngra o'qishini Buxoro madrasalarida davom ettirgan. O'qishni tugatgan Mulla Amon Buxoro madrasalarida imomlik qilgan. Ma'rifatli inson bo'lgan Mulla Amon o'g'lining tarbiyasiga alohida e'tibor qaratgan. Unga yozish va o'qishdan o'zi saboq bera boshlagan, intizomi yaxshi bo'lishini istab, o'g'lini qizlar maktabiga o'qishga beradi. Bu

maktabda Shamsiddin g'ayrat bilan o'qiydi. Shamsiddin 11 yasharligida otasi vafot etadi. Otasi vafotidan keyin Shamsiddin qarovsiz qoladi. Buxoroning o'sha zamondagi mashhur shayxi va shoiri Muhammad Tohirxo'ja Zariri Jo'yboriy uni o'z homiyligiga oladi. Shamsiddin uning homiyligida Shodimbiy madrasasida mashhur mudarris va shoir Qozi Qurbonxon Fitrat Vardonzehiydan kalom, mantiq va she'r ilmini o'rganadi.

Shamsiddin Shohin 1885-yilda madrasani tugatib, mahalla masjidida imomlik qiladi. O'z davrida shoirlik bilan shuhrat qozonadi. Buxoro amiri Abdulahadxon uning dovrug'ini eshitib, shoirni saroyga taklif qiladi. Amir Shohinni saroy parvonachisiga mirzo etib tayinlaydi. Shohin savodli xattot edi, u xattotlik bilan ro'zg'or tebrata boshlaydi. Parvonachilar miriboshlig'i Abduqodir Parvonachi shoirning mehnatkashligi va halolligi uchun qizini unga nikohlab beradi. Ammo nikohiga o'n oy to'lar-to'lmas rafiqasi farzand ko'rish paytida vafot etadi. Bu ayriliq uning ahvoliga qattiq ta'sir qiladi. Bemavrid vafot etgan sevimli xotiniga bag'ishlab 1888-yilda "Layli va Majnun" dostonini (Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dehlaviy dostonlariga nazira) yozadi²⁶.

Shoirning bizgacha 12500 misra merosi yetib kelgan. U mumtoz adabiyotimizning bir necha janrlarida barakali ijod qilgan. Ular 164 g'azal, 58 qasida, 4 muxammas, 3 musaddas, 27 ruboiy, 5 hajviy qasida, 2 tarje'band, 1 farddan iborat. Bundan tashqari Sa'diy Sheroziyning "Bo'ston" asari ta'sirida yozilgan "Tuhfayi do'ston" ("Do'stlar tuhfasini") kabi pandnoma asari, shuningdek, "Badoye' us-sanoye' ("Badiiy san'atlar") kabi nasriy asari ham mavjud.

Shamsiddin Shohin asarlari shoir va tarjimon Samandar Vohidov tomonidan tarjima qilingan. Tarjimon 84 misradan iborat 6 ta g'azal, 60 misradan iborat 2 ta musaddas, 24 satrdan iborat 6 ta ruboiyni mahorat bilan o'zbek tiliga o'g'irgan.

²⁶ Safarov O. Buxoro adabiy harakatchiligi tarixidan lavhalar. -Buxoro.Durdona, 2015. 107-b.

Ma'lumki, shoirlarimiz ijodiy merosining asosini aksar hollarda ishq-muhabbat tarannumi tashkil etadi. Shohin nazmiyatida ham muhabbat mavzusi ustuvorlik qiladi. Haqiqatdan ham, muhabbat-muqaddas tuyg'u. Shoirning "Bo'ldi sendan ko'rganim yolg'iz jafo.." misralari bilan boshlanuvchi g'azali mazkur fikrlarni o'zida mujassam etadi:

Bo'ldi sendan ko'rganim yolg'iz jafo,
Ko'rmadim sendan vafo, aylab vafo.
Ul baloyi jon ko'zingda men uchun
Mehr emas, qahr-u g'azab bo'lganmi jo?

Lirik qahramon ma'shuqasiga vafo qilsa ham undan yolg'iz jafo ko'rganligini, mahbubaning jon oluvchi ko'zlarida oshiq uchun mehr emas, qahr-u g'azab jo bo'lganligini ta'kidlaydi.

Ko'zlaring mardumining mardumligin,
Ko'rmadim aslo, qilib ming iltijo.
Bu go'zallar bari dushmanmi ekan,
Ko'rmadim hargiz ulardan oshno.

Oshiq ma'shuqasini sog'inganida, eslaganida uning yuz-ko'zini, gap-so'zini, uchrashuvlarini qo'msaydi. Ammo bechora oshiq go'zal ko'zlariga tikilganda, uning ko'z qorachiqalaridan odamgarchilik izlaydi, afsusku, ming iltijo qilsa ham uni topolmaydi. Oshiqning fikricha, go'zallarning barchasi dushman, ular ichida bironta oshna ko'rmaganligini nadomat bilan ifoda etadi.

Ko'rsalar ham gar seni yuz bor ular,
Deydilarki, ko'rmadik... Bu ne balo?
Bu xudosiz kimsalardan, Shohin,
Bir muruvvat ko'rmadim, shohid - xudo

Go'zallar seni yuz marotaba ko'rsalar ham bu qanday baloki, ko'rmadik deb aytadilar, Shohin bu xudosiz kishilardan muruvvat ko'rmagani, bunga xudo ham shohid ekanligini afsus bilan yozadi.

Shamsiddin Shohin ishqiy g'azallarida ishq to'lg'oqlarini baland pardalarda ifodalarkan, kutilmagan tashbeh-u mubolag'alar yaratadi. Uning poetik talqinida sevgi hijroni shu qadar alamliki, lirik qahramon

ko 'zlaridan bulut yig'lamoq darsini o'qiydi. Go'zalning husni yodi bilan uyquga ketib qolsa bormi, subhidamda o'shal ko'zlardan oftob yog'du olishi tayin:

Gar ko'zimdin yig'lamoq darsini o'rgansa bulut,
Ashk muhitiga falakni ko'ndirar misli hubob,
Husnining yodi bilan uyquga ketsam tunlari,
Subhidam yog'du olar ko'zlarimdan oftob.

Uning aksar g'azallari goyat sodda va xalqona, ayrimlari esa Hofiz yoki Bedilga ergashgan uslublarda yozilgan, ular ohorli tasviriy vositalarga boy, poetik mazmuni teran, falsafiy-axloqiy mushohadalarga to'yintirilgan. Bu hol ularning ta'sirchanligini kuchaytirgan²⁷.

Shamsiddin Shohin g'azallari "Yuz bir g'azal" nomi ostida 2009-yil Tojikistonning Dushanbe shahridagi "Irfon" nashriyotida B.Rahimiy muharrirligi ostida chop etilgan. Ushbu kitob 104 sahifadan iborat bo'lib, unda shoirning bir yuz bitta g'azallari keltirilgan.

"Yuz bir g'azal" kitobidagi g'azallar miqdorini quyidagicha tasniflash mumkin:

Nº	G'azallar (baytlar miqdoriga ko'ra)	G'azallar soni
1	5 baytli	21 ta
2	6 baytli	15 ta
3	7 baytli	29 ta
4	8 baytli	7 ta
5	9 baytli	12 ta
6	10 baytli	7 ta
7	11 baytli	10 ta
	jami	101 ta

Shamsiddin Shohin ijodida yetti, besh, olti baytlar g'azallar salmoqli o'rinni tashkil etadi.

²⁷ Safarov O. Buxoro adabiy harakatchiligi tarixidan lavhalar. -Buxoro.Durdona, 2015. 110-b.

Qurboni tu jonam, ki maro az tu judo kard?
Bore, zi kafam domani vasli tu raho kard.
La'li tu tabi bast, dili g'amzada bemor,
Ey kosh, bar in gamzada la'li tu davo kard.
Yak lahza nabud az dili man zulfi tu forig',
Aknun shudamash sayd, faromo'sh charo kard?
Javre, ki zi andozi nigohi tu qazo mond,
Yak-yak ba man abro'yi siyohi tu qazo kard.
Ey chashmu charog' hama, doni,ki ba jonam
Chashmoni siyohi tu ba har g'amza chiho kard?
Shohin, guli maqsud machined az in bog',
Z-on dilbari gulchehra maro har ki judo kard!²⁸

Mazmuni: Senga jonim qurbon bo'lsin, seni mendan kim ayirdi? Sening vasling mening kaftimda edi. Shu ham mening qo'limdan ketdi. Sening labing tabib, g'amgin yuragim esa bemor. Koshki labing bu dardmand yurakka davo bo'lsaydi. Mening qalbidan bir soniya bo'lsa ham zulfing xayoli ketmasdi. Sening zulflaringga men o'lja bo'ldim, ular meni nega parishon qildi? Sening nigohing tufayli qiyinchiliklardan bebahra qoldim, endi qora qoshlaringdan ham birma-bir ayrildim. Hammaning ko'zi menda, lekin sening qora ko'zlaring har xil karashmalar bilan nimalar qilmadi? Shohin, bu bog'dan maqsud gullarimizni termaylik, chunki bu gul yuzli dilbardan meni ayirdilar.

Shamsiddin Shohin ruboiy janrida ham samarali faoliyat yuritgan. Shoir ruboiylari Ergash Ochilov tomonidan tarjima qilingan. Shohin ruboiylarida ham ishq-muhabbat tarannum etilgan:

To oyoq yurgay, yurarman sen tomon,
To ko'zim ko'rgay, qararman sen tomon.
Qay kuni tolsa oyoq birla ko'zim,
O'ltirarman bergali yo'lingda jon.

Ruboiy mazmuni quyidagicha izohlash mumkin: oyog'im yurgunicha sen tomon yuraman, ko'zlarim ko'rgunicha sen tomon

²⁸ Шамсиддин Шохин. Саду як ғазал. -Душанбе. Ирфон, 2009. С.27.

qarayman, qaysi kuni oyog'im va ko'zim tolsa, ya'ni charchasa, sening yo'linga jon berishga ham tayyorman.

Shohin g'azal va ruboiylari haqida fikr yuritar ekanmiz, ular goyat sodda va xalqona, o'ziga xos uslubda yozilganligining guvohi bo'lamiz.

Shoirning "Layli va Majnun" dostoni Xusrav Dehlaviy va Nizomiy Ganjaviylarning shu nomli dostonlariga nazira sifatida yozilgan bo'lsa-da, doston syujetida o'ziga xosliklar ham mavjud bo'lib, ijodkor unda o'z davri voqealarini ham atroflicha yoritgan.

Xulosa qilib aytganda, Shamsiddin Shohin asarlari, she'riyati poetikasini atroflicha o'rganish va tadqiq etish bugunning dolzarb masalalaridan biri sanaladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Shohinning asl ismi nima?
2. Sirojiddin Shohin qachon tug'ilgan?
3. Kimlar tomonidan Shohin iste'dodi e'tirof etilgan?
4. Sirojiddin Shohin qaysi madrasalarda tahsil olgan?
5. Shohin merosining umumiy hajmi?
6. "Tuhfayi do'ston" asari kimning asari ta'sirida yozilgan?
7. Ijodkorning bizgacha nechta qasidasi yetib kelgan?
8. Shoir g'azallarining asosiy mavzusi nima?
9. Sirojiddin Shohinning badiiy san'atlarga oid asari qaysi?
10. Shoir ruboiylarida qanday g'oya ilgari surilgan?

Mavzuga oid testlar:

1. Shamsiddin Shohinning otasi qayerlik bo'lgan?
 - A. Farg'onalik
 - B. Ko'loblik
 - C. Buxorolik
 - D. Samarqandlik
2. Shamsiddin Shohinga homiylik qilgan shayxning nomi qaysi javobda to'g'ri keltirilgan?

A. Tohirxo'ja Zariri Jo'yboriy

B. Mullo Abdulvohid

C. Shayx Nizomiddin

D. Qurbonxon Fitrat

3. Shoir merosining umumiy hajmi qaysi qatorda to'g'ri berilgan?

A. 2500 misra

B. 12500 misra

C. 1500 misra

7. 3000 misra

4. Sirojiddin Shohin kimdan kalom, mantiq va she'r ilmini o'rganadi?

A. Qozi Qurbonxon Fitrat Vardonzehiydan

B. Tohirxo'ja Zariri Jo'yboriydan

C. Shayx Nizomiddindan

D. Zurar ibn Amindan

5. Shohinning Sa'diy Sheroziyning "Bo'ston" asari ta'sirida yozilgan asari qaysi qatorda to'g'ri berilgan?

A. "Tuhfayi do'ston"

B. "Badoye' us-sanoye'

C. "Tuhafi ahli Buxoro"

6. Qaysi Buxoro amiri Shohinning dovrug'ini eshitib, uni saroyga taklif qiladi?

A. Amir Abdulahadxon

B. Amir Abulfayzxon

C. Amir Muzaffarxon

D. Amir Haydar

7. Shohin mumtoz adabiyotning qaysi janrlarida samarali ijod etgan?

A. G'azal, muxammas, musaddas, fard

B. Musamman, masnaviy, muashshar

C. Muxammas, musaddas, soqiyoma

D. Musaddas, she'riy hikoyat, tarkibband

8. Shoir g'azallarini kim o'zbek tiliga tarjima qilgan?

A. Ergash Ochil, To'xtasin Jalolov

B. Samandar Vohidov, Ergash Ochil

C. Muinzoda, Samandar Vohidov

D. Sadr Ziyo, Sadriddin Ayniy

9. Shamsiddin Shohin ijodini o'rganishni kim boshlab bergan?

A. Abdurauf Fitrat

B. Ahmad Donish

C. Samandar Vohidov

D. Sadriddin Ayniy

10. "Tuhfayi do'ston" asari kimning manzumasi ta'sirida yozilgan?

A. Abdurahmon Jomiy

B. Abdurahmon Tamkin

C. Sa'diy Sheroziy

D. Abdulqodir Bedil

Adabiyotlar:

1. Abu Homid G'azzoliy. Kimiyoyi saodat. Ruh haqiqati. – Toshkent. Adolat. 2005. –74 b.
2. Abu Homid G'azzoliy. Mukoshafat ul qulub I. –Toshkent. Yangi asr avlodi. 2004.
3. Aristotel. Poetika.Toshkent: G'G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1980.
4. Komilov N. Ma'nolar olamiga safar. Toshkent. TAMADDUN. 2002.
5. Komilov N. Faqr nuri porlagan qalb. – Toshkent. Ma'naviyat. 2001. – 96 b.
6. Literatura vostoka v sredniye veka. Chast II. Izdatelstvo Moskovskogo universiteta, 1970, str.
7. Orzibekov R. O'zbek lirik poeziyasida g'azal va musammat. –Toshkent. Fan. 1976. 6-22-betlar.
8. Osman Turer. Ana hatlariyla tasavvuf tarihi. –Istanbul.Seha. Sah. 70-74
9. Safarov O. Buxoro adabiy harakatchiligi tarixidan lavhalar. – Buxoro. Durdona. 2015. 107-b.
10. Шамсиддин Шоҳин. Саду як ғазал. –Душанбе. Ирфон. 2009. С.27.

5-ilova

Shamsiddin Shohin asarlari asosida konseptual jadval

Asar nomi	Asar mavzusi	Asarda ilgari surilgan g'oya	Asarning o'ziga xos xususiyatlari
“Tuhfayi do‘ston”			
“Layli va “Majnun”			
“Badoye' us-sanoye'”			

6-ilova

“Anogramma” usuliga ko'ra Shamsiddin Shohin ijodiga mansub bo'lmagan janrni safdan chiqaring

g'azal

qasida

tarji'band

muxammas

lug'z

Mirzo Sirojiddin Hakim hayoti va ijodiy merosi

Ma'lumki, adabiy-badiiy tafakkurimiz taraqqiyoti tarixida mohiyati va mazmuniga ko'ra tamoman yangi bo'lgan XIX asrning oxiri – XX asr boshi adabiyotining o'rni nihoyatda muhim. Chunki bu davrni milliy uyg'onish davri deb atalishi bejiz emas, albatta. Bu davrda yaratilgan adabiyot yangi adabiyotdir. Uning yetakchi yo'nalishini milliy istiqlol g'oyasining shakllanishi va badiiy ifodasi tashkil qiladi.



Ma'lumki, XX asr boshlarida O'rta Osiyo yerlarida, jumladan, Buxoroda ham jadidchilik harakati avj oldi. Uning asosiy maqsadi maktab va ta'limni isloh qilish, yangi matbuot va adabiyotlarni tarqatish, madaniyatni shakllantirish hamda xalqni uyg'otishdan iborat edi. Jadidchilik harakatining yorqin namoyandalari bo'lgan Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Ubaydulla Xo'jayev, Abdurauf Fitrat, Ishoqxon Ibrat, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Hoji Muin kabi ko'plab jadidlar mamlakatda jaholatga qarshi ma'rifat va ta'lim-tarbiyani rivojlantirish orqali kurashish, mustamlaka bo'lgan Turkistonni mustaqil taraqqiy etgan mamlakatlar safida ko'rish yo'lida hatto o'z jonlarini ham fido etganlar.

Afsuski, aksariyat ma'rifatparvar va millatparvarlarning hayoti va faoliyati, ilmiy merosi, falsafiy qarashlari yetarli darajada o'rganilmagan.

Ana shunday ijodkorlar sirasiga buxorolik shoir Mirzo Sirojiddinni ham kiritish mumkin. Murakkab bir davrda ma'rifatni targ'ib qilib chiqqan, ta'lim tizimini isloh etish, xalq ma'naviyatini yuksaltirish yo'lida qizg'in sa'y-harakat va amaliy ishlar qilgan ma'rifatparvar shaxslardan biri sanaladi. Garchi uning hayoti va

faoliyatiga oid ayrim ma'lumotlar shu kungacha tadqiqotchilar tomonidan tarqoq holda bayon etilgan bo'lsa-da, lekin uning ma'rifatparvarlik g'oyasi bilan sug'orilgan tarixiy-ommabop, adabiy merosi batafsil o'rganilmagan.

"Yosh Buxoroliklar" harakati a'zosi, atoqli savdogar, sayyoh va shifokor Mirzo Sirojiddin Hakim 1877-yil 23-oktabrda Buxoroning Ismoilxo'ja otaliq mahallasida (hozirgi Mehtar Anbar ko'chasi) sarrof va savdogar oilasida tug'ilgan. Otasi hoji Abdurauf Mirzoxurd juda boy va Buxoroda taniqli shaxslardan edi. Abdurauf yolg'iz o'g'lining ta'lim olishiga juda katta e'tibor qaratgan. Hoji Abdurauf Sirojiddin 10 yoshga to'lganida unga axloq, tarix, adabiyot, riyoziyot va arab tilini o'rganishi uchun shaxsiy muallim tayinlaydi. O'n ikki yoshli o'g'li Mirzo Sirojiddinga savdo ishini o'rgatadi. 1890-1891-yillarda Yangi Buxoro shahrida ochilgan rus-tuzem maktabida tahsilini davom ettiradi. Bu maktabda geografiya, ingliz tili va hisobchilik ishini o'rganadi. 1891-yilda Hoji Abdurauf Mirzoxurd Parijda o'qib kelgan o'zbek o'qituvchisini o'g'liga fransuz tilini o'rgatishi uchun yollaydi. Sirojiddin olti oy davomida fransuz tilini qunt bilan o'rganadi.

Sirojiddin maktab va madrasa ilmlarini o'rgangach, ustozlari qo'lida axloq, tarix, adabiyot, arifmetika, geografiya, matematika, fors, turk, arab, rus, fransuz tillarini mukammal o'zlashtiradi. Ayniqsa, uning she'riyatga ixlosi baland edi. U asosan fors-tojik tilida ijod qildi. Sirojiddinning she'rlari Buxoro adabiy doirasi tomonidan yaxshi kutib olindi. Madrasa tahsilidan so'ng otasining kichik bir sarroflik do'konida mustaqil paxta savdosi bilan shug'ullandi. U Marg'ilon, Andijon, Toshkent, Jizzax, Chimkent, Jambul kabi shaharlarga ko'p sayohat qiladi, mahalliy turmush tarzi bilan tanishadi.

Mirzo Sirojiddin Sadriddin Ayniy va Munzim tavsiyasi bilan Sadri Ziyo xonadonida o'z davrining mashhur kitobi – Ahmad Donishning "Navodir-ul-vaqoye" asari bilan tanishadi. Shuningdek, Qori Rahmatullohi Vozehning "Savoneh-ul-masolik va farosix-ul-mamolik" ("Yo'llarning qulayliklari va mamlkatlarning masofalari") asarini o'qish va turli xil savdogar va sayohatchilardan Rossiya

imperiya, Usmonlilar davlati, Eron, Hindiston, Afg'oniston va Yevropa mamlakatlari haqida ko'p ma'lumotlarni eshitishi yosh Sirojiddin qalbida sayohat orzusini uyg'otadi. U 1902-1909-yillarda Yevropaning ko'plab mamlakatlarida, jumladan, Avstriya, Bolgariya, Vengriya, Serbiya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Germaniya, Rossiya, Polsha va Eron kabi Sharq mamlakatlarida savdo qilgan. Afg'oniston, Turkiya, Arabiston, Hindiston va boshqa davrlarga sayohat qilgan. Mirzo Siroj 1902-yil 5-iyunda Buxoroda uchrashgan Avstriya shahzodasining taklifini bajarish bahonasida Yevropaga olti oylik safarga o'tlanadi. Turkman cho'li orqali Krasnovodskka, u yerdan Kaspiy dengizi bo'ylab Bokuga, u yerdan Tiflis va Batumiga boradi. Qora dengiz orqali Turkiyaga kelib, Samsun va Istanbul shaharlarini aylanib chiqadi. U yerdan Sofiya, Budapesht, Vena, Berlin, Parij, London, Bern, Marseille, Milan, Varshava, Moskvaga boradi va Ryazandan temir yo'l orqali Buxoroga qaytadi. Mirzo Sirojiddinning ikkinchi safari 1903-yilning mart oyida boshlanadi. U Eronning bir qator shaharlari, jumladan Mashhad, Nishopur, Sabzavorga sayohat qiladi. Safari davomida u Sabzavor shahrida sakkiz oy qoladi. Keyinchalik Hirot, Kobul va Mozori Sharifga ham boradi.

1905-yil iyul oyidan 1909-yil oxirigacha Mirzo Sirojiddinning uchinchi safari boshlanadi. U Eron, Afg'oniston va Hindistonning qator shaharlarida bo'ladi. 1905-1911-yillarda Erondagi inqilobning bevosita guvohi bo'lgan. 1903-yilda Erondagi mashhur Tehron tibbiyot kollejiga o'qishga kiradi. O'qishni tugatib, kollejdagi o'qituvchilik qiladi. Mozandaron kasalxonalarining birida shifokorlik faoliyatini olib boradi. Eronda "Doktor Mirxon" nomi bilan mashhur bo'ladi. Sirojiddinning dovrug'ini eshitgan Afg'oniston amiri Habibullaxon uni ishga taklif etadi, u yerda "Doktor Sobir" nomi bilan shuhrat qozonadi.

Mirzo Sirojiddin uzoq vaqt Eron safarida bo'lgan paytda otasining talabi bilan Buxoroga qaytayotganida, Afg'oniston chegarasida josuslikda ayblanib, qo'lga olinadi. U o'zining josus emasligini isbotlagach, ozod etiladi. Afg'onostondan chiqib, Rossiya

orqali o'z yurtiga qaytayotgan paytda Sirojiddin yana afg'on chegara harbiylari tomonidan asir olinib, jinoyati o'ta og'ir mahbuslar ro'yxatiga kiritiladi hamda uch oy davomida qamoqda saqlanadi. Otasi ko'magida mahbuslikdan ozod etiladi. Unga yetkazilgan ma'naviy va moddiy zarar qoplab beriladi.

Sirojiddin 1909-yil dekabr oyida Buxoroga qaytib keladi hamda u yerda yevropacha kasalxona ochib, odamlarni yangicha davolashga kirishadi. Mirzo Sirojiddin turli mamlakatlarga sayohatlar qilish, rivojlangan davlatlarning taraqqiyotini ko'rish, matbuoti bilan tanishish, boshqa xalqlar maorifchilarining asarlarini o'qish bilan birga, qalbida o'z yurtini tanazzuldan qutqarish va xalqni ma'rifatli qilish orzusini amalga oshirmoqchi bo'ladi²⁹. U Buxoroga qaytgach uylanadi. Mirzo Hakimning Mirzo Munir va Zubayda ismli farzandlari bo'lgan.

1913-yilda Mirzo Sirojiddin Hakimning to'rtinchi safari boshlanadi, ammo yo'lda uning kasalligi kuchayib, 1913-yil 21-dekabrda Eronning Rasht shahridan Buxoroga qaytib keladi. 1914-yil 17-yanvarda taraqqiyparvarlik harakatining yetakchisi va homiysi bo'lgan Mirzo Sirojiddin 37 yoshida Buxoro shahrida sil kasalligi tufayli vafot etadi. Ma'rifatparvar Mahmudxo'ja Behbudiy Mirzo Sirojiddin o'limidan so'ng "Oyina" jurnalida "Ziyo'yi alim" ("Achchiq yo'qotish") degan maqolani chop ettirib, ta'ziya bildiradi. Shuningdek, Mirzo Sirojiddin vafoti munosabati bilan "Oyna" jurnalining 14-sonida Sadriddin Ayniyning ham qayg'uli marsiyasi chop etiladi:

Oh sad, ki barbast abadiy rohi safar,
Az Buxoro ro'yi firdavs, yake az donishgar.
Xodimi millati islom-Sirojiy donish,
Nashri ilm, vatanhoh, maorifparvar.

Mazmuni: Yuz oh, donishmandlardan biri mangu safar yo'lini tanlab, Buxorodan firdavs- behisht sari yo'l oldi. Millati islomning xodimi, donishmand Sirojiy ilmning noshiri, vatanparvar va ma'rifatparvar edi.

²⁹ https://uz.wikipedia.org/wiki/Siroj_Hakim

Sirojiddin Hakim tabiblik qilish bilan birga, jamiyatdagi muammolarni bartaraf etish, sog'liqni saqlashga oid takliflari aks etgan maqolalar ham yozgan. Maqolalari "Samarqand", "Buxoroyi sharif" kabi gazetalar hamda "Oyina" jurnalida chop etilgan. Maqolalarida ma'rifatparvarlik g'oyalarini tarannum etadi. Xalqimizning bilimli, ma'rifatli bo'lishini istaydi. Ayniqsa, yoshlarimizni ilmi bo'lishga da'vat etadi, bola tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilishi lozimligini uqtiradi. Uning "Bir oz faoliyat lozim" maqolasida quyidagi fikrlar keltirilgan: Ba'zida ko'zimizni ochib, o'tgan zamonlarga nazar tashlasak, biz ilm va oliy fanlardan ilg'or millat edik va bir necha millatlarning harakatga kelishiga hissa qo'shganmiz...Bas, hozirgacha bizga nima bo'libdiki, nima mone'lik qilmoqdaki, bizning ko'zlarimiz hozirgi ilm-fanni ko'rish u yoqda tursin, avvalgi ilm-fandan ham yopiq qolmoqda". Maqolada Buxoroda sanoat korxonalari, tijoratxonalar, shirkatlar ochish, tibbiyot ilmini rivojlantirish va sog'likni saqlashga ham alohida e'tibor qaratish lozimligi ta'kidlangan. Sirojiddin Hakim ilmni tana ilmi va din ilmi tarzida ikkiga ajratadi. Mijoz salomatligi– tana ilmi sanalsa, ilmi sharif, ya'ni Tafsir, hadis ilmini din ilmi sifatida tavsiflaydi.

Sirojiddin Hakim uzoq yillik safari mobaynida ko'rgan-kechirganlari va xotiralarini "Tuhafi ahli Buxoro" ("Buxoro ahlining tuhfalari") nomli asarida yozib qoldirgan. Asarning qo'lyozma nusxasi 1910-yilda yozib tugatilgan bo'ib, 1912-yilda esa Kogon bosmaxonasida toshbosma nusxasi nashr etilgan. Asarning qo'lyozma nusxasi fors tilida yevropa qog'ozida yozilgan, jami 193 sahifadan iborat. O'lchami 13x20, hajmda bo'lib, asar kirish va xotima qismi bilan to'liq holatda saqlangan.

Adabiyotshunos Ilyos Nizomiddinov "Mirza Sirojiddin" risolasida uning adabiy merosi haqida to'xtalib, shunday ma'lumotni keltiradi: "Marhum sharqshunos" N.Odilov bergan ma'lumotga qaraganda, O'zRFASHI fondida 184-inventar raqami bilan saqlanayotgan devon muallifning avtografi hisoblanadi. Chunki devon bir qancha bo'limlarga – qasida, muxammas, ruboiy va boshqa janrlarga ajratilgan bo'lib, har bir janrga kirgan she'rlar

tamom bo'lgach, bir qancha yozilmagan oq sahifalar tashlab ketilgan. Fikrimizcha, bu bo'sh sahifalarni avtor yangi g'azal yoki qasidalar bilan to'ldirish umidida qoldirgan. Nusxaning avtografliqini tasdiqlovchi ikkinchi mulohaza shundan iboratki, qo'lyozmaning so'nggi sahifalarida "Ajholo safar" sarlavhasi ostida avtor qaysi shaharga qachon va qancha muddatga safar qilganligi haqida qisqacha ma'lumot yozib qo'ygan. Asarning eng so'nggi varag'ida bir necha baytlar shoshilinch ravishda yozilgan bo'lib, bular orasida "Zikri Mirzo Sirojiddin Sirojiy" so'zlari ham qayd etilgan. Ushbu avtografda o'ttizdan ortiq qasida, 18 ruboiy va qit'alar, bir qancha ishqiy g'azallar, tatabbu', muxammas va masnaviylar bor. Asar hijriy 1318-1320-(1902-1903) yillar mobaynida yozilgan³⁰. Ma'lumotlardan bilish mumkinki, yuqorida nomi tilga olingan "Ajholo safar" asari bu Mirzo Sirojiddinning "Tuhafi ahli Buxoro" asaridir. Ushbu asarni mukammal o'rganib, ilm ahli hamda keng kitobxonlar ommasiga havola etish tadqiqotchilarimizning galdagi vazifasi sanaladi, albatta.

Uning "Tuhafi ahli Buxoro" asarida Sharq mamlakatlaridagi maorif tizimi bizdan ancha ilgarilab ketganligi ta'kidlanadi: "Boshlang'ich, jadid maktablari juda ko'p, dorulmuallimin, dorulfunun, siyosiy, harbiy va tibbiyot madrasalari Farangiston tartibidadir. Muallimlari ovro'polik yo o'sha yerlarda ta'lim olib kelgan shaxslardir. Farang ilmlariga oid kitoblarni fors tiliga tarjima qilganlar. Fransuz va boshqa tillardan dars beradilar. Diniy ilmlarni diniy madarasalarda o'rganadilar. Ijtihod darajasiga yetganlar. Milliy va pulli madrasalar, xotin-qizlar madrasalari ochganlar. Rus, olmon, ingliz madrasalari ham bor. Farangiston tipidagi kasalxonalar, tashreixonalar (diagnostika bo'limlar) ochganlar. Tehronda sog'liqni saqlash sohasida anjumanlar bo'lib turadi. Komil tabiblar, ilmi va tajribali jarrohlar, diplomli do'xturlar ko'pdur"³¹, - deb ta'riflaydi. Albatta, Sirojiddin Hakim ta'lim sohasidagi bunday yangiliklarni, taraqqiyotni o'z yurtida ham

³⁰ Safarov O. Buxoro adabiy harakatchiligi tarixidan lavhalar. -Buxoro. Durdona, 2015. 113-b.

³¹ <https://jadid.uz/jadids/mirzo-sirojiddin-hakim-buxoriy/>

bo'lishini chin dildan orzu qiladi. Uning fikricha, dunyoning hamma ishlari uchun ilm kerak. Kasb egallamoqchi bo'lgan kishi, avvalo, o'sha mansab yo kasb ilmini o'rganib, imtihon topshirib, so'ng ishni boshlashi lozim. Hech bir shaxs ilmsiz muftiy, qozi, hokim, lashkarboshi yo shoh bo'lishi mumkin emas. Ilm olgandan so'ng bilim darajasi va malakasiga qarab, soha bo'yicha uni pog'onama-pog'ona ko'tarishi kerak.

“Tuhafi ahli Buxoro” asarida Mirzo Sirojiddin Sabzavor shahri haqida shunday deydi: “Sabzavor Xurosonning qudratli va obod shaharlaridan biridir. Shahar havosi juda yoqimli. Xurosonning boshqa shaharlariga nisbatan toza va ozoda. Sabzavorda bug'doy, arpa, paxta ko'p. Paxta va jun savdosi ham yuqori. Ko'plab mahalliy va xorijiy korxonalar mavjud. Sabzavordagi savdogarlarning aksariyati g'arbliklar. Tabrizda ham yirik bizneslari bor. Ular g'alla, yog' va shakar, choy va boshqalarni sotadilar, paxta va jun sotib oladilar. Sabzavor paxtasi Xurosonning boshqa shaharlaridan afzaldir”. Eronning boshqa bir shahri Mashhadda Mirzo Sirojiddin tadbirkorlik bilan shug'ullanishini aytadi: “Mashhadda ko proq sayr qildim, oxiri zerikib ham ketdim va bir ish bilan shug'ullanishim kerakligini angladim. O'zimdagi pul, Qo'qondagi tijorat mollari va Xitoy bankining biletlari va boshqalarini keltirib, bu yerda arzon bo'lgan paxta va terilarni sotib oldim. Olgan narsalarimni Sabzavor, Nishopur va boshqa hududdan kelgan tijoratchilarga berdim, shu bahona Nishopurga ham borib sayr qildim”³².

“Tuhafi ahli Buxoro” asarida Farg'ona viloyati poytaxti Xo'qand ta'rifi quyidagicha keltirilgan: “Хўқанд пойтахти мамлакати Фарғона мебошад. Дар як қарни қабл дар дасти ҳукумати исломӣ буда, волии охирини он Худоёрхон ном баъд аз тасарруфи рус фирор намуда, баъд ба дасти рус афтода, чанде дар Ўрунбурғ (Оренбург) назарбанд буда ва аз он чо фироран ба Байтуллоҳ (Макка) рафтаб гӯё дар охир ба Ҳиндустон ба марази молихулиё фавт шуда ва ҳолия тамоми Фарғона дар тасарруфи давлати кавишавкати рус аст ва яке аз некӯтарин қитаоти Осиёст. Ва мамлакати бисъёр ободи

³² https://uz.wikipedia.org/wiki/Siroj_Hakim

хушобу ҳавостю Тиҷорат ва фалоҳати он рӯз ба рӯз дар тараққӣ аст. Дар паҳлӯи Хӯқанд рус шаҳри тоза ба таври дилхоҳи худашон, мутобиқи нақшаи плони ҷадид анд, ки садчанд аз шаҳри аввалӣ беҳтар аст ва муртар. Тиҷорати абрешиму пиллаву панба аз ҳадди васф хориҷ аст. Ҳарсола чандин сад ҳазор пут пиллаву абрешим ба амал меояд....”

Tarjimasi: Farg’ona mamlakatining poytaxti Qo’qondir. Bir asr oldin islomiy hukumat qo’lida edi, xon Xudoyorxon ruslar istilosidan keyin valiahdlikdan ketdi. Shundan so’ng ruslar qo’liga tushib, bir qancha vaqt Orenburgda bo’lib, bu yerdan Baytulloh (Makka)ga ketdi, oxirida Hindistonda ruhiy kasallikka chalinib, vafot etdi. Ayni paytda Farg’ona ruslar tasarrufida edi va bu shahar Osiyo qit’asining buyuk shaharlaridan, chiroyli va havosi toza. Kundan kunga bu yerda tijorat va dehqonchilik taraqqiy topib bermoqda. Ruslar Qo’qon shahrida o’zlariga moslab, jadidlar rejasiga mos reja tuzdilar. Ular juda katta mablag’ ajratib, shaharni obodonlashtirdilar, avvalgi holatidan yuz karra yaxshiroq holatga keltirdilar. Paxtachilik, pillachilik va ipakchilik tijorati juda rivojlandi. Har yili yuz ming miqdorda paxta va yuz ming pud pilla, ipak vujudga keladi va bu miqdor har yili oshib boradi...”.

Sirojiddin Hakim “Buxoroyi Sharif” nashri orqali jadidlar Mahmudxo’ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulqodir Muhyiddinov bilan yaqindan tanishadi.

Sadriddin Ayniyniing “Namunahoyi adabiyoti tojik” antologiyasida Sirojiddin Hakimning “Obro’ doshtem” (“O’bro’yimiz bor”) va “Niqob girift” (“Niqobini oldi”) kabi nazm namunalari keltirilgan. Masnaviy usulida yozilgan “Yod bod” (“Yodda bo’lsin”) she’ri 1913-yilda “Oyna” jurnalining 2-sonida chop etilgan. Shu bilan birga, Sirojiddin Hakimning she’r va maqolalari Eronning “Navbahor” va “Tus”, Turkistonning “Samarqand” gazetasi, “Oyina” jurnalida ham nashr qilingan.

Yod bod, ey dil, ki mo ham obro’ye doshtem.

Dar gulistoni tamaddun rang-u bo’ye doshtem.

Sol-u moh-u sa'd-u ayyomi nako'ye doshtem,
Dar taraqqiy jidd-u justujo'ye doshtem.

Mazmuni: Ey ko'ngil, bilgilki, bizning ham obro'yimiz bor edi. Tamaddun gulistonida o'z rang-u ro'yimiz bor edi. Yil-u oylar, fasllarga xos amallarimiz bor edi, bor kuch-quvvatimiz bilan taraqqiyot yo'lida izlanardik.

Barchaga ma'lumki, jadidlarimiz o'z yurtlarini taraqqiy qilgan mamlakatlar qatoriga kirishini, yoshlarimizning esa bilimli, zukko, dono va ma'rifatli bo'lishini orzu qilishgan. Yuqorida keltirilgan she'riy iqtibos ham fikrimizga dalil bo'la oladi.

XX asr boshidagi jadid adabiyotining bosh mavzusi bu – millat. Shu bilan birga, millatning tarixi va taqdiri masalasidir. Adabiyot esa millatning o'lmas ruhi, hayoti oynasi sanaladi. U ajdodlar turmush tarzi, odob-axloqi, falsafasi, yaxshi-yomon tomonlarini kelajak avlodga yetkazadi, o'sib kelayotgan yosh avlodni millatning qadimgi an'analari ruhida tarbiyalab, asrlar silsilasini bir-biriga ulab boradi.

Mahmudxo'ja Behbudiyan Fitrat-u Cho'lpongacha, Avloniy-u Qodiriydan Sirojiddin Hakim Buxoriygacha, hamma-hammalarining asosiy maqsadlari mamlakatda maktab va ta'limini isloh qilish, yangi matbuot va adabiyotlarni tarqatish, siyosiy va madaniy madaniyatni shakllantirishdan va asosiysi, xalqni uyg'otishdan iborat edi.

Mustaqil o'qish uchun Sirojiddin Hakim Buxoroy ijodidan namunalar:

Masnaviy

Taolo sha'nuh-u hayyun tavono,
Nigahdori zamin-u osmonho.

Zi qudrat ofarid inson-u hayvon,
Ki boshad bar xudovandash burhon.

Ba har yak muxtalif ashkol-u alvon
Ato farmud on ma'budi subhon.

Xudovandish bar olam ayon ast.
Rahim-u roziq-u ro'zirason ast.

Ruboiy

Obodii butxona zi vayronii most,
Jamiiyati kufr az pareshonii most.
Islom ba zoti xud nadorad aybe,
Har ayb, ki hast dar musulmonii most.

Qit'a

Hazor guna hunar doram-u vale chi kunam,
Ki az jafoye zamona hamesha dar taa'bam.

Zi xonumon-u zi mulk-u diyor ovora,
Mudom zeri fishor hamchu donai inabam.

A on dame, ki ba maktab padar nihod maro,
Ki to shinixtam az dasti rost dasti chapam.

Siyohro'z, siyahkosa, baxtbargashra,
Firorii vatan zahr kom-u talxlabam.

Siroj, az g'ami getiy tanam shudast chu nol,
Siyoh-u tira shuda ro'zi Ravshan hamchu shabam.

Lug'at

aftod – notavon, nochor, abgor
ashkol – shakl
baxtbargashra – baxtsiz, omadsiz, badbaxt,

farmud – amr, farmoyish
jidd-u justujo‘ye
moh – oy, yog‘du, ravshan
muxtalif – qarshi chiquvchi, qarshi.
ofarid – yasamoq
ro‘zirason – shu kunlarga yetkazish
siyohro‘z –qora kun
sangindil – toshbag‘ir, berahm
sana‘tgar – san‘atkor
tamaddun – poydevor, madaniyat
tamsil – namuna olish, misol qilib keltirish
tira – qora

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Mirzo Sirojiddin Hakim qachon va qayerda tug‘ilgan?
2. Mirzo Sirojiddin yoshligida kimlarning ijodi bilan yaqindan tanishgan?
3. Mirzo Sirojiddin nechanchi yillardan uzoq safarlarga chiqa boshlaydi?
4. “Tuhafi ahli Buxoro” nomli asari nechanchi yilda yozilgan?
5. Hakim Buxoriy qaysi davlatlarga sayohat qilgan?
6. Sirojiddin Hakim Buxoriy qaysi janrlarda samarali ijod etgan?
7. 1912-yilda buxorolik ma‘rifatparvar Mirzo Muhiddin bilan birga Yangi Buxoroda fors tilida chop etilgan qaysi gazetaning asosiy tashkilotchisi va homiylaridan biri bo‘lgan?
8. Mirzo Sirojiddin “Buxoroi Sharif”ning ilk sonlaridan boshlab qaysi taxallus bilan maqolalar e‘lon qilgan?
9. Mirzo Sirojiddinning masnaviy usulida yozilgan qaysi she‘ri “Oyina” jurnalida chop etildi?
10. Mirzo Sirojiddinning “Buxoroda tahsil” maqolasi mazmuni haqida gapiring.
11. Yosh ma‘rifatparvarning bevaqt o‘limidan qattiq ta’sirlanib, kimlar maqola e‘lon qildi?
12. Mirzo Sirojiddin 1906-yil Eronga qaytgach qayerda tahsil oladi?

13. Mirzo Sirojiddin afg'on chegara harbiylari tomonidan qo'lga olinib, necha oy davomida qamoqda saqlanadi?
14. Mirzo Sirojiddin farzand 7 yoshga to'lishi bilan unga qaysi ilm va kasblarni o'rgatish kerak deb ta'kidlaydi?
15. Afg'oniston amiri Habibullaxon Mirzo Sirojiddinni qanday ishga taklif etadi?
16. Mirzo Sirojiddin uzoq yillik safarlari davomida ko'rganlari va xotiralarini qaysi asarida yozib qoldirgan?
17. Mirzo Sirojiddin qachon va qayerda vafot etgan?
18. Mirzo Sirojiddin 1909-yil dekabr oyida vataniga qaytgach, Buxoroda qanaqa kasalxona ochadi?
19. Sirojiddin Hakim g'azallarining yetakchi mavzusi haqida gapiring.
20. Sirojiddin Hakim qachon vafot etgan?

Mavzuga oid testlar:

1. Mirzo Sirojiddin qachon va qayerda tug'ilgan?
 - A. 1834-yil 15-yanvar Buxoro shahrida
 - B. 1877-yil 23-oktyabrda Buxoro shahrida
 - C. 1864-yil 25-may Toshkent shahrida
 - D. 1878-yil 13-sentabr shahrida
2. "Navodir al-vaqoye" asari kimning qalamiga mansub?
 - A. Sadriddin Ayniy
 - B. Ahmad Donish
 - C. Qori Rahmatulloh Vozeh
 - D. Mahmudxo'ja Behbudiy
3. Sirojiddin Hakimning bevaqt o'limidan ta'sirlanib, kim "Oyina" jurnalida uning xotirasiga bag'ishlab maqolalar e'lon qiladi?
 - A. Mahmudxo'ja Behbudiy
 - B. Ismoilbek Gaspirali
 - C. Ahmad Donish
 - D. Qori Rahmatulloh Vozeh
4. Mirzo Sirojiddinning adabiy merosi to'g'ri ko'rsatilgan qatorni belgilang.

A. “Navodir al-vaqoye” asari , 200 gʻazal, 15 ruboiy, 2 musaddas, 5 qitʻa

B. “Tuhafi ahli Buxoro” memuar asari, 200 gʻazal, 3 qasida, 4 muxammas, 6 ruboiy

C. “Makorim ul-axloq”, 130 gʻazal, 5 fard, 3 masnaviy, 2 musamman

D. “Hifz-us-sihhat”, 25 masnaviy, 5 musaddas, 6 ruboiy, 3 soqiynoma

5. “Tuhafi ahli Buxoro” asaridan olingan quyidagi taʼrif qaysi shahar haqida?

“... Xurosonning qudratli va obod shaharlaridan biridir. Shahar havosi juda yoqimli. Xurosonning boshqa shaharlariga nisbatan toza va ozoda.da bugʻdoy, arpa, paxta koʻp. Paxta va jun savdosi ham yuqori. Koʻplab mahalliy va xorijiy korxonalar mavjud.

A. Eron

B. Sabzavor

C. Afgʻoniston

D. Buxoro

6. “Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur...”, - degan fiklar kimga tegishli?

A. Mahmudxoʻja Behbudiy

B. Abdulla Avloniy

C. Shamsiddin Shohin

D. Sirojiddin Hakim

7. Mirzo Sirojiddin 1912-yilda kim bilan hamkorlikda “Buxoroyi sharif” gazetasini nashrga tayyorlagan?

A. Shamsiddin Shohin

B. Mirzo Muhiddin

C. Mahmudxoʻja Behbudiy

D. Abdulla Avloniy

8. Mirzo Sirojiddinning masnaviy usulida yozilgan sheʼri qaysi qatorda toʻgʻri berilgan?

A. “Navbahor”

B. “Fuzalo”

C. “Yod bor”

D. “Sozamat”

9. Sirojiddin Hakimning “Buxoroda tahsil” maqolasida asosan qanday mavzular yoritilgan?


- A. Buxorodagi me'moriy obidalar va ularda o'qitish tizimi
- B. Madrasalardagi ta'lim tizimi, talabalarning hayoti
- C. Madrasalarda o'qitiladigan fanlar va mudarrislar
- D. Ta'lim dasturlari, mahalliy xalqning turmush tarzi

10. “Oyina” jurnalining o'n to'rtinchi sonida Mirzo Sirojiddinga bag'ishlab marsiya yozgan ijodkor nomi qaysi qatorda to'g'ri berilgan?

- A. Sadriddin Ayniy
- B. Ahmad Donish
- C. Shamsiddin Shohin
- D. Mahmudxo'ja Behbudiy

Adabiyotlar

1. Inoyatov.S. Tabib va jahongashta sayyoh// Buxoronoma. 50 son. –Buxoro, 2020. 4-b.
2. Jamolova. Ahmad Donishning vorisi// Tafakkur. 2 son.– Toshkent, 2018- 86-87-b.
3. Мирзо Сирожиддини Хаким. Туҳафи аҳли Бухоро. – Душанбе: Ирфон, 1984.
4. Mirzo Sirojiddin. – Toshkent: O'zRFA, 1963.5-b.
5. Nizomiddinov I., Sayyohlarning yozganlari, Toshkent, 1960. 4-son.
6. Qori Rahmatulloh Buxoriy Vozeh, Tuhfat ul ahbob fi tazkirat ul ahbob, Buxoro, 2001; Nizomiddinov I., Sayyohlarning yozganlari, Toshkent, 1960.
7. Safarov O. Buxoro adabiy harakatchiligi tarixidan lavhalar. – Buxoro.Durdona, 2015. -B 583.
8. Ziyoi alim// Oyna. 12 son. – Samarqand, 1914, 291-292 b.
9. https://uz.wikipedia.org/wiki/Siroj_Hakim
10. <https://jadid.uz/jadids/mirzo-sirojiddin-hakim-buxoriy/>



GLOSSARIY

ADABIYOT – arabcha «adab» so'zidan olingan. Keng va tor ma'noda qo'llanadi. Keng ma'noda barcha kitob turlari, gazeta va jurnallar. Tor ma'noda badiiy adabiyot, badiiy asarlar. Badiiy adabiyot qaysi xalqqa mansubligiga ko'ra «O'zbek adabiyoti», «Arab adabiyoti», bo'linadi. Badiiy adabiyot yaratilish davriga qarab qadimgi adabiyot, hozirgi adabiyot yoki aniq tarixiy davr hamda xalqqa bog'lab yuritiladi. M.: XV asr o'zbek adabiyoti, milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti, istiqlol davri o'zbek adabiyoti.

ARUZ– arab, fors – tojik va turkiy tillarda so'zlashuvchi xalqlar she'riyatidagi asosiy vazn turi – she'r sistemasi bo'lib, hijo (bo'o'in) larning miqdori va sifati (cho'ziq - qisqa) ga asoslanadi.

BAHR – arabcha «dengiz, ummon» degan ma'noni bildiradi. Aruz vaznida ruknlar takroridan hosil bo'ladigan vazn nomi. Jami 19 (Boburning «Muxtasar» asarida 21) bahr mavjud. Bular: mutaqorib, mutadorik, hazaj, ramal, rajaz, komil, xafif, mujtass, munsarih, tavil, sari', muzori', vofir. Muqtazab, madid, basit, qarib, mushokil, g'arib, ariz, amiq. Keyingi 9 tasi o'zbek she'riyatida mutlaqo qo'llanilmagan.

DEVON – sharq mumtoz shoirlarining o'zi yoki maxsus kotib tomonidan arab alifbosida tartib berilgan she'rlar to'plami. She'rlar misradagi so'nggi harfga ko'ra joylashtirilgan. Alisher Navoiyning «Xazoyinul maoniy», Ogahiyning «Ta'viz ul oshiqin» devonlari devon tartib qilishning eng yuksak namunalari hisoblanadi. Devonga dastlab g'azal kiritiladi.

MASNAVIY – so'zi arabcha "ikki" sanoq sonini bildiruvchi "isnan" so'zidan yasalgan bo'lib, ikkilik ma'nosini ifodalaydi. Sharq mumtoz she'riyatida har juft misra o'zaro butunlikni hosil qiluvchi, ya'ni qofiyalanuvchi she'riy shakl masnaviy deb nomlanadi.

MA'RIFAT – tasavvufning tariqatdan keyingi bosqichi. Ma'rifat Allohni anglash va bilish ilmi. U uch bosqichdan iborat. Birinchi bosqich ilmulyaqin deyiladi. Unda aqliy bilim, ya'ni kitobiy, tahsiliy bilim orqali ilohiy mohiyat o'rganiladi. Bunda murshidning roli katta bo'ladi. Ikkinchi bosqich aynulyaqin deyiladi. Bu tajriba

mushohada orqali Haqni bilishdir. Uchinchi bosqich haqqulyaqindir. Bunda ilohiy mohiyat sezgi va his-tuyg'ular orqali anglanadi.

MUAMMO – mumtoz she'riyatdagi topishmoq janrlardan biri, ko'proq fard, ya'ni bir baytdan (2-3 baytlilari kam uchraydi) tashkil topuvchi she'riy asar.

MUXAMMAS arabcha— sharq she'riyatidagi she'riy shakllardan, qofiyalanish tartibiga ko'ra tuzilgan she'r. M.ning har bir bandi 5 misradan iborat bo'lib, a-a-a-a-a, b-b-b-b-a, v-v-v-v-a, ba'zan esa a-a-a-a-a, b-b-b-a-a tarzida qofiyalanadi. Bandlarning oxirida shoir taxallusi keltiriladi. Muxammas bandining 5misrasida qofiya sifatida qo'llangan so'z shu misra bo'ylab 2-3 marta takrorlanadigan namunalari ham uchraydi.

MUSADDAS (arabcha: *oltilik*) – har bir bandi olti misradan iborat bo'lgan she'r. Musaddaslar ikki xil bo'ladi. Musaddas, shuningdek, musammat xillaridan biri. Aruzningturli vaznlarida, turli mavzularda yoziladi, a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-b-a, v-v-v-v-v-asr.. yoxud takror, tarje misralari, baytlari bo'lsa — a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-b-a, v-v-vv-v-a; a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-a-a, v-v-v-v-a-a tarzida qofiyalanib keladi. Musaddas ham musammatlarning boshqa xillaridagi kabi shoir yoxud ikki shoir taxallusi keltiriladi. Shu taxalluslarga qarab Musaddas she'r mustaqil yoki tazmin usulida yaratilganligi aniqlanib olinadi.

MUSLIHA – dinga xayrixoh, dinni yaxshilash va e'zozlashga xizmat qiluvchi

QASIDA – mumtoz lirikadagi janr; biror shaxs (shoh, arbob, qahramon), biror muhim voqea, tabiat va sh.k.larni madh etish, ularning yuksak fazilat va xususiyatlarini e'tirof etish maqsadida yoziladigan she'r.

QITA – parcha, bo'lak, qism, bir kesim. Sharq mumtoz she'riyatida keng tarqalgan, ikki baytdan bir necha o'n baytgacha (ayrim manbalarda 19 baytgacha deb belgilangan) hajmdagi, juft misralari o'zaro qofiyalanib, toq misralari ochiq qoluvchi (b-a, v-a, g-a tarzida) she'r shakli; lirik janr.

QOFIYA – misra oxiridagi soʻzlarning bir-biriga mos boʻlishi – sheʼriy misralar oxiridagi qoʻshimcha, soʻz, baʼzan soʻz birikmalarining ohangdosh boʻlib kelishi, aniqrogʻi, ularning tarkibidagi tovushlar guruhining ohangdoshligi.

RUBOIY (arabcha - toʻrtlik) — Sharq xalqlari sheʼriyatida keng tarqalgan poetik janr. Tayin gʻoyaviybadiiy va shakliy shartlarga binoan yaratilgan 4 misradan iborat falsafiy, axloqiy, taʼlimiy yoki ishqiy mavzudagi sheʼr. Ruboiy hazaj baxrida (axram va axrab vaznlarida jami 24 ta) yoziladi. Boshqa bahrlarda yozilgan toʻrtliklar dubaytiy, kuylanadiganlari esa tarona deb ataladi. Ruboiy qofiyalanish tartibiga koʻra ikki xil boʻladi. Birinchi xil ruboiylarning 1-2-4misralari oʻzaro qofiyalanadi (a-a-b-a shaklida).

SARROF— pul ayirboshlovchi; yirik pulni maydalab berish yoki chet el pulini biror mamlakat puliga almashtirib berish ishi bilan shugʻullanuvchi va shundan foyda koʻruvchi shaxs.

SOQIYNOMA (soqiy va noma) — 1) Sharq mumtoz adabiyotida masnaviy shaklidagi lirik janr. Odatda, har bir bandi bevosita soqiyga murojaat sifatida boshlanib, keyin shoirning kechinmalari tasvirlangan. Soqiynoma rasman marhumlar xotirasiga bagʻishlansa-da, unda shoirning falsafiy, ijtimoiy va axloqiy qarashlari ham oʻziga xos lirik tarzda aks etgan. Fors tilidagi dastlabki soqiynomalar Nizomiy ("Layli va Majnun" debochasida), Salmon, Hofiz qalamiga mansub. Oʻzbek adabiyoti tarixida bu janrni Alisher Navoiy asoslagan. Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy" asaridagi 32 band (458 bayt)dan iborat soqiynomasi qoʻyilgan masalalarning kengligi, aniq tarixiy sharoit va voqealar bilan bevosita bogʻlanganligi jihatidan ajralib turadi. Bu asar oʻziga xos izchil uslubga ega. Unda Navoiyning shaxsiy turmushi bilan bogʻliq detallar hamda shoirning oʻz davri va zamondoshlariga bergan bahosi poetik ifodasini topgan.

TABIBLIK – xalq tabobati asosida bemorlarni davolash. Sharq xalqlarida bir necha ming yillik tarixga ega boʻlib, avloddan avlodga oʻtib, rivojlanib kelgan. Oʻrta asrlarda faqat Xorazm va Xurosonda emas, balki savdo va madaniyat markazi boʻlgan Samarqand, Buxoro va boshqa shaharlarda ham tabiblar bemorlarni

markazlashgan sihatgohlarda davolash bilan shug'ullanishgan. Tabiblar zamonasining o'qimishli va tibbiyotda ma'lum tajribaga ega kishilari bo'lgan. Nihoyatda tajribali, yetuk, o'qimishli tabiblarni xalq hakim deb atagan.

TARJI'BAND (arabcha- qaytarish, takrorlash; band) — mumtoz adabiyotda lirika janrlaridan. T. g'azal kabi qofiyalanib, 5 baytdan 12 baytgacha bo'ladi, har bandi bir vaznda yozilib, bandlar oxirida boshqa bir bayt takrorlanib keladi. Bandlar takrorlanuvchi bayt — tarji' vositasida o'zaro bog'lanishi tufayli T. deb yuritiladi. Barcha bandlarning oxiri o'sha takrorlanadigan bayt bilan mazmun jixatidan uzviy boitanib keladi. T.da takrorlanadigan ushbu bayt bayt boshi deb aytiladi.

TARKIBBAND (arabcha tuzilish, band)— bir vaznda yozilib, g'azal tarzida (taxallussiz) qofiyalanadigan, har banddagi baytlar soni teng bo'lgan, har band oxirida bir bayt alohida qofiyalanib keladigan she'r shakli. Lekin takrorlanib turuvchi baytlar saqlansada, bandlar miqdori turli shoirlarda turlicha. Tarkibband murakkab tuzilishga ega bo'lib, shoirdan alohida mahorat va tajriba talab etadi. Tarkibband fors-tojik adabiyotida 9-11, o'zbek adabiyotida 15-asrdan yozila boshlagan.

TOLIB – bilim istovchi, qo'msovchi, ilmga chanqoq, talab qiluvchi, ilm izlovchi,

FARD – o'zaro qofiyalangan ikki misra – yolg'iz baytdan iborat, tugal mazmunga ega she'r, mumtoz adabiyotdagi eng kichik mustaqil lirik janr. Muayyan mazmun, g'oya ilgari suriladi, badiiy umumlashma, hayotiy tajribadan kelib chiquvchi hukm, xulosa tajassum topadi.

“YOSH BUXOROLIKLAR”— Buxoro amirligidagi jadidlar partiyasi (firqasi). Dastlab „Tarbiyayi atfol“ („Bolalar tarbiyasi“) maxfiy jamiyati shaklida tuzilgan. 1910-20 yillarda „Yosh buxoroliklar“ partiyasi deb atalgan. Unga taraqqiyparvar ziyolilar, savdogarlar va shahar kambag'allari vakillari kirgan. Ular boshida mavjud amirlik tuzumi doirasida demokratik islohotlar o'tkazish, konstitutsiyaviy monarxiya o'rnatish orqali amirning mutlaq hokimligini cheklab qo'yish tarafdori bo'lgan. Abdulvohid

Burhonov, Mukammil Burhonov, Sadriddin Ayniy, Usmonxo'ja Po'latxo'jayev (Usmonxo'ja), Otaulla Xo'jayev, Ahmadjon Hamdiy (Abusaidov), Homidxo'ja Mehriy, Muso Saidjonov, Mirzo Siroj Hakim Yosh buxoroliklarning dastlabki tashkilotchilari edi. Keyinchalik uning faoliyatida Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo'jayev va Muhiddin Mansurov katta rol o'ynashdi. Yosh buxoroliklar iqtidorli yoshlarni Istanbul, Qozon, Ufa, Boqchasaroyga o'qishga jo'natdi. Ular partiyaning moddiy mablag'i hisobidan ta'lim olishgan. Fayzulla Xo'jayev va Muhiddin Mansurov partiyaga katta mablag' ajratgan. Istanbulda „Buxoro ta'limi maorif jamiyati“ tashkil qilinib, jamiyat a'zolari Turkistonda maorif tizimini rivojlantirishda muhim ishlar qilishdi. Jamiyatning ko'magi bilan Abdurauf Fitrat va boshqalar taraqqiyparvarlarning asarlari Istanbulda nashr qilinib, Turkiston mintaqasiga tarqatildi. Yosh buxoroliklarning maqsadi yangi usul maktablarini ochish, bolalarning savodini tezroq chiqarish, ijtimoiy ongini o'stirish, maktab, Madrasa, o'quv tizimini isloh qilish edi.

ZULLISONAYN — ikki tilni yoki muayyan adabiy til va uning dialektini mukammal bilish. Bu ijtimoiy talab yoki biror sabab bilan yuzaga keladi. Uning tabiiy vujudga kelishiga bir davlat hududida ikki va undan ortiq xalq vakillarining jips yashashi ham sabab bo'ladi. O'zbek mumtoz adabiyotining ko'pgina vakillari ham o'zbek, ham fors tilini yaxshi bilganlar. Masalan, Alisher Navoiy o'z ona tili — turkiy til bilan bir qatorda fors tilini ham juda yaxshi bilgan. Bu tildagi asarlarini to'plab devon („Devoni Foni“) tuzgan. Bu devoni forsiy til shoirlar, xususan, Jomiy tomonidan yuksak baholangan. Ikki tilda ijod qiladigan adiblar hozir ham uchraydi.

G'AZAL – ayollarga xushomad qilish, ayollarni madh etish. Sharq mumtoz she'riyatida eng ko'p tarqalgan lirik janr, 3 – 4 baytdan 19 baytgacha bo'lgan hajmda yozilib, a-a, b-a, v-a, g-a... tarzida qofiyalanuvchi she'r.

HUSNI MATLA' (maqsadni chiroyli bayon qilish) – mumtoz adabiyotdagi she'riy san'at, ilmi badi'ga oid manbalarda husni talab, baroati talab, husni suol kabi nomlar bilan ham ataladi.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
Buxoro adabiy muhitining o'ziga xos xususiyatlari	5
Buxoro adabiy muhitining shakllanishi	5
XIX asr Buxoroda faoliyat yuritgan ijodkorlar	12
Muslihabegim Miskin adabiy merosi va she'riyatining janriy xususiyatlari	26
Muslihabegim Miskinning hayot yo'li	26
Miskin devonlarining tarkibi va janriy xususiyatlari	39
Muslihabegim Miskin she'riy hikoyatlarining muhim poetik xususiyatlari.....	54
Muslihabegim Мискин рубоийлари nasriy bayoni	66
Muslihabegim Miskin g'azallari nasriy bayoni.....	67
Shamsiddin Shohin va Sirojiddin Hakim Buxoriy hayoti va ijodiy merosi.....	80
Shamsiddin Shohin hayoti va ijodiy merosi	80
Mirzo Sirojiddin Hakim hayoti va ijodiy merosi	89
Glossariy.....	104

SODIQOVA DILOROM TURSUNOVNA

**O‘ZBEK ADABIYOTI TARIXI: BUXORO
ADABIY MUHITI**

O‘quv qo‘llanma

<i>Muharrir:</i>	<i>A. Qalandarov</i>
<i>Texnik muharrir:</i>	<i>G. Samiyeva</i>
<i>Musahhih:</i>	<i>Sh. Qahhorov</i>
<i>Sahifalovchi:</i>	<i>M. Bafoyeva</i>

Nashriyot litsenziyasi AI № 178. 08.12.2010. Original-maketdan bosishga ruxsat etildi: 26.02.2025. Bichimi 60x84. Kegli 16 shponli. «Times New Roman» garn. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset bosma qog‘ozi. Bosma tobog‘i 7,0. Adadi 100. Buyurtma №111

“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ
“Durdona” nashriyoti: Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: 0(365) 221-26-45